

A.A.MAXMUDALIYEV,  
B.B.TO'YCHIBOYEV, G.G.YUSUPOV

# SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SIRDARYO VILOYATI HOKIMLIGI  
GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**A.A.MAXMUDALIYEV,  
B.B.TO‘YCHIBOYEV,  
G‘.G.YUSUPOV**

**SIRDARYO VILOYATI  
TOPONIMLARI**

**“Ziyo nashr-matbaa” XK  
Guliston - 2024**

UO‘K: 811.512.133'373.21

KBK: 81.2O'zb-3

M 32

A.A.Maxmudaliyev, B.B.To‘ychiboyev, G‘.G.Yusupov.

Sirdaryo viloyati toponimlari [Matn] - Guliston: Ziyo nashr-matbaa, 2024.-132 b.

Mazkur tadqiqot Sirdaryo viloyati toponimlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda toponimika fanining asosiy tarkibiy qismlari bo‘yicha tushunchalar, sohaga oid ilmiy izlanishlar tarixi, toponimikaning o‘ziga xos xususiyatlari va tadqiqot metodlari bayon qilingan. Shu bilan birga unda Sirdaryo viloyati oykonimlari, jumladan gidro, oro, fito, etno, antropooykonimlarga ta’rif berilgan va Sirdaryo viloyatining qisqacha toponimik lug‘ati keltirilgan.

**Mas’ul muharrir.**

J.X.Karshiboyev– b.f.d., Guliston davlat pedagogika instituti rektori.

**Taqrizchilar:**

F.E.Toshboyev – tarix fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori, professor.

A.Axrоров – filologiya fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori, dotsent.

U.B.Mirzaliyev– tarix fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori.

Monografiya Guliston davlat pedagogika instituti Kengashining 2023-yil 29-dekabrda 5-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

“Sirdaryo viloyati toponimlari” monografiyasi Vazirlar Mahkamasi Rayosatining 2023-yil 30-avgustdagi 80-son majlis bayonida belgilangan vazifalar, jumladan viloyat tarixi, qadriyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan joy nomlarini o‘rganish, targ‘ib qilish va abadiylashtirish ishlari ijrosini ta’minlash doirasida amalga oshirildi.

ISBN 978-9910-792-23-6

© Sirdaryo viloyati toponimlari

© “Ziyo nashr-matbaa” XK

## SO‘Z BOSHI

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng milliy o‘zligimizni anglash, bebaho qadriyatlarimizni tiklash, mustabid tuzum davrida asossiz ravishda o‘zgartirib yuborilgan ko‘plab qadimiy joy nomlarini qayta o‘z o‘rniga qo‘yish imkoniyati yuzaga keldi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek: “Sirdaryo viloyati garchi O‘zbekiston tarkibidagi ma‘muriy hudud sifatida ancha yosh bo‘lsa-da, bu zaminning necha ming yillik tarixi, madaniyati bor”<sup>1</sup>. Ayrimlar Sirdaryo deganda yaqin-yaqingacha birorta giyoh ham o‘smagan kimsasiz cho‘lni tushunishadi. Bu ko‘pam-da to‘g‘ri emas. Zero, bu hududlarni makon tutgan ajdodlarimiz qadimdan bu joylarga suv olib chiqib, obod etishgani bor gap. XV asrda bu yerlarga kanal tortib, suv chiqargan Shohrux va Ulug‘bek Mirzolarning nomlarini Sirdaryo ahli doimo minnatdorlik bilan tilga oladi.

Hech shubhasiz, o‘tmishda qush uchsa – qanoti, odam yursa – oyog‘i kuyadigan bu yerlarni o‘zlashtirib, Guliston, Yangiyer, Baxt, Shirin kabi shaharlar bunyod etgan, bu o‘lkaga zamonaviy taraqqiyot olib kelgan fidoyi ota bobolarimizning qahramonona mehnatini xalqimiz aslo unutmaydi. Viloyatdagi ko‘plab toponimik joy nomlari ham hududimizda qadimdan aholi yashab kelganligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda hududlardagi toponimik nomlarni o‘rganish, mazkur sohada olib borilayotgan ishlarni tartibga solish va amalga oshirishning huquqiy asoslari yaratildi. Respublikamizda “O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalarini hal etish to‘g‘risida”gi Qonun va uning ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasidagi ma‘muriy-hududiy birliklar, aholi punktlari, tashkilotlarga va boshqa toponimik obyektlarga nom berish ishlarini tartibga solish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning

---

<sup>1</sup> Шавкат Мирзиёев. Сахро бағрида мўъжизалар яратаётган эл (Сирдарё вилояти сайловчилари вакиллари билан учрашувдаги нутқ). “Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз”. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017, В. 375-376.

joylardagi ijrosini ta'minlash maqsadida toponimik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi Respublika komissiyasi va uning viloyat hokimliklari huzuridagi hududiy komissiyalari tashkil etildi. Garchi, toponimik obyektlarga eski tuzum mafkurasini eslatadigan, xalqimiz tarixi va milliy an'analariga yot bo'lgan nomlar berishga chek qo'yilgan bo'lsa-da, ayrim hollarda takroriy, toponimika qoidalariga zid keluvchi nomlarni berish holatlari hamon saqlanib qolmoqda.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda qadim va shonli tariximiz, buyuk ajdodlarimiz hayoti va faoliyatini bilish ibrat maktabi vazifasini o'taydi. Bu borada Sirdaryo tarixi ham yurtimiz tarixining uzviy qismi sifatida har birimiz uchun faxrli va azizdir. Sirdaryo tarixini o'rganish va uni targ'ib qilish bizning farzandlik burchimizdir.

Mazkur monografiya tadqiqot hududiy komissiya a'zolarini, talabalar va boshqa qiziquvchilarni toponimik bilimlar bilan qurollantirib, yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi, degan umiddamiz.

**J. X.Karshiboyev,  
Guliston davlat pedagogika instituti rektori,  
Biologiya fanlari doktori (DSc).**

## KIRISH

Bugungi kunda kishilar o'zlari yashaydigan ko'cha, mahalla, qishloq yoki shaharlarning nomlanishiga, mavjud nomlarning ma'nosiga, ularning aytilishi va yozilishiga katta qiziqish hamda e'tibor bilan qaramoqdalar. Bir so'z bilan aytganda, xalqimizning joylarga nom tanlash asosida milliy toponimik madaniyat qayta tiklanmoqda. Yurtimiz tabiati va xalqimiz tarixiga begona bo'lmagan, milliy tili bilan ajralib turuvchi joy nomlarini ko'paytirish ushbu sohadagi asosiy vazifalar hisoblanadi. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etish ko'p jihatdan toponimika fanidan olingan bilim ko'nikma va malakalarga bog'liqdir.

Kishilarning kundalik hayotida doimo takrorlanib turadigan "Qayerda?" degan savolga turli xil geografik nom va atamalarni ishlatish orqali javob beriladi. Bu nomlar shu qadar ko'p takroriy ishlatiladiki, kishilar ularga ko'nikib qoladilar. Faqatgina yangi, aytilishi boshqacha, sirli, g'ayrioddiy geografik nomlarni eshitganimizda o'ylanib qolamiz: Nega bu joy shunday nomlangan? Ma'nosi nima? Kim tomonidan qo'yilgan? Qaysi xalq tilidan olingan? Boshqa yana shunday atalgan joylar bormi? Bu kabi savollarning barchasiga geografiya, tarix va tilshunoslik fanlari oralig'ida joylashgan „Toponimika“ fani javob beradi.

Toponimlarning kishilar hayotidagi asosiy, bosh vazifasi manzilni ko'rsatib berishdir. Manzil – biror kishi yoki tashkilot o'rnashgan joyining batafsil nomidir. Demak, toponimlar biror geografik obyektning joylashgan o'rnini yoki birovning yashaydigan joyini anglatadi. Manzilning noto'g'ri ko'rsatilishi yoki bir xil nomdagi manzillarning bir nechta bo'lishi jamiyatda ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqargan bo'lar edi. Mamlakatimizning dunyo hamjamiyati bilan xalqaro aloqalari, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi axborot almashinuvi kengayib borayotgan davrda geografik nomlarga bo'lgan e'tibor yanada ortib ketdi. Shuning uchun ham toponimik obyektlarga nom berish, ularning aniq, to'g'ri yozish katta amaliy ahamiyatga ega.

Bundan tashqari toponimlar o'sha joyning tabiiy - geografik sharoiti, u yerda yashagan xalqlar tarixi, etnologiyasi, ijtimoiy hayotda

yuz bergan muhim voqealar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Bunday ma'lumotlarni olish uchun toponimlarning ma'nosini bilishga ilmiy asosda yondashish, nomlarga moslab to'qilgan rivoyat va cho'pchaklarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish talab etiladi. Toponimlar milliy tilning tarkibiy qismidir. Har bir millat o'z tili boyligini saqlashga, uni sof holda avlodlarga yetkazishga, jahon bo'ylab keng yoyilishiga harakat qiladi.

Xalqning mustaqilligi qo'ldan ketisa, uning tiliga ham tajovuz boshlanadi, shu bilan birga, joy nomlari ham to'xtovsiz o'zgartiriladi. Bunga barchamiz yaqin o'tmish voqealarida guvoh bo'lganmiz.

Butun mamlakatda bo'lgani kabi Sirdaryo viloyatida ham ko'plab joy nomlari o'z xalqimiz, millatimiz manfaatlari nuqtayi nazaridan kelib chiqib o'zgartirildi. Ularni ilmiy asosda o'rganish, ma'nosini anglash, toponimik xaritalarni tuzish, takroriy (adash) nomlar paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, to'g'ri yozish, ko'rsatkichlar bilan ta'minlash, kelajak avlodlar uchun asrab qolish bugungi kunimizning asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Ushbu mas'uliyatli vazifani mukammal bajarish ko'p jihatdan viloyat va tumanlarda tuzilgan toponimik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi komissiya, uning qoshidagi ishchi guruh, faoliyatiga bog'liq. Bu komissiyaning umumli ishlashida esa a'zolarining toponimika fanining umumiy qoidalari hamda Sirdaryo viloyati toponimlari bilan tanish bo'lishi ahamiyatlidir. Shuning uchun mazkur tadqiqotda joylarga nom berishda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan umumiy toponimik qoidalar hamda viloyat qishloq va mahallalarining toponimik lug'ati kiritilgan.

Mazkur ish yuqoridagi mas'uliyatli vazifani bajaruvchi tumanlardagi toponimik komissiya ishchi guruhi a'zolariga ozroq ko'mak beradi, degan umiddamiz. Bundan tashqari, undan oliy o'quv yurtlarida toponimika fani o'qitiladigan geografiya, shuningdek, o'zbek tili va adabiyoti, tarix yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar hamda barcha qiziquvchilar foydalanishlari mumkin. Ushbu tadqiqot muallifning ko'p yillik kuzatishlari, viloyat toponimik xaritasini tahlil etish, shu sohadagi ilmiy adabiyotlar bilan tanishishning mahsuli sifatida

yaratildi. Tadqiqot haqidagi har qanday fikrlar muallif tomonidan bajonidil qabul qilinadi.

Tadqiqot ishining yaratilishi, ma'lumotlar to'planishida, o'z fikr-mulohazalari va takliflari bilan yordamchi bo'lgan barchaga, jumladan, tuman va shahar hokimining davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchilariga o'z minnatdorligimizni bildiramiz.

**Mualliflar**



## TOPONIMIKA FANI VA UNING VAZIFALARI

“Ko‘l qurisa ham, nom qurimaydi deydi xalqimiz” Tog‘lar yemirilsa bordir, ammo joy nomlari ming-ming yillarga bardosh beradi. Chunonchi Sug‘d, Xorazm, Baqtriya kabi nomlar bundan 2500-yil oldin bitilgan mixxatlarda tilga olingan<sup>2</sup>.

O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekistondagi ko‘pgina nomlar 1000-1500-yil oldingi qadimiy turkiy yozuvlarda, sug‘d yozma manbalarida, xitoy “yilnomalari”da va arab tilli sayyohlarning asarlarida qayd qilingan.

*Toponimika fanining predmeti.* Joy nomlari kelib chiqishi tarixini va nomlar ma’nolarini “Toponimika” fani o‘rganadi. “Toponimika” fani geografik nomlar (toponimlar) bilan shug‘ullanadigan ilmiy fanlardan biridir. Uning asosiy maqsadi – joy nomlari, ularning kelib chiqishi va tarixini tadqiq qilish, tavsif berish, joy nomlarining tarixi to‘g‘risida ilmiy tadqiqotlar olib borish, toponimlarning inson, tabiat va ijtimoiy hayotga ko‘rsatgan ta’sirini o‘rganishdir. Bizni o‘rab turgan atrofimizdagi dunyoda har bir obyektning o‘z nomi bor. Nomlar har bir tilda o‘ziga xos so‘zlar bilan ifodalanadi. Bu so‘zlar jism (kitob, bino, tog‘), mavjudot (qush, odam, bo‘ri), mavhum tushunchalar (mo‘jiza, dam olish, go‘zallik, quvonch), ularning sifat va xususiyatlarini (yaxshi, katta, chuqur, mehnatkash) va hokazolarni ifodalaydi. Bu so‘zlar ma’lum bir aniq obyektga emas, balki ayrim obyektlarning butun guruhini anglatadi. Bular umumiy otlardir. Lekin tilda faqat bitta predmetga ishora qiluvchi, alohida ahamiyat kasb etuvchi narsalarni nomlaydigan so‘zlar ham mavjud. Bu atoqli nomlar hisoblanadi. Bularga jug‘rofiy nomlar yoki toponimlar (yunoncha *τοπος* – “joy” va *ονομα* – “nom”, ya’ni joy nomidan) kiradi.

Geografik nomlar olami nihoyatda xilma-xil va qiziqarlidir. Sayyoramiz tarixi turli davrlarga oid va turli tillarga mansub geografik nomlar tarixidan iborat. Har kuni biz ularni radioda eshitamiz, gazetalarda o‘qiymiz, televizor ekranlari va kompyuter monitorlarida

---

<sup>2</sup> Гуломов П., Миракмалов М. Топонимика ва географик терминология. – Т.: ЎзМУ, 2005.  
Гуломов П.Н. География ва табиатдан фойдаланиш. – Т.: Ўқитувчи, 1985.

ko‘ramiz. Ularsiz geografik xarita yoki atlasni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Biz hayotimizdagi ko‘plab hodisalarni geografik nomlar orqali idrok qilamiz. Biroq, biz ko‘pincha bizga yaxshi ma‘lum bo‘lgan u yoki bu geografik nom nimani anglatishini kamdan kam o‘ylaymiz<sup>3</sup>.

Zamonaviy sivilizatsiyani geografik nomlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Toponimlar jamiyat va butun insoniyat taraqqiyotining muhim elementidir. Ularning ma‘lum bir hududda to‘planishi ko‘p asrlik xalq amaliy san‘ati va geografik nomlarning yaratilishi natijasidir. Geografik nomlar – bu mamlakat, shahar yoki tabiiy obyekt bilan tanishishni boshlaydigan tashrif qog‘ozi hisoblandi<sup>4</sup>.

Toponimlarni tushunish, ularning qanday paydo bo‘lganligi, rivojlanishi, o‘zgarishi, bu jarayonga nimalar ta’sir ko‘rsatganligi va, albatta, nimani anglatishini aniqlash zarurati tug‘ilishi tabiiy holat hisoblanadi. Bu savollarning barchasi maxsus fan - toponimikaning o‘rganish doirasiga kiradi. Geografik nomlarni o‘rganish zarurati bir qator ilmiy sohalar uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatiga ega.

Toponimika – geografik nomlar, ularning kelib chiqishi, rivojlanishi, hozirgi holati, semantik ma‘nosi, imlosi va talaffuzini o‘rganadigan ilmiy fan hisoblanadi.

Toponimika ma‘lum bir hudud uchun geografik nomlar to‘plami hisoblanadi. Geografik toponimlar nomenklaturasi (lotincha nomenklatura – “nomlar ro‘yxati”dan), toponikon (toponimiya) tushunchalari toponimiya atamasiga o‘xshashdir<sup>5</sup>. Demak, toponimikaning o‘rganish obyekti toponimlar hisoblanadi.

Toponimika makro va mikro toponimlardan iborat bo‘lib, mikrotoponimika grammatik jihatdan mayda obyektlarni, ya’ni turdosh otlarni, makrotoponimika esa atoqli otlar, ya’ni yirik obyektlar nomini tadqiq qiladi. Toponimika fani faqat katta va yirik obyektlarning: tog‘lar, o‘rmonlar, vodiylar, vohalar, shaharlarning nomlarini emas, balki kichik obyektlarning: mahallalar, daralar, anhorlar, daryolar, irmoqlar va ko‘llar nomlarini ham o‘rganadi.

---

<sup>3</sup> Супруненко П.П., Супруненко Ю.П. Топонимика. – М.: Терра, 2004.

<sup>4</sup> Мурзаев Э. М. Топонимика и география. – М., 1995.

<sup>5</sup> Фуломов П., Миракмалов М. Топонимика ва географик терминология. – Т.: УзМУ, 2005.

Til xalqniki, joy nomlarini ham xalq yaratadi. Asrlar osha yetib kelgan toponimlarni izlab topish, chuqur o'rganish va tahlil qilish toponimika fanining asosiy maqsadidir. Ushbu toponimlarni avaylab, e'zozlab kelajak avlodga yetkazib berish toponimika fanining oldida turgan muhim vazifadir.

Toponimiya atamasi u yoki bu tumanning geografik nomlari to'plamini bildiradi. Masalan, "O'zbekiston toponimikasi" deganda, respublikamizning geografik nomlari, ularni tarkib topishi to'g'risidagi tadqiqot tushuniladi. "O'zbekiston toponimiyasi" deganda esa, bu yerdagi geografik nomlarning (toponimlarning) yig'indisi (to'plami) tushuniladi.

## **VATAN TARIXINI O'RGANISHDA TOPONIMIKANING O'RNI**

Biz dunyoda, vatanimizda, tug'ilgan joyimizda mavjud bo'lgan joy nomlarini juda kam bilamiz. Geografik nomlar xaritaning muhim elementlari hisoblanadi. Ular kishilar tomonidan yangi hududni o'zlashtirish xususiyatini, hududning tabiiy boyliklari va boshqa geografik xususiyatlari to'g'risida ma'lumot beradi.

Toponimik joy nomlari ming yillar davomida to'planib kelingan va ularning miqdori juda ko'pdir. Hozirgacha toponimik nomlar qancha ekanligini hech kim bilmaydi. Bu ishni qilishning imkoniyati ham deyarli yo'qdir. Chunki shunday nomlar borki, ulardan faqatgina qandaydir qishloqlarda yoki manzilgohlarda yashaydigan, cheklangan miqdordagi kishilargina foydalandilar. Bularga bedapoyalar, yaylovlar, chakalaklar, daryochalar, ko'lmaklarning nomlari kiradi. Ammo yangi barpo bo'lgan, yuzaga kelgan qishloq, shaharlar, zavodlar, yoki yirik obyektlar bo'lsa, ular qisqa vaqt ichida ko'pchilikka ma'lum bo'ladi. Ko'p hollarda kichik joylardan aholi shahar yoki yirik qishloqlardan ketib qolsa, bu qishloqning nomi unutib yuborilishi ham mumkin. Shahar va qishloqlarning nomlari xalqning xarakteri, tarixi, xo'jaligi va turmush tarzi, xususiyati to'g'risida ma'lumot beradi. Shuning uchun shahar yoki qishloq nomining kelib chiqishini va mazmunini tushuntirishda toponimik jihatdan yondashishi zarur.

Geografik nomlar bolaligimizdan buyon bizning atrofimizni o‘rab turadi. Shu sababli bizda joy nomlarini tushunish, anglash, ularni qanday paydo bo‘lishi, rivojlanishi, yo‘q bo‘lishi, bu nomlarning mazmuni nimani anglatishini aniqlash istagi tabiiy bo‘lib kelgan.

Joy nomlari kishilarning ish faoliyati jarayonida yuzaga keladi, ko‘pincha uning shakli va tovushi o‘zgaradi, o‘z davrini yashab bo‘lgach, halok bo‘ladi. Toponimlar hayotiylikining davomiyligi har xil. Ayrimlarining hayoti bir necha yillar davom etadi. Boshqalarniki esa, ko‘p asrlar davom etadi. Masalan, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Madina, Bog‘dod, Quddus, Iordaniya, Misr, Rim, Afinalarning nomlari bir necha ming yilliklarga teng va doimo barhayotdir. Baqtriya, Chag‘aniyon, Toxariston, Girkaniya, Seyiston, Ossuriya, Bobil va Finikiya bizga faqatgina tarixiy hujjatlar orqali ma’lumdir. Ko‘pincha faqatgina toponimlar yo‘qolmasdan, balki ularni yaratgan tillar ham yo‘qolib ketadi. Bu jarayon dunyo xaritasida ko‘p miqdorda yangi nomlarning tug‘ilishi bilan ham murakkablashadi. Allaqachonlar hech kim o‘tmishda Oq-Majitni Qizil O‘rda, Ostonani Selinograd deb atalganligini eslolmaydi. Katta daryolarning nomlari ko‘proq konservativ, ya’ni o‘zgarmasdir. Odatda daryo qancha katta bo‘lsa, uning nomi shuncha mustahkamroq bo‘ladi, ma’nosi esa jumboq bo‘lib turadi. Sirdaryo, Amudaryoga o‘xshash daryolar nomlari ma’nosini tushuntirishga urinayotgan ko‘p farazlar mavjud, ammo umumiy qabul qilingan tushunchalar, hozircha, yo‘q. Ko‘llar va dengizlarning gidronimlari ham abadiy emas (Kaspiy, Orol, Issiqko‘l va b).

Joy nomlarini to‘g‘ri yozish va talaffuz qilish katta amaliy ahamiyatga ega shuning uchun joy nomlarini to‘g‘ri yozish va talaffuz qilish kerak. Agar joy nomlarini birorta harfi noto‘g‘ri yozilsa yoki noto‘g‘ri talaffuz qilinsa, unda uning butun mazmuni va joylashgan joyi o‘zgaradi. Masalan, Elburs – Elbrus, Amu – Amur, Neva – Niva. Mari – bu Turkmaniston Respublikasida joylashgan shahar, Mariy – Volga bo‘yida joylashgan avtonom respublikasi nomini anglatadi.

Ko‘p hollarda toponimikadan yetarli malakasi bo‘lmagan o‘lkashunos va o‘qituvchilar joy nomlari etimologiyasini (nomni kelib chiqishi) tushuntirishda xatoga yo‘l quyadilar. *Masalan*, Murg‘ob – suv

qushi degan ma'noni anglatadi, deb tushuntiradilar. Aslida esa, Murg'ob so'zi sug'dchaga yaqin bo'lgan, yag'nob tilidagi so'z "marg" so'zidan olingan. Marg' yagnob tilida o'tloq degan ma'noni, ob esa suv ma'nosini bildiradi. Binobarin, "Murg'ob" suv bo'ylab joylashgan o'tloq ma'nosini anglatadi.

Har bir toponim – tarixiy, geografik, lingvistik ahamiyatga ega. Istalgan joy nomining aniq mazmuni mavjud. Amalda mazmunsiz nom bo'lmaydi. Nomlanish jarayoni bu o'zining milliy va til xususiyatga ega bo'lgan xalq ijodining mahsulidir. Toponimik nomlar, mamlakatlar, viloyatlar yoki o'lkalarda paydo bo'lgan, tarkib topganligi va tarqalganligi sababli o'sha davr tarixiy vaziyatining guvohi hisoblanadi. Tarixchilar, arxeologlar va etnograflar toponimikaga tarixiy manba sifatida tez-tez murojaat qilib turadilar. Toponimika tarixiy geografiya bilan bog'liq.

## **TOPONIMIKA FANINING ILMIY VA AMALIY AHAMIYATI**

Toponimika geografiya, tarix va tilshunoslik fanlari rivoji uchun katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Geografik nomlar xaritaning eng muhim elementi bo'lib, ular geografik kenglik haqidagi, hududning aholi manzillari, rivojlanishi va xo'jalikdan foydalanish xususiyati, muayyan hududning tabiati haqida ma'lumot beradi. Joy nomlarining to'g'ri yozilishi kartografiya uchun juda muhimdir. Joy nomlari bizga o'tgan davrlarning tabiatini tasavvur qilish imkonini beradi. Toponimikani to'g'ri tushunish tadqiqotchilarga tabiiy muhitni, aholining xo'jalik faoliyatining mohiyatini, etnik kelib chiqishini tushunish uchun boy materiallar beradi.

Toponimika geografik nomlar to'plamini, ularni kelib chiqishini, evolyutsiyasini, ma'nosi, tarqalish shaklini, takrorlanishini o'rganadi va tahlil qiladi. U toponimlar yozilishi, tildan tilga ko'chirilishi masalalarini o'rganadi. Toponimika fani tilshunoslikda muhim o'rin egallaydi. Tarixiy toponimlar so'zlardan iborat, shuning uchun toponimika tilshunoslik fani ham hisoblanadi. Tarixchilar har bir toponimik nomning kelib chiqish tarixini, uni mazmunini o'rganadilar. Geograflar

топонимлар yordamida, geografik obyektlar, ularning joylashgan o‘rnini o‘rganadilar. H.Hasanov fikriga ko‘ra, toponimika aslida geografiyaning bir tarmog‘i bo‘lib, tilshunoslikka ham, tarixga ham uzviy bog‘liq. Agar toponimikani tilshunoslikning yoki tarix fanining bir tarmog‘i desak xato bo‘lmas. Har bir fan sohibi toponimik tadqiqotlarda o‘z mutaxassisligini ustun qo‘yadi. Shuning uchun geograf toponimist, tarixchi toponimist, filolog toponimist va etnograf toponimist degan tutash sohalar ham paydo bo‘lgan<sup>6</sup>. E.M.Murzayev ham toponimika bir vaqtning o‘zida lingvistik, tarixiy va geografik ilmiy fan deb hisoblaydi. U har bir toponim turli xil: tarixiy, geografik va lingvistik ma‘lumotga ega, nomlanish jarayoni bu o‘zining milliy va til xususiyatiga ega bo‘lgan xalq ijodining jarayoni deb hisoblaydi<sup>7</sup>.

Geografik nomlar mamlakat, viloyat yoki o‘lkalarda paydo bo‘lgan nomlarni, tarkib topishi va tarqalish davri, tarixiy sharoitning guvohi hisoblanadi. Tarixchilar, arxeologlar va etnograflar toponimikaga tez-tez murojaat qilib turadilar. Toponimika tarixiy geografiya bilan bog‘liqdir. Geografik nomlarga qarab aholining o‘tmish migratsiyasi to‘g‘risida, turli xil millatlarning bir-biri bilan aloqalari to‘g‘risida, qadimiy etnoslar (xalqlar) areallari to‘g‘risida xulosa chiqaradilar. O‘z navbatida, toponimikani yuzaga kelish vaqti bilan to‘g‘ri keladigan aniq tarixiy vaziyatni bilmasdan, uning birlamchi mazmunini tushunish qiyin.

Hech qaysi fan toponimikaga “yakka egalik” qilish huquqiga ega emas. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, toponimik tadqiqotlarning rivojlanishi turli fanlarning usullari va yutuqlaridan foydalangan holda olib borilganda samara berishi mumkin. Toponimist (toponimika bilan shug‘ullanuvchi olim) faqat tilshunos, yoki geograf, yoki tarixchi bo‘lishi kerak emas, u toponimist bo‘lishi kerak. O‘tgan asrning 60-yillarida shakllangan bu qarash toponimikani fan sifatida o‘rganishdagi zamonaviy yondashuvlar muhim o‘rin egallaydi. Demak, toponimika bir

---

<sup>6</sup> Ҳасанов Ҳ. Ер тили. – Т.: Ўқитувчи, 1977. – Б. 8. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Т.:Фан, 1965. – Б. 21-26., Ҳасанов Ҳ. Географик номлар имлоси. – Т., 1965. – Б. 16-18.

<sup>7</sup> Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – М.: Мысль, 1974. – 384 с., Мурзаев Э.М. География в названиях. – М.:Наука, 1982. – С. 3-12.

qancha fanlar (tilshunoslik, tarix va geografiya) tutashuv nuqtasida rivojlanayotgan mustaqil fan hisoblanadi.

## **TOPONIMIKA FANIGA OID TERMINLAR**

Toponimika fani o'rganadigan sohalar har biri o'zining yo'nalishi bo'yicha alohida bo'limlarga bo'linadi.

Agronimlar – (yunoncha agros – dala, ekinzor, shudgor) toponimning bir turi, chek yer, tomorqa, shudgor, dala nomi.

Toponim – geografik nom (yunoncha topos – joy va “onima” nom, ism) har qanday geografik obyektning atoqli oti, nomi, jumladan, gidronim, oronim, speleonim, dromonim va hokazolar.

Toponimik areal – biron-bir toponimik hodisa tarqalgan hudud.

Toponimik kalka – (fransuzcha kalkua – kalka, qog'oz) nomning mazmuniga ta'sir etmasdan aynan tarjima qilinishi, masalan; Qorasuv-Siyoxob, Qizilsuv-Surxob.

Toponimik leksema – topoleksema (yunoncha “leksis” – ibora) atoqli ot rolini o'ynaydigan toponimik modelni to'ldirib turgan so'z.

Toponimik model – toponimlar hosil bo'lishi formulasi; masalan, ot+ot; fe'l yoki ot + suffiks. Masalan: Qorasuv, Jizzax.

Toponimik muhit (Toponimik kontekst) – ma'lum hududda turli davrlarda turli xalqlar tomonidan yaratilgan toponimlar majmui.

Toponimik sistema – ma'lum hududda muayyan davrlarda muayyan xalq tomonidan yaratilgan toponimlar majmui.

Toponimik universalisiya – (lotincha unversalis – umumiy) ko'pgina tillarga xos bo'lgan va nom qo'yish sohasida kishilik tafakkuri ma'lum darajada umumiy ekanini ko'rsatadigan toponimik hodisa, masalan, geografik terminlardan, antrotoponimlardan, etnonimlardan toponim hosil bo'lishi, toponimik modellarning umumiyligi va hokazo.

Topoformant – (lotincha formans – hosil qiluvchi) so'z yasaydigan, lekin tilda mustaqil ishlatilmaydigan element, toponimlar tarkibida, ayniqsa, ko'p uchraydi. Masalan, – kent – Toshkent; – goh – Janggoh, Nomozgoh, – loq – Toshloq, Qumloq.

Markotoponim ma'lum va mashhur bo'lgan yirik tabiiy geografik obyektning atoqli oti, materiklar, qit'alar, okeanlar, eng katta tekisliklar, tog'lar, tabiiy-geografik o'lka nomlaridir. Masalan, Osiyo, Yevropa, Xisor.

Mikrotoponimlar – tevarak-atrofdagi yashaydigan bir guruh kishilargagina ma'lum bo'lgan nomlar: quduqlar, jarliklar, qo'rg'on, tepaliklar, bog'lar, ko'priklar, darvozalar kabi kichik obyektlarning atoqli otlari. Masalan, Qumqo'rg'on, Suvketgan jarligi, Xovos bog'i.

Oronimika – toponimikaning (oronim – tog', qirlar, daralar) oronimlarni vujudga kelishi, taraqqiyot qonuniyatlari, yashashini o'rganadigan bo'limi.

Oykonimika – toponimikaning oykonimlarining (uy-joy-makon) vujudga kelishi, taraqqiyot qonuniyatlarini yashashini o'rganadigan bo'lim.

Deetnonimizatsiya – etnonimning boshqa kategoriyadagi atoqli ot(nom), toponimga yoki turdosh otga aylanishi.

Detoponimizatsiya – geografik nomning turdosh otga, toponimning appelyativ (turdosh ot – atoqli otning aksi)ga aylanishi. Peshovar (shahar) – peshovar (salla), Konyak (shahar) – konyak (ichimlik).

Termin – indikator (lotincha indikator – ko'rsatkich) toponim tarkibidagi geografik termin, mazkur termin toponimning qaysi tilga kirishini ko'rsatib turadi. Masalan, gidronim, teonim yoki boshqalar.

Substrat toponim – (lotincha substratum – negiz, astar) biror hududdagi hozirgi tillar yordamida izohlab bo'lmaydigan maxsus etimologik tadqiqotlar vositasidagina aniqlanadigan yoki umuman tushuntirib bo'lmaydigan, qadimda yashagan xalqlar tomonidan qo'yilgan nomlar.

Soxta etimologiya – boshqa tildan o'tgan yoki tub nomning xato ravishda butunlay boshqa bir ma'no olishi. Masalan, Farg'ona shahri yaqinidagi Qirgili ko'cha – mahalla nomi Qirguli (qirdagi gul) deb izohlanishi.

## **JOY NOMLARI BILAN BOG'LIQ TERMINLAR**



Har bir joy nomining tutgan o‘rni, sharoiti, hudud, shu hududdagi xalqlar va shaxslar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan terminlar haqida to‘xtalamiz.

Antonim – mazmuni bir-biri teskari bo‘lgan nomlar. Quruqsoy-Suvlisoy, Oqsuv - Qorasuv, Baland ko‘prik, Chuqur ko‘prik va hokazo.

Antrotoponim – (yunoncha – antropos – odam) atoqli otning bir turi. Odam (yoki odamlar jamoasiga)ga qo‘yiladigan har qanday atoqli nom, ot, shu jumladan, ism, sharif va tahallus.

Antrotoponimika – onomastikaning antrotoponimlar, ularning vujudga kelishi, taraqqiyoti, yashash qonuniyatlarini o‘rganadigan bo‘lim.

Astronimika – onomastikaning astronim (yulduz nomlari)ni o‘rganadigan bo‘limi. Masalan, “Yetti qaroqchi”, “Cho‘mich”, “Katta ayiq” va h.k.

Astionim – (yunoncha astlos – shaharga oid) oykonim (uy, turar joy, makon) turi. Shaharning atoqli oti. Shu ma’noda polisonim (shahar) termini ham ishlatiladi.

Atoqli ot – biror obyektни boshqa obyektдан farq qilishi uchun xizmat qiladigan so‘z yoki so‘zlar birikmasi.

Geonim – (yunoncha geo – yer, onim – nom) yerdagi har qanday obyektning nomi, atoqli ot.

Venusonim – (lotincha – Venus – Venera) planetaning (Sayyora) turi. Veneradagi har qanday tabiiy-fizik obyektning atoqli nomi.

Gelionim – (yunoncha gelos – botqoq) botqoqlik, botqoq bosgan joyning atoqli oti: Kattashiver, Tugarak shivar. Zomin tumanidagi Botqoqliklar. Shiver mo‘g‘ilchada – botqoqlik.

Gidronim – (yunoncha hidro – suv, namlik va onim – nom, ism) toponimning bir turi. Tabiiy yoki inson tomonidan yaratilgan har qanday suv obyekti, shu jumladan, okeanlar, dengizlar, daryolar, soylar, jilg‘alar, quduqlarning atoqli otlari. Masalan, Amudaryo, Chirchiq, Tuyatortar va boshqalar.

Gidronimika – toponimikaning gidronimlar, ularning vujudga kelishi, taraqqiyoti, yashashi qonuniyatlarini o‘rganadigan bo‘lim.

Drimonimlar – (yunoncha drimos – emanzor, o‘rmon va onim – nom, ism) har qanday o‘rmon, daraxtzor, changalzorlarning nomi. Masalan, Chimen.

Dromonim – (yunoncha dromos – chopish, harakat, yo‘l) toponimning bir turi. Har qanday aloqa yo‘li, yer usti, yer osti havo yo‘llarining atoqli oti. Masalan, Qo‘ng‘irot - Beynov, Tajan - Seraxs.

Zoonim – (yunoncha zoon – hayvon) atoqli otning bir turi. Hayvonlarning, shu jumladan, uy hayvonlari, sirkdagi hayvon, soqchilikdagi hayvon yoki yovvoyi hayvonlarning atoqli nomi. Masalan, Bo‘ribosar.

Komonim – (yunoncha – komo – qishloq posyolka) har qanday qishloq, aholi manzillarining atoqli oti. Masalan; Baxt, Garasha, Kultepa.

Kosmonim – (yunoncha – komos – koinot, tartibot) kosmik fazo, Galaktikaning atoqli oti. Aqrab, Yettiqaroqchi va h.k.

Limnonim – (yunoncha limnis – ko‘l) har qanday ko‘l, suv ombori, hovuzning atoqli oti. Masalan, Orol dengizi, Kattaqo‘rg‘on suv ombori.

Oykonim – (yunoncha oykos – uy turar joy, makon) toponim turi. Aholi turadigan har qanday joyning atoqli oti, jumladan, shahar tipidagi aholi manzili nomi – ostionim va qishloq tipidagi aholi manzili nomi – komonim.

Oronim – (yunoncha – oros – tog‘) tog‘lar, tepaliklar, qirlar, soylar, daralar va shunga o‘xshash boshqa obyektlar nomlari.

Pelagonim – (yunoncha pelagos – dengiz) har qanday dengizning yoki uning bir qismining atoqli nomi.

Potamonim – (yunoncha – potamos – daryo) har qanday daryo, soy jilg‘aning atoqli oti.

Speleonim – (yunoncha speleon – g‘or, ungur va onima – nom) oronimning bir turi. Yerdagi bo‘shliq – g‘or, ungur, keyingi vaqtlarda tabiiy hosila, jumladan, chuqurlik, quduq, yer ostidagi daryo, ko‘l ham speleonim deb ataladi.

Teonim – (yunoncha teos – xudo, onima – nom) har qanday dindagi xudo, iloh, tangrining atoqli oti.

Agronim (yunoncha – agros – dala, ekinzor, shudgor) toponimning bir turi. Chek yer, tomorqa, shudgor, dala nomi. Masalan, Chaman dara, Qoramurut va boshqalar.

## **MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON TOPONIMIYASIDAGI O‘ZGARISHLAR**

Sovet davlati parchalanib ketgandan keyin joy nomlari milliy qadriyat qatlamlaridan biri sifatida qaralib, mustaqil toponimik siyosat yurgizila boshlandi, xalq tarixi, madaniyati, tiliga aloqador bo‘lmagan shahar va qishloqlar, ko‘chalar va boshqa geografik obyektlar nomlari o‘zgartirila boshlandi, tarixiy nomlar tiklandi va qayta nomlandi. 1989-yilda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash siyosatida ham burilish nuqtasi bo‘ldi. Toponimlarni milliyashtirish harakati boshlandi. 1990-yilda “Moskva” mehmonxonasining shu joyning tarixiy nomi bilan “Chorsu”, Kalinin deb atalib kelingan ko‘chaning azaliy nomi Eski Jo‘va deb nomlanish bu borada qo‘yilgan dastlabki qadam bo‘ldi. Mustaqillik yillarida joylarning tarixiy nomlari tiklandi va sof xalqona toponimlar paydo bo‘ldi. Toponimiya bo‘yicha komissiyalar tuzilib, unga taniqli olimlar – toponimshunoslar, tarixchilar, tilshunoslar, shuningdek, yozuvchi-shoirilar va boshqa jonkuyar mutaxassislarning jalb qilinishi (1992) komissiya ishining jonlanishiga imkon berdi. 1989-yildan 2024-yilgacha juda ko‘plab joy nomlari, ko‘chalar qayta nomlandi. Nomi o‘zgartirilgan ko‘chalarga Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Imom at-Termiziy, Mahmud Torobiy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur, Husayn Boyqaro, Temur Malik kabi buyuk shaxslarning nomlari berildi. Shu bilan birga, Muxtor Avezov, Betxoven, Mahatma Gandi, Neru, Lev Tolstoy, Chexov, Shota Rustaveli kabi klassiklarning nomlari hozirga qadar ko‘chalar nomini bezab turibdi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng toponimika fani yanada rivojlana boshladi. Shuningdek, yurtimiz toponimlarining nomlanishiga ham jiddiy e‘tibor berila boshlandi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasidagi ma‘muriy-hududiy

birliklar, aholi punktlari, tashkilotlar va boshqa toponimik obyektlarning nomlarini tartibga solish to‘g‘risida” 1996-yil 31-maydagi 203-son, Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasidagi ma‘muriy-hududiy birliklar, aholi manzilgohlari, tashkilotlarga va boshqa toponimik obyektlarga nom berish ishlarini tartibga solish to‘g‘risida” 2004-yil 11-avgustdagi 383-son, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qarorlariga asosan “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni<sup>8</sup> fikrimizning isbotidir. O‘z navbatida, mustaqillik yillarida O‘zbekiston toponimikasida jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Sobiq ittifoq davrida yurtimizdagi qishloq, shaharcha, ko‘cha va boshqa joy nomlari Lenin, Marks, Engels, Lunacharskiy, Kirov, Voroshilov, Lopatin, Frunze, Qizil maydon va boshqa nomlar bilan atalib kelingan. Shunisi ajablanarliki, bu shaxslarning ba‘zilari umrida bir marta ham yurtimizga qadam qo‘ymagan, bizning tariximiz va qadriyatlarimizga mutlaqo aloqasi bo‘lmagan kimsalar edi. Yoki shaharlardagi aksariyat turar joy mavzolari “S-1”, “S-2”, “T-3” degan, odamda hech qanday his-tuyg‘u, xotira uyg‘otmaydigan mavhum nomlar bilan atab kelingan. Hozirda bunday nomlar o‘rnini tariximiz bilan bog‘liq, chuqur ma‘noli nomlar egalladi. Aholining yashash sharoiti va mashg‘ulotlaridan kelib chiqqan nomlar yana qayta tiklandi. Masalan, Pichoqchilik, Charxchilik, Ko‘nchilik, Degrezlik, Taqachi, Egarchi, O‘qchi, Zargarlik, Parchabof shular jumlasidandir. Keyingi yillarda poytaxtimizda milliy tariximizga begona bo‘lgan, yuqorida zikr etilgan, yasama siyosiy nomlar o‘rniga Mirobod, Rakat, Mingo‘rik, Darxonariq, Shayxontoxur, Yakkasaroy, Zarqaynar, Uchtepa kabi nomlarning tiklanganini, eng muhimi, bunday ishlar mamlakatimizning barcha mintaqa va hududlari miqyosida amalga oshirilayotganini ta’kidlash joiz. Hozirda bunday toponimik o‘zgarishlar yurtimizning barcha viloyatlarida ko‘rish mumkin. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda geografik obyektlarini nomlash va qayta nomlash masalalarini ko‘rib chiquvchi, shuningdek, “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston

---

<sup>8</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012-й., 41-42-сон. 483-модда.

Respublikasi Qonuni talablarining bajarilishini nazorat qiluvchi komissiyalar – maxsus organlar tashkil etildi.

## **XIX ASR O‘RTALARI – XX ASR BOSHIDA MIRZACHO‘L**

Mirzacho‘l O‘rta Osiyoning markaziy qismida Zarafshon vodiysining shimolida, Nurota tog‘larining sharqiy va janubiy qismida joylashgan bo‘lib, Qizilqum sahrosining shimoliy sharqiy bo‘lagi hisoblanadi. Mirzacho‘l janubda Turkiston tizmasi, janubiy g‘arbda Nurota tog‘lari, g‘arbda Bolatog‘, Pitalitog‘, shimoliy g‘arbda Qizilqum cho‘li, sharq va shimoliy sharqda Sirdaryo bilan chegaralangan. Bugungi kunda O‘zbekistonning Sirdaryo, Jizzax viloyatlari, Qozog‘istonning Janubiy Qozog‘iston viloyati va Tojikistonning Zafarobod tumani hududlarini o‘z ichiga oladi<sup>1</sup>.

O‘rta Osiyoning qadimgi tillaridan “Marzicho‘l” so‘zini katta dashtning cheti, deb tarjima qilish mumkin. Arablar bosqinidan so‘ng bu so‘z o‘zgarishga uchrab, “Mirzacho‘l” deb atala boshlangan. “Mirza” so‘zi arabchada “janob”, “saxiy” degan ma’nomlarni bildiradi, mana shu holat ayrim tadqiqotchilarning “Mirzacho‘l” so‘zini “Saxiy dasht” deb tarjima qilishga urinishlariga asos bo‘lgan<sup>2</sup>.

XIX asrga qadar Mirzacho‘l Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi o‘rtasida bahsli hudud hisoblangan. Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, bu hudud dastlab Turkiston general-gubernatorligi Xo‘jand uyezdi, 1886-yildan e’tiboran Samarqand viloyati tarkibiga kirgan. Turkiston Respublikasi XKSning 1918-yil 4-iyuldagi qaroriga ko‘ra, Xo‘jand uyezdining Erjar, Uralsk, Sovot volostlari hududlarida mustaqil Golodnostepsk uyezdi tashkil topgan, 1922-yildan Mirzacho‘l deb qayta nomlangan. Uezd tarkibi Romanovskiy, Spasskiy, Sir-Darinskiy, Erjar, Chernyayevskaya, Slavyanskaya, Begovot volostlaridan iborat bo‘lgan. Bu hududda XIX

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2003. – Т. 5. – Б. 696.

<sup>2</sup> Игамбердиев Р.С. Голодная степь, ее прошлое и настоящее. – Ташкент, 1965. – С.19.

asrning ikkinchi yarmida o'troq, yarim o'troq va ko'chmanchi aholi yashagan.

Tabiiy geografik jihatdan olganda Mirzacho'l Sirdaryoning so'l qirg'og'idagi keng tekislik bo'lib, Sirdaryo, Turkiston va Nurota tog' tizmalari hamda Qizilqum o'rtasida, Toshkent va Samarqand vohalari oralig'ida joylashgan. Qizilqumning umumiy yer maydoni deyarli 20 million gektar, Mirzacho'lniki esa 1 million gektardir. Mirzacho'lda Yettisoy, Erjar, Sho'ro'zak, Mirzarabot, Sardoba, Arnasoy, Ag'och deb atalgan tekislik va pasttekislik joylar bor<sup>9</sup>. Cho'lning Yettisoy, Qaroy, Sho'ro'zak va Sardoba kabi ba'zi yerlaridagina pastlik va cho'kmalar uchraydi.

Cho'lning shimoliy va sharqiy qismi Sirdaryo sohiliga borib taqaladi. Janubiy tomoni esa Turkiston tizmalari orasidagi adirlarga singib ketadi<sup>10</sup>. Bu hududlarda chorvadorlar uchun yaylovlar va ayrim adir oraliqlarida bog'dorchilik, dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoniyati mavjud bo'lgan. Mirzacho'lning janubi-g'arbiy qismidagi adirliklar bilan tutashib ketadi. Uning sharqiy-janubiy qismi baland bo'lib, shimoliy - g'arbiy tomonga qarab pastlashib boradi. Sirdaryo bo'ylari to'qayzor, Arnasoyning nariyog'i qumlik cho'ldan iborat<sup>11</sup>. Daryo qismi yoki ko'l (to'qay) qismida Bekobod bilan Konnogvardeyskiy (hozirgi Guliston tumaniga qarashli Uch qahramon fermerlar uyushmasi) o'rtasida Mirzacho'lning g'arbiy-shimoliy burchagidan shu daryo bo'ylab o'tgan maydonlardagi to'qayzorlardan mol boqiladigan yaylov sifatida foydalaniladi. Yuqoridagi qismlarning har biri o'ziga xos ob-havo sharoiti bilan bir-biridan farq qiladi.

Arab sayyohi Ibn Xavqal (969-yil) o'z sayohatnomasida arablar bosqinidan avval Sirdaryoning chap sohili bo'ylarida, ya'ni Mirzacho'ldagi bir qator qishloqlar haqida ma'lumot bergan, bu qishloqlar orasida Vinkerd deb atalgan xristian qishlog'i ham mavjud bo'lgan<sup>12</sup>. Bu qishloqning o'rni, taxminan, XIX asrning ikkinchi

---

<sup>9</sup> Нуриддинов З.Р. Мирзачўл ўтмишда ва ҳозир. – Тошкент: Ўз.Дав. нашр, 1957. – Б.5.

<sup>10</sup> Қудратов С.С. Сардобалар ўлкаси (Сирдарё қадимда ва ўрта асрларда). – Тошкент: Фан, 2001. – Б.3.

<sup>11</sup> Нуриддинов З.Р. Қо'рсатилган асар. – Б. 6.

<sup>12</sup> Омонжулов Т., Мирзаева Н. Мирзачўлнинг ўтмиш тарихи. – Гулистон, 2011.

yarmida Mirzacho‘lda tashkil topgan rus qishlog‘i Nijniy Volinskiyning shimoliy qismiga to‘g‘ri keladi. Ammo, bu qishloqning keyingi asrlardagi tarixi haqida ma‘lumotlar saqlanmagan. Boshqa manbalarda Sirdaryo qirg‘oqlarida aholi chorvachilik, dehqonchilik bilan shug‘ullanganligi qayd qilingan. Mirzacho‘lda mavjud qishloq va shaharchalar asosan Sirdaryo bo‘yida hamda tog‘dan oqib tushuvchi soy va buloqlar yonida paydo bo‘lgan<sup>13</sup>.

Mirzacho‘l, tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra, qadimgi va o‘rta asrlardanoq aholi yashagan o‘lka hisoblangan. Mirzacho‘l vohasining janubiy qismi tog‘ oldi yon bag‘irlarida miloddan avvalgi I ming yilliklardanoq aholi o‘troqlashgan. Mirzacho‘l vohasida aholi Xo‘jamushkentsoy, Sho‘rbuloqsoy, Mug‘olsoy, Tog‘obsoy, Sarmichsoy, Sirdaryo bo‘ylarida istiqomat qilgan<sup>14</sup>.

XVI – XVIII asrlarda Sirdaryo sohillarida va unga tutash cho‘llarda qozoq va qoraqalpoqlar bilan bir vaqtda qipchoqlar ham yashagan, qalmoqlardan qochgan qipchoqlarning bir guruhi Zarafshon vohasiga, ikkinchi bir guruhi esa Toshkent vohasi va Mirzacho‘lga kelib joylashgan<sup>15</sup>. Qipchoqlar va qoraqalpoqlar kelmasidan ilgari Mirzacho‘l vohasida boshqa etnik guruhlar (qurama, do‘rmon, qirq, yuz, ming va boshqa) yashagan.

Turkiston hududiga ruslarning kelishi arafasida Sirdaryo sohillarida o‘zbek, qirg‘iz va qozoqlarning qishki ovullari mavjud bo‘lgan<sup>16</sup>. Mirzacho‘lda aholi asosan Sirdaryo sohillarida yashagan. Mirzacho‘lning ichki qismlarida va ko‘l atroflarida ko‘chmanchi qozoqlar o‘tovlari mavjud bo‘lgan. Aholi qirg‘iz, o‘zbek, qozoq qabilalariga oid bo‘lib, yozda chaylalarda, qishda esa yerto‘lalarda istiqomat qilishgan. Ular chorvachilik va qisman lalmi dehqonchilik bilan shug‘ullanishgan. Cho‘lning chegara qismlarida joylashgan aholi o‘troq holda istiqomat qiladigan ariq va soy sohillarida Bekobod va

---

<sup>13</sup> Эгамбердиев Р.С., Разоққов А. Ўзбекистонда кўриқ ерларни суғориш, ўзлаштириш ва мелиорациялаш тарихи (Мирзачўл мисолида). – Тошкент: Фан, 1984. – Б.18.

<sup>14</sup> Қудратов С.С. Сардобалар ўлкаси. – Тошкент: Фан, 2001. – Б.13.

<sup>15</sup> Шониёзов К. Ўзбек халқининг этник шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 417.

<sup>16</sup> Омонжулов Т., Мирзаева Н. Мирзачўлнинг ўтмиш тарихи. – Гулистон, 2011.

Segiz - Sari qishloqlari joylashgan. Mahalliy aholi o'troq, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholiga bo'lingan. O'troq aholi tarkibi tojiklar va o'zbek, yarim o'troq aholi tarkibi qurama va o'zbeklar, ko'chmanchi aholi tarkibi qirg'iz, qozoq, va qoraqalpoqlardan iborat bo'lgan.

A.Kushakevich bergan ma'lumotiga ko'ra mahalliy aholi istiqomat qilayotgan qishloqlarning ayrimlari nomlari etnotoponimik xarakterga ega. Masalan, Tuyoqli, Eronli, Saroylik, Toshkentlik, Oqqo'rg'onlik, Rovot, Turkman, Jaloir kabi qishloqlar shular jumlasidandir. Yuz urug'iga oid o'zbeklar Zomin, Sangzor, Jizzax va Xo'jand uyezdiga qarashli Sirdaryoning o'ng sohillarida o'troqlashgan holda yashaganlar. Sirdaryo sohili bo'ylab pastga tomon to'qayzor va qamishzorlar oralab Qaropchi – Parchayuz ovullari joylashgan<sup>17</sup>. Mirzacho'lga rus aholisining kirib kelishidan ilgari mahalliy aholining etnik tarkibi, joylashgan o'zni haqida 1872-yilda Turkiston statistikasiga oid materiallarda batafsil ma'lumot berilgan. Bu manbada qaropchi va parchayuzlar o'zbeklarning yarim ko'chmanchi turmush tarzini kechiruvchi urug'idir, deb ko'rsatilgan. Bunda ko'rsatilishicha o'zbeklarning qaropchi urug'iga mansub aholi Mirzacho'lning Erjar, Xalqako'l, Mayda jing'il, Qolgansir manzilgohlari (soylik) va Begavot, Langar, Chaqir, Namingan, Iskandar, Sarmich, Uvoq, Tarnov, Topqoq qishloqlarida yashaganlar. Erjar manzilgohi Sirdaryo bo'ylab 12 verst masofaga cho'zilgan bo'lib, kengligi 4 verstni tashkil etgan. Xalqako'l manzilgohi Sirdaryoga yaqin joyda joylashgan. Qolgansir Mayda jing'ilga yaqin joyda joylashgan. Mayda jing'ilda Sirdaryo bo'ylab 4 verst uzunlikda, eni 1 verstni tashkil etgan<sup>18</sup>. Demak, Mayda jing'ilda aholi yashashi uchun qulay sharoit mavjud bo'lgan. Parchayuz urug'iga mansub aholi qaropchilar bilan birga Xalqako'l, Mayda jing'il, Erjar manzilgohlarida va Xovos qishlog'i yaqinidagi dashtda Parcha, Oqquvoq, Qizilchang'il, Mulla bobo qudug'i nomli manzilgohlarda va, Xalqako'lda uch guruhga bo'linib joylashgan. Mayda jing'ilda parchayuzlar istiqomat qilishgan, qishlovni shu yerda qaropchilar bilan birga o'tkazganlar. Parchayuzlarning uyas urug'iga tegishli aholi Erjarda

---

<sup>17</sup> Омонжулов Т., Мирзаева Н. Мирзачўлнинг ўтмиш тарихи. – Гулистон, 2011.

<sup>18</sup> Омонжулов Т., Мирзаева Н. Ко'rsatilgan asar.



4 guruhga boʻlinib joylashgan. Parcha, Oqquvoq, Qizilchangʻil, Mulla bobo qudugʻi, Xovos qishlogʻi atrofida Parchayuz ovuli aholisi yashagan. Xovos oqsoqolligiga tegishli Xoʻjaqishloq, Qoʻshkent, Itbuloq, Changovul, Uchturgʻon, Qipchoq, Xovos, Login qishloqlaridan faqat Itbuloqda oʻzbeklar istiqomat qilganlar. Qoʻshkentda kam sonli oʻzbeklar tojiklar bilan birga yashaganlar. Oqsoqollikning qolgan barcha qishloqlarida faqat tojiklar istiqomat qilishgan. Eng yirik qishloq Xovos boʻlgan. Mirzachoʻlning Sovot va Erjar volostlarida XIX asrning ikkinchi yarmida istiqomat qilgan aholining etnik tuzilishi haqida hujjatlarda quyidagilar oʻz aksini topgan. Sovot volostida oʻzbek – qaropchilar (yuzlar) yashagan boʻlib, ular 7 urugʻga boʻlingan: turkman, qoʻshtangʻali, uyas, parchayuz, achamayli, boyovut, yettiurugʻ kabi. Sovot volostining oqsoqoli Mulla Nazarqul Kinjiboyev oʻzbek-qaropchilarning bu yerda bir necha avlodlari yashab oʻtganligi toʻgʻrisida maʼlumot bergan. Qaropchi qabilasining 7 urugʻi oʻz navbatida bir necha boʻgʻinlarga boʻlinib ovullarda yashaganlar. Erjar volostida yashagan qozoqlar ikki uruqqa boʻlingan, bular qoʻngʻirot (qorakoʻz) va romadon urugʻlari boʻlib, qoʻngʻirot urugʻi 3 boʻgʻinga boʻlingan: bultay, xalpe, jetim<sup>19</sup>. Mahalliy aholini oʻtroq holatga oʻtkazish majburiy tarzda ham amalga oshirilgan. Masalan, 1913-yilda Turkiston oʻlkasini boshqarish qoidalarining 279 moddasiga koʻra oʻzbek urugʻlari vakillaridan iborat boʻlgan boyovut, achamayli, parchayuz, uyas, pastki qoʻshtangʻali va turkman ovullari aholisini oʻtroq holatga oʻtkazish tartiblari belgilab berilgan<sup>20</sup>.

Xulosa tarzida taʼkidlash joizki, tabiiy geografik jihatdan olganda Mirzachoʻl vohasi aholi istiqomat qilishi va sugʻorma dehqonchilik uchun qulay hudud boʻlgan. XIX asr oʻrtalarida Mirzachoʻl aholisi etnik tuzilishiga koʻra xilma-xil boʻlib, oʻzbek urugʻlari, tojiklar, qoramalar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, qirgʻizlardan iborat boʻlgan. Vohadagi

---

<sup>19</sup> Омонжулов Т., Мирзаева Н. Мирзачўлнинг ўтмиш тарихи. – Гулистон, 2011.

<sup>20</sup> Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана. 1963. –174 с.; Омонжулов Т., Мирзаева Н. Мирзачўлнинг ўтмиш тарихи. – Гулистон, 2011., Алибеков У. XIX аср охири – XX аср бошларида Сирдарё вилояти демографияси // Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари: Тарих ва ҳозирги замон. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. –Тошкент, 2007. – Б. 17-20.

manzilgohlarda aksariyat hollarda ular birga istiqomat qilganlar. Sirdaryo sohillari bo‘ylab qozoq ko‘chmanchilari ovullari joylashgan. Ular vohada o‘troq, yarim ko‘chmanchi, ko‘chmanchi holatda turmush kechirgan. Chorvachilik, lalmi dehqonchilik, qisman sug‘orma dehqonchilik va bog‘dorchilik, hunarmandchilikning ayrim turlari, Sirdaryo sohillari va ko‘l bo‘ylarida baliqchilik bilan ham shug‘ullangan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Mirzacho‘lda yangi qishloqlarning paydo bo‘lishi bevosita hududning o‘zlashtirilishi bilan bog‘liqdir. Ammo Mirzacho‘lni o‘zlashtirish ishlari Rossiya imperiyasi hukmronligi davridagina amalga oshirilmagan. Tuyatortar, O‘rumboy o‘g‘iz ariqlari izlari, bugungi kunga qadar saqlangan sardobalar, sayyohlarning ma’lumotlari, qo‘lyozmalar, V.V.Bartold, V.I.Masalskiy, K.K.Palen, V.F.Karavayev, A.Kursish, A.Kushakevich, N.Gavrilov va boshqalarning asarlarida Turkistonda, jumladan, Mirzacho‘lning ba’zi yerlarida qadimgi zamonlarda sug‘orish ishlari amalga oshirilganligi haqida ma’lumotlarni olish mumkin<sup>21</sup>. XVI asrda Buxoro amiri Abdullaxon II tomonidan Mirzarabotda (hozirgi Sardoba tumani hududida) suv inshooti sardoba qurilgan. Undan keyingi davrlarda Tuyatortar va O‘rumboy o‘g‘iz ariqlari orqali, Zarafshon va Sirdaryodan suv chiqarilgan. Bular Malik va Mirzarabot pochta bekatlariga, karvonsaroylarga suv bergan.

## SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI

Sirdaryo viloyati tabiiy geografik holati va toponimiyasiga ko‘ra boshqa viloyatlardan katta farq qiladi. Viloyat hududida boshdan-oyoq tekis cho‘l tabiati hukmron, binobarin tog‘u toshlar yo‘q, suv obyektlari kam, buning oqibatida toponimlar ham ko‘p emas, borlari ham leksik jihatdan rang-barang emas. Relyef tekis bo‘lsa, tabiiy chegaralar bo‘lmasa, toponim ham kam bo‘ladi. Oqibatda **Guliston, Zarbdor, Ijodkor, Ilg‘or, Navbahor, Oqoltin, Paxtazor, Paxtakor, Paxtaobod, Paxtauchun, Paxtachi, Pillakor, Sholikor, Yangibo‘ston,**

---

<sup>21</sup> Омонжулов Т., Мирзаева Н. Мирзачўлнинг ўтмиш тарихи. – Гулистон, 2011.

**Yangiturmush, Yangihayot, Haqiqat** kabi hamma yerda “bayroq” qilib olingan nomlar ko‘payib ketgan.

Mirzacho‘lni o‘zlashtirishda butun respublika ishtirok etgan. Buni viloyat hududidagi **Andijon, Zomin, Namangan, Nurota, Sangzor, Farg‘ona, Qoraqishlok** (Usmat) kabi toponimlardan bilsa ham bo‘ladi.

Viloyatda **Boyovut, Julangar, Mirzacho‘l, Sardoba, Sovot, Xovos, Xo‘jamushkent, Sho‘razak** kabi hudud uchun xarakterli nomlar ham yo‘q emas. Viloyat geografik nomlari orasida etnotoponimlar ham uchraydi: **Mirishkor, Mug‘ul, Nayman, Parchayuz, Puchug‘oy, Sirgali, Uvoq** kabi o‘zbek urug‘lari nomlari bilan atalgan aholi manzilgohlari barobarida **Tojikovul, Turkovul** kabi boshqa qardosh xalqlar vakillari vatan tutgan qishloq-ovullar ham bor. O‘zbek xalqining ma‘lum-u mashhur farzandlaridan **Navoiy, Feruz, Hamza, Hamid Olimjon** nomlari viloyat xaritasini bezab turadi.

## **OYKONIMLARNI TASNIFLASH ORQALI NOMLANISH JIHATLARINI O‘RGANISH**

Oykonimlar deganda, shahar, qishloq, ovul va boshqa aholi maskanlari nomlari tushuniladi. Aholi maskanlari ijtimoiy-iqtisodiy hamda tarixiy kategoriya bo‘lib, ularning nomlanish jihatlari vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. Oykonimlarni o‘rganishda ularni guruh-guruhlariga bo‘lib, tasniflash usuli keng tarqalgan. Aholi maskanlarini asosan ikki yirik guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Tabiiy yoki tabiiy-geografik oykonimlar;
2. Iqtisodiy-ijtimoiy oykonimlar;

Tabiiy-geografik oykonimlar, o‘z navbatida, suv bilan bog‘liq, relyefni aks ettiruvchi, o‘simlik va hayvonot dunyosi nomidan olingan oykonimlarga bo‘linsa, iqtisodiy-ijtimoiy oykonimlar, o‘z navbatida, kishilar ismidan, urug‘-qabilalar nomidan, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalardan olingan oykonimlarga bo‘linadi. Mazkur oykonimlarni chuqurroq tahlil etish maqsadida yana kichik guruhlariga bo‘lish mumkin. Quyida Sirdaryo viloyatidagi oykonimlar misolida ayrim guruhlariga batafsilroq to‘xtalib o‘tamiz.

## SIRDARYO VILOYATIDA GIDROOYKONIMLAR

Qurg‘oqchil iqlim hukmron bo‘lgan hududlarda. Jumladan, Sirdaryo, Mirzacho‘l mintaqasi hududida gidronimlarning (suvlik bilan bog‘liq bo‘lgan geografik obyektlar) gidrooykonimga aylanishi ko‘p kuzatiladi. Sababi, quruq iqlim sharoitida suv hayot manbai sifatida har qanday aholi maskanining shakllanishiga, joylashgan o‘rniga va rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Gidrooykonimlarni va gidronimlarni nomlanishiga ta‘sir ko‘rsatadigan omillar bir-biridan u qadar ko‘p farq qilmaydi. Gidronimlarning gidrooykonimga aylanish va kelib chiqish jarayonidagini ba‘zi o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

Gidrooykonimlar tahlilida ularning qanday so‘zlar asosida shakllanganligini aniqlash va nomlanish tamoyillarini belgilashda N.Oxunov (1998) tomonidan ishlab chiqilgan usulga amal qilish mumkin. Bunday tahlilda gap gidronimlar haqida emas, balki gidrooykonimlar haqida borayotganligini nazardan qochirmaslik lozim. Chunki hamma gidronimlardan ham aholi maskanlarining nomlari yasalavermaydi. Sirdaryo viloyatida suv bilan bog‘liq holda yaratilgan aholi maskanlari nomlarini quyidagi guruhlariga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Birinchi guruhga suv obyektlarining ma‘lum bir gidronimga, biror bir etnik guruhga, biror aholi maskaniga yoki ayrim kishilarga tegishli ekanligini bildiradigan gidronimlardan olingan oykonimlar kiradi. Sirdaryo viloyatidagi eng katta suv havzasi bo‘lgan Sirdaryo daryosi, Sho‘ro‘zak yoki Sultonhovuz, Jo‘langar (avliyo arig‘i), Qorako‘l, Chashma, Buloqboshi kabi shahar, qishloq va mahalla nomlari mazkur tamoyil asosida yaratilgan.

Ikkinchi guruhga grunt qatlamning ustki tuzilishi, tuproqning tarkibi, joy relyefiga ko‘ra nomlangan gidronimlardan olingan oykonimlar kiradi. Bunday qishloq va mahallalarga Yerjar (Boyovut tumani), Jarqishloq (Boyovut tumani), Do‘ngariq (Mirzaobod tumani) kabilar misol bo‘ladi.

Suvning mazasi-ta‘mi, hidi, haroratiga va rangiga nisbatan nom olgan gidronimlardan uchinchi guruhga kiruvchi oykonimlar

shakllangan. Bu xil gidrooykonimlarning tarkibida “shirin” “chuchuk”, “totli” “sho‘r”, “achchiq”, “sassiq”, “sovuq” so‘zlari qatnashadi. Achchiqko‘l, Sassiqlay, Oqbuloq, Gulbuloq, Baxmalsoy kabi qishloq va mahalla nomlari qayd etilgan. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, gidronimlar tarkibida qo‘llangan oq so‘zi doimo oqib turadigan, tog‘ muzliklardan keladigan, qor suvlari bilan to‘yinadigan, o‘z tabiiy o‘zanida oqadigan, yozda qurimaydigan, rangi oq tusda bo‘lgan, ichishga yaroqli suvga nisbatan ishlatiladi. Yer osti va sizot suvlaridan to‘yinadigan, sekin oqqanligi uchun tinik qoramtir tusda ko‘rinadigan, tabiiy o‘zanida oqmaydigan suvga nisbatan esa qora so‘zi ishlatiladi.

To‘rtinchi guruhga suv obyektining son-sanog‘i, miqdoriga qarab nom olgan gidrooykonimlar kiritiladi. Viloyatda ushbu guruhga kiruvchi Beshbuloq (Guliston tumanida mahalla nomi), To‘rtko‘l (Sayoxunobod tumani), Mingbuloq kabi aholi maskanlarining nomi mavjud.

Beshinchi guruhdan obyektning joylashgan o‘rniga, hajmi – o‘lchoviga, shakl-tuzilishiga ko‘ra nomlangan gidrooykonimlar joy oladi. Chuqursoy (Mirzaobod tumani), Buloqboshi (Boyovut tumani), Ulkansoylik (Ulug‘obod mahallasi), Boyqul (Sirdaryo tumani Istiqbol mahallasi), Uzunbuloq (Sayxunobod tumani Gulbuloq mahallasi) kabi joy nomlari shu guruhga mansubdir.

Oltinchi guruhga gidrologik obyektning paydo bo‘lgan vaqtiga nisbatan nomlangan gidronimlar asosida yaratilgan oykonimlar kiritiladi. Bunga Sirdaryo viloyatidagi Yangiariq, Yangikanal kabi qishloq va mahalla nomlarini misol qilib keltirish mumkin.

Oxirgi guruhga suvning xarakteri, oqishi, oqim yo‘nalishiga ko‘ra nom olgan gidronimlar hamda boshqa suvlik bilan bog‘liq bo‘lgan gidrooykonimlar kiritiladi. Bu guruhga viloyatdagi Chashma, Oltinko‘l kabi gidronimlardan olingan oykonimlar alohida tahlil qilinadi.

## **SIRDARYO VILOYATIDA OROOYKONIMLAR**

Oykonimlarning ma‘lum bir qismi yerning geomorfologik xususiyatlaridan nom olgan bo‘ladi. Yer relyefining tuzilishi, sathi bilan bog‘liq bo‘lgan bunday oykonimlar geomorfologik oykonimlar yoki

orooykonimlar deb ataladi. Oronimlarga tog‘, adir, qir va tepaliklar emas, balki relyefning salbiy shakllari – vodiylar, daralar, jarliklar, soyliklar, o‘yiq-chiqiqlar, shuningdek, tekislik, past tekisliklar va qumliklar ham kiradi. Vaqt o‘tishi bilan obyektning relyefi o‘zgarishi mumkin, biroq o‘sha relyefni ifoda qilgan nom saqlanib qolaveradi. Chunonchi “tepa”, “jar” ma’nosini bildirgan oykonimlarning ayrimlari hozirgi vaqtda o‘sha joy relyef xususiyatini aynan anglatmasligi mumkin.

Relyef shakllaridan aholi maskanlari nomiga eng ko‘p qo‘yiladigan nom tepa hisoblanadi. Qadimda ajdodlarimiz ko‘proq mudofaa maqsadlarini ko‘zlab o‘z yashash manzilgohlarini tepalar yaqinida tashkil etganlar. Mazkur holat dushman xavfini ancha uzoqdan bilish yoki boshqalarni bu haqda ogohlantirish imkonini bergan. Sirdaryo viloyatida tepa so‘zi qatnashgan qishloqlar nomlarining uchrab turishi fikrimizning dalilidir. Ushbu aholi manzilgohlariga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: Qorovultepa (Sirdaryo tumani), Saritepa (Sayxunobod tumani Sintob mahallasi) Qora-qir (Xovos tumani), Uchtepa (Sirdaryo tumani Ulug‘bek mahallasi), Darvozaqir (Boyovut tumani) kabilar. Albatta, bu tepalarning egasini, o‘ziga xos xususiyatini, son-sanog‘ini bildiruvchi qo‘shimcha so‘zlar ham tahlilga muhtoj bo‘ladi.

Viloyatda jar so‘zi qatnashga joy nomlari ko‘proq qishloqning yaqin atrofidagi salbiy relyef shakli “jar – o‘yilgan chuqur soylik” borligidan darak beradi. Jar so‘zi ishtirokida Jarboshi, Jarqishloq (Boyovut tumani) singari qishloqlar nomlangan.

Viloyatda relyef shaklini yoki toponim davrini bildiruvchi Yuqori Ovul, Pastki Sarmich, Yuqori Sarmich (Boyovut tumani), Katta qishloq, Yangi qishloq (Gulbuloq mahallasi) so‘zlari vositasida yoki chuqur so‘zi bilan Chuqursoy (Mirzaobod tumani) kabi oykonimlar yaratilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari oykonimlarning vaqtini ko‘rsatuvchi joy nomlari: Eski ovul, Yangi ovul (Boyovut tumanidagi Yangiobod mahallasi) uchraydi. Geomorfologik oykonimlarga relyef shaklidan tashqari joyning landshaft tuzilishini bildiruvchi joy nomlari ham kiradi. Bunday oykonimlar tarkibida dasht, cho‘l, bo‘z so‘zlari keng

tarqalganligi bilan ajralib turadi. Odatda dasht – “obod qilinmagan, suvsiz cho‘l”ga nisbatan qo‘llanadigan geografik termidir. Tabiiy geografiyada dasht tabiat zonasi deb cho‘lga nisbatan shimolda joylashgan, o‘simlik va hayvonot dunyosiga nisbatan boyroq bo‘lgan hududga aytiladi. Sirdaryo viloyatida dasht iborasi bilan Dashtobod, Dasht mahalla, Bo‘z qishloq (Boyovut tumani) kabi qishloq va mahallalar nomlari yuritiladi.

Navbatdagi geomorfologik oykonimlar qatoriga tosh so‘zi bilan boshlanadigan joy nomlarini kiritish mumkin. Bu oykonimlar tarkibidagi tosh so‘zi – qattiq tog‘ jinslarining umumiy nomi yoki alohida turgan qoya sifatida qo‘llanilgan bo‘lishi mumkin. Viloyatda Oqtosh (Sirdaryo tumani Istiqbol mahallasi), Oqqum (Sirdaryo tumani Sholikor mahallasi) kabi mahalla va qishloq nomlari qayd etilgan bo‘lib, ular tarkibidagi tosh so‘zi toponim yasovchi sifatida ishlatilgan.

Yerning geomorfologik xususiyatlaridan relyefning tuzilishi, sathi, tog‘, adir, qir va tepaliklar, vodiylar, daralar, jarliklar, soyliklar, tekislik, past tekisliklar va qumliklar bilan bog‘liq bo‘lgan bunday oykonimlar uzoq vaqt o‘zgarmasdan saqlanib qolishi bilan ham ahamiyatlidir. Bu guruhga Mirzacho‘l (Mirzaobod tumani), Malik – “cho‘li malik”, “bepoyon cho‘l”, “katta cho‘l” (Sirdaryo tumani), Cho‘lto‘qay (Sirdaryo tumani Matonat mahallasi), Qum qishloq (Sayxunobod tumani Gulbuloq mahallasi) kabi joy nomlari misol bo‘la oladi.

## **SIRDARYO VILOYATIDA FITOYKONIMLAR**

Insonlar hayotida o‘simliklar juda katta vazifani bajaradi. Bu holatni e‘tiborga olgan kishilar qadim zamonlardan boshlab ularni avaylab, parvarishlab kelganlar. Qadimgi lotin tilida daraxt va xalq so‘zlari bir xil ibora bilan “poplyus” deb atalgani ham o‘simliklar dunyosini kishilar hayotidagi egallagan o‘rni va ahamiyatidan olingan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Toponimlarning nisbatan katta bir guruhini o‘simlik nomlari asosida shakllangan nomlar tashkil etadi. O‘simlik va daraxt nomlari bilan atalgan aholi maskanlari nomi – fitooykonimlar (yunoncha fitos-o‘simlik demakdir) deb ataladi. Ular ma‘lum hududda

tarqalgan o'simliklar dunyosi haqida batafsil ma'lumot beradi. Bu turdagi joy nomlarining vujudga kelishi, yuqorida ta'kidlanganidek, nisbiy negativlik deb atalgan geografik qonuniyat asosida yuz beradi. Bu qonuniyatga ko'ra, biror joyga nom berishda shu hudud uchun nisbatan kam bo'lgan, hammani diqqat e'tiborini tortadigan tabiiy va ijtimoiy obyektlar nomi tanlanadi. Masalan, bug'doy, paxta ko'p ekiladigan hududlarda paxta kishilar e'tiborini u qadar ko'p tortmaydi, bu yerlarga ko'proq o'simliklarni nomi beriladi. Bundan tashqari, o'simliklar nomi kundalik hayotda o'ziga xos mo'ljal bo'lib ham xizmat qilgan. Shu tarzda geografik nomlar tizimida, jumladan, Sirdaryo viloyati hududida ham fitooykonimlar paydo bo'lgan. Sirdaryo viloyati hududida tarqalgan fitooykonimlar tarkibi madaniy va yovvoyi o'simliklar bilan bog'liq. Masalan, Bodomzor, Lolazor, Yulg'un (Yulg'unzor), Mevazor (Guliston tumani), Bog'iston (Mirzaobod, Xovos tumanlari), Oqchangal (Xovos tumani), Bog'aro (Sirdaryo tumani), Tomirli (Boyovut tumanidagi Navbahor mahallasi) kabi o'simliklar nomidan olingan joy nomlari takrorlanib keladi. Madaniy o'simliklarning jamiyatda tutgan o'rniga mos ravishda viloyatimiz qishloq va mahallalari orasida ular nomi bilan ataladigan joy nomlari ko'pchilikni tashkil etadi, jumladan:

- 1) Anor so'zidan: Anorzor;
- 2) Jiyda so'zidan: Jiydali;
- 3) Olma so'zidan: Olmazor, Olmali;
- 4) Paxta so'zidan: Paxtakor, Paxtaobod;
- 5) Terak so'zidan: Terakzor, Mingterak;
- 6) Tol so'zidan: Tolzor, To'ptol, Tolqator;
- 7) Tut so'zidan: Tutzor, Tutqator, Uchtut, Yakkatut;
- 8) O'rik so'zidan: O'rikzor, O'rikli kabi;

Bulardan tashqari chinor, sada, singari mevasiz daraxt nomlari bilan ataluvchi aholi maskanlari ham mavjud. Bu haqdagi misollar qo'llanmaning lug'at qismida berilgan.

Fitooykonimlar tarkibidagi qo'shimchalarga qarab ma'lum bir joyda o'simlik yoki daraxtlarning tarqalish miqdorini bilish mumkin. Ma'lum hududda o'simliklarning ko'p ekanligini bildiruvchi oykonimlar tarkibida ming, tup, qator, gala singari sonlar va miqdorni bildiruvchi



soʻzlar yoki – li, – lik, – zor, – iston qoʻshimchalari mavjud boʻladi: Mingchinor (Xovos tumani), Tut qator (Boyovut tumani Gulbuloq mahallasi), Olmali (Boyovut tumani), Uzumzor, Oʻrikzor, singari. Oʻsimlikning kamligi yoki sanoqli ekanligi maʼnosini bildiruvchi oykonimlar tarkibiga “yakka”, “ikki”, “qoʻsh”, “uch”, “toʻrt”, “chor” soʻzlari ishtirok etadi. Masalan, Yakkatol (Boyovut tumani Doʻstlik mahallasi), Uchtut (Sirdaryo tumani), Qoʻshchinor (Sardoba tumani) kabi.

Bundan tashqari, hech qanday qoʻshimchasiz oʻzak holida qoʻllaniluvchi archa, chinor, qayragʻoch, tut singari oʻsimliklar ham qishloq va mahallalar nomlari uchun asos boʻlgan. Bu soʻzlar mazkur oʻsimlik turining oʻsha hududda ozligi, kam miqdorda ekanligi, lekin eng xarakterli belgi vazifasini oʻtashligini bildiradi.

S.Qorayev (2006) har doim ham oʻsimliklar nomidan olingan aholi maskanlari nomini fitooykonimlar guruhiga kiritish u qadar toʻgʻri emasligini taʼkidlaydi. Sababi madaniy oʻsimliklar, turli ekinlar va daraxt-butalar dehqonchilik hamda bogʻdorchilik manbai boʻlib, iqtisodiy geografiyaning oʻrganish obyekti hisoblanadi. Shuning uchun bunday nomlarni iqtisodiy oykonimlar guruhiga kiritish ham mumkin. Bunday oykonimlar qatoriga respublikamizdagi Anorzor, Bedazor, Bedapoya, Bodomzor, Jiydazor, Lolazor, Mingoʻrik, Mingchinor, Olmazor, Oqterak, Paxtazor, Paxtakor, Paxtachi, Terakzor, Tutzor, Uzumzor, Qoʻshchinor kabi nomlarni kiritish mumkinligi taʼkidlanadi.

## **SIRDARYO VILOYATIDA ETNOOYKONIMLAR**

Kishilik jamiyatining turli rivojlanish bosqichlarida vujudga kelgan urugʻ, qabila, elat, xalq, millat kabi etnik birliklar etnoslar deb atalgan. Bu fikrni koʻpchilik tomonidan qabul qilingan, etnologiya fanidagi yagona fikr deb boʻlmaydi. Ammo biz etnoslarning faqatgina toponimikaga aloqador jihatlariga toʻxtalmoqchimiz. Biror oʻlka toponimikasini oʻrganishda etnonimlarning oʻrni katta ekanligi haqida deyarli barcha toponimist olimlar, jumladan, V.A.Nikonov, S.Qorayev, K.Shoniyozov, S.Gubayeva, N.Oxunov va boshqalar taʼkidlab oʻtganlar.

Biroq hudud toponimiyasini o‘rganishda masalaning boshqa jihatlarini ham esdan chiqarmaslik zarur, sababi butun dunyo etnoslari uchun xos bo‘lgan jihatlar bizning xalqimizga ham tegishlidir.

Birinchi, etnoslarga qo‘yilgan nomlar shu qadar o‘zgarib ketishi mumkin ekanki, bu nomga qarab mavjud etnosning tarqalgan hududi, etnik tarixi haqida har doim ham xulosa chiqarish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Masalan, ulug‘ hamyurtimiz Z.M.Bobur tomonidan Hindistonda tashkil etilgan davlat “Buyuk mo‘g‘ullar imperiyasi” deb yuritilib kelinganligini eslash kifoya.

Ikkinchi, aholi maskanlariga etnoslar nomini qo‘yishda ham toponimikadagi nisbiy negativlik qonuniga amal qilinadi. Ya’ni, biror millat yoki xalq yaxlit yashaydigan hududning bir qismiga emas balki, bu hududning chekka qismida ikki xalq vakillari aralashib yashaydigan joylardagina etnoslarning nomiga xos xususiyat, ajralib turuvchi belgi sifatida joylarga qo‘yiladi. Shuning uchun bu toponimlar asosida o‘rganilayotgan etnosning geografiyasiga har doim ham to‘g‘ri baho berib bo‘lmaydi.

Tarixiy manbalarda 92 ta o‘zbek urug‘i borligi yoziladi. Bundan tashqari, bu urug‘larning har biri yana mayda guruhlariga bo‘linib ketishiga to‘xtalib, Karim Shoniyozov birgina qo‘ng‘irot urug‘ining 200 dan ortiq kichik shox – to‘plarga ajralib ketishini yozadi. Sirdaryo viloyati hududida keng tarqalgan etnik guruhlar nomi ham toponim sifatida joy nomlarida o‘z ifodasini topgan. Bu haqidagi batafsil ma’lumotlar N.Oxunov (1989; 2005) hamda S.Qorayev (2006) asarlarida keltirilgan. Biz quyida ushbu manbalardan foydalangan holda viloyatdagi qishloq va mahallalar nomlari tarkibida ko‘p takrorlanadigan etnik birliklar nomlariga to‘xtalib o‘tmoqchimiz

Sirdaryo viloyatida Parchayuz, Beshyuz, Choljuvut, Juvonsiyroq, Qorasiyroq, Risto‘bi, So‘pi, Uyas, Solin, Sirg‘ali, Nayman, Turk, Qo‘qoni-qarapchi, Uvoq, Uyuvli/O‘yuvli, Yettiurug‘, Boyovut, Barlos, Puchug‘oy kabi urug‘, qabila va ularning ayrim to‘plari nomlari bilan bog‘liq toponimlar uchraydi.

N.Oxunovning ta'kidlashicha (1989), qipchoq qabilasi ko'pgina turkiy xalqlar: o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg'izlarning etnik tarkibiga kirib, ularning millat bo'lib shakllanishida qatnashgan.

Mirzaobod tumanidagi Choljuvut, Juvonsiyroq, Qorasiyroq, So'pi, Uyas, Solin, Sirg'ali, Nayman, Xovos tumanidagi Beshyuz, Boyovut tumanidagi Boyovut, Puchug'oy, Guliston tumanidagi Nayman, Sardoba tumanidagi Parchayuz qishloqlarining nomi shunday atamalar sirasiga kiradi.

Sirdaryo viloyati toponimik xaritasiga kiritilgan qishloq va mahallalarga qo'yilgan nomlar orasida eng keng tarqalgani nayman urug'ining nomidir. Naymanlar qabila sifatida o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, no'g'ay va oltoy xalqlarining tarkibiga ham kirgan. XIX asrning 70 yillarida o'zbek naymanlari Zarafshon vohasi, Farg'ona vodiysi va Xorazmda yashaganlar. Keyinchalik naymanlar o'zbek xalqi tarkibiga singib ketgan. Hozirda Nayman nomli qishloqlar Sirdaryo viloyatining Mirzaobod, Oqoltin tumanlarida uchraydi.

Yuz urug'lari nomlaridan olingan qishloqlar Boyovut, Mirzaobod, Guliston, Sardoba tumanlarining toponimik xaritalarida qayd etilgan. Jaloyir urug'i vakillari nomi oykonim sifatida Xovos, Boyovut, Mirzoobod tumanlarida saqlanib qolgan.

Sirdaryo viloyatida tarqalgan etnooyokonimlar orasida boshqa millat vakillari tarqalganligini, yashaganligini bildiruvchi joy nomlari ham mavjud. Ularga tatar, tojik, qirg'iz, qoraqalpoq, koreys, rus, yahudiy singari millatlar bilan bog'liq joy nomlari bo'lib, ularga Turkman ovul, Tojik ovul, Turk ovul, Xiristianlar (Gulbuloq mahallasi qabristoni), Provaslav (Chamanzor mahallasi qabristoni), Koreyslar (Sayxunobod tumani) singari toponimlar misol bo'ladi.

Xalqimizning ko'plab urug'-qabilalari nomlari Rashididdin, Abulg'azi Bahodirxon, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi tarixchilar hamda A.P.Xoroshxin, N.A.Aristov, I.N.Logofet, V.V.Bartold, A.Y.Yakubovskiy, S.P.Tolstov, B.X.Karmisheva, K.Sh.Shaniyazov, A.R.Muhamadjanov, B.A.Axmedov, I.Jabborov, X.Xasanov, S.Gubayeva, N.Oxunov kabi olimlarning ilmiy ishlari asosida o'rganilib, S.Qorayev tomonidan ularning umumiy ro'yxati tuzib chiqilgan (2006).

Mazkur nomlarning anchagina qismi Sirdaryo viloyati toponimlari orasida takrorlanadi. Sirdaryo viloyati oykonimlari orasida etnonimlar soni boshqa viloyatlarga nisbatan kamchilikni tashkil qiladi.

Har qanday etnonimning o'z ma'nosi bor. Bu nomlarning tarixi uzun bo'lib, ularning etimologiyasi haqida gapirish alohida mavzudir. Shuni hisobga olib, etnooykonimlar etimologiyasiga faqatgina toponimik lug'atda izoh berildi.

## **SIRDARYO VILOYATIDA ANTROPOOYKONIMLAR**

Kishilarning ismlari, laqablari, taxalluslari va familiyalaridan yasalgan joy nomlari antropooykonimlar deb yuritiladi. Keyingi yillarda viloyatda ko'cha, mahalla va qishloqlarga nom berishda kishilarning ismlarini qo'yish yoki komissiyaga taqdim etish hollari ko'p uchrab turadi. Shuni hisobga olib mazkur mavzuda ikkita fikrni aytishni lozim topdik. Birinchidan, yuqorida ta'kidlanganidek, Islom dini odatlariga ko'ra joylarga nom berishda kishilarning ismlaridan foydalanish u qadar quvvatlanmagan. Sharqda yashagan ulug' allomalarning ismlarini dunyo xaritasida uchramasligi ushbu fikrni tasdiqlaydi. Keyinchalik so'lim go'shalarga aziz-avliyolar, islom dini namoyondalarini ismlari qo'yila boshladi. Bunday nom bir tomondan o'sha maskanga ziyoratchilar oqimini ko'paytirib, iqtisodiy jihatdan naf ko'rilishiga sabab bo'lsa, boshqa tomondan shu maskan tabiatini ekologik jihatdan saqlashga yordam beruvchi diniy-huquqiy himoya vositasi sifatida ishlatilgan. Ikkinchidan, respublikaning amaldagi qonunlari bo'yicha obyektlarga kishilarning ismini berishga alohida hollarda ruxsat beriladi. Mahallalar, ko'chalar, maydonlar, xiyobonlar, bog'lar va aholi punktlarining boshqa tarkibiy qismlariga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga, fizik-jug'rofiy, geologik, tabiati muhofaza etiladigan va boshqa obyektlarga davlat, jamoat arboblarning, siyosiy arboblarning, Vatan himoyachilari, mehnat qahramonlari, fan, madaniyat arboblari va boshqa xizmat ko'rsatgan odamlarning nomini berish faqat ularning vafotidan so'ng amalga oshirilishi mumkin ekanligi belgilab qo'yilgan.

Yuqoridagilarni e'tiborga olib mahallalar, ko'chalar, maydonlar, xiyobonlar, bog'lar va aholi maskanlarining boshqa tarkibiy qismlariga nom berishda imkon boricha joyning iqtisodiy va tabiiy-tarixiy xususiyatlarini o'zida aks ettirgan nomlarni qo'yish maqsadga muvofiq ekanligini unutmaslik zarur.

Antropooykonimlarning vujudga kelishi jamiyatda tabaqalanishning paydo bo'lishi davridan boshlangan. Xususiy mulkchilikka asoslangan davrga kelib hududning asosiy farqlovchi belgisi sifatida uning kimga qarashli ekanligi, egasi olingan. Natijada, katta hududlar, qishloq va mahallalarga yirik feodallar, urug' va jamoa boshliqlari, mahalliy hukmdorlar nomi berilgan. Bu holat XX asrning boshlariga qadar davom etgan bo'lsa, hozirda mahallalar, ko'chalar, maydonlar, xiyobonlar, bog'lar va aholi punktlarining boshqa tarkibiy qismlariga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga, fizik-jug'rofiy, geologik, tabiati muhofaza etiladigan va boshqa obyektlarga davlat, jamoat arboblarning, siyosiy arboblarning, vatan himoyachilari, mehnat qahramonlari, fan, madaniyat arboblari va boshqa xizmat ko'rsatgan odamlarning nomini berish orqali antropooykonimlarning katta qatlami yaratilmoqda. Antropotoponimlarni paydo bo'lish xususiyatlariga ko'ra tasniflash toponimikada S.Qorayev (2006), N.Oxunov 1983) kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. N.Oxunov (1983; 2005) Respublika miqyosida to'plangan faktik materiallar asosida kishi atoqli otlarining joy nomiga aylanishining bir necha usullarini ajratib ko'rsatadi.

1. Kishi ismi hech qanday qo'shimchasiz joy nomiga aylanadigan holat, Masalan, Iskandar qishlog'i, Haydar, Sobirjon, Baraka, Bekmurod, Bakir, Islom, Sulaymon va boshqalar.

2. Kishi ismi va unga qo'shib qo'llanilgan titul nomidan iborat oykonimlar: To'ra, (Sayxunobod tumani O'rikzor mahallasi) Alimxon (Sayxunobod tumani O'zbekiston mahallasi), Said Umarxon (Sirdaryo tumani Islomobod mahallasi), Shamsiddinxon (Sirdaryo tumani Zarshunos mahallasi), Abdullaxon xoji (Yangiyer mahallasi) kabi.

3. Kishi ismi bilan geografik terminning birikuvi orqali yasalgan oykonimlar. Bu guruhga mansub bo'lgan antropooykonimlar shaxs nomlariga asosan qishloq, mahalla, qo'rg'on, qo'rg'oncha, guzar, ovul,

tepa, jar, kent, dasht, cho‘l, orol, ravot, maydon singari terminlarni ko‘shish orqali ifoda qilingan: Usmontepa (Xovos tumani Qoraqum mahallasi) kabi.

4. Kishi ismiga “obod” qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan oykonimlarga Usmonobod (Boyovut tumani), Nurmatobod (Sayxunobod tumani Nurobod mahallasi), Rahmonobod (Guliston tumanidagi Baxmal mahallasi qabristoni), Soyibobod (Guliston tumani) kabi qishloq va mahalla nomlari misol bo‘ladi.

5. Kishi ismiga “bobo”, “ota”, “aziz” so‘zlaridan birining qo‘shilishi asosida vujudga kelgan oykonimlar: Sher bobo maqbarasi (Xovos tumani Xovosobod mahallasi) Yusuf bobo maqbarasi (Xovos tumani Xovosobod mahallasi) Oqmozor bobo (Xovos tumani) Xoji ota, Parpi ota (Sayxunobod tumani), Zarif ota qabristoni (Guliston tumanidagi Oqoltin mahallasida qabriston) Tastanbek baba (Sirdaryo tumani), Mullayor ota (Sirdaryo tumani Baxmal mahallasi), Safar ota (Sirdaryo tumani Oq yo‘l mahallasi), Qo‘chqorchi ota (Sirdaryo tumani Oq yo‘l mahallasi), Abduhakim ota (Sirdaryo tumani Istiqbol mahallasi), Aliqul bobo (Sirdaryo tumani Istiqbol mahallasi), Shomurodobod (Boyovut tumanidagi Anorzor mahallasi), Changirbobo (Guliston tumanida qabriston) va boshqalar. Bu nomdagi antropooykonimlarning o‘sha joy tabiatini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish sohasidagi diniy – ilohiy vazifasi haqida alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Bunday toponimlarning ekotoponimik funksiyasini puxta o‘rganish va tahlil etish zarur.

6. Sirdaryo viloyatining katta qismi keyingi davrlarda, xususan, XX asrda o‘zlashtirilganligi sababli bu yerda yangi paydo bo‘lgan aholi manzilgohlarini nomlashda tarixiy shaxslar, din va adabiyot namoyandalari, davlat arboblari nomlaridan toponim sifatida foydalanish ko‘p kuzatiladi. Masalan, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Furqat, Usmon Yusupov, Hamid Olimjon, Feruz, Hamza, Sharof Rashidov kabilar.

Bugungi kunda mahallalar, ko‘chalar, maydonlar, hiyobonlar, bog‘lar va aholi punktlarining boshqa tarkibiy qismlariga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga, fizik – jug‘rofiy, geologik, tabiati muhofaza

etiladigan va boshqa obyektlarni kishilar ismi bilan atashga eng zarur hollardagina ruxsat berish maqsadga muvofiqdir. Bu bilan joy nomlarining ko‘p marta, takror o‘zgartirilishining oldi olinadi.

## **SIRDARYO VILOYATIDA IQTISODIY IJTIMOIIY – TURMUSHNI AKS ETTIRUVCHI OYKONIMLAR**

Aholi maskanlarini nomlashda xalqning iqtisodiy turmush tarzi – shug‘ullanuvchi kasbi-kori, xo‘jalik faoliyati, orzu – umidlari muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Qadimda hunarmandchilik bilan bog‘liq bo‘lgan joy nomlari ko‘proq mahallalarga berilgan bo‘lib, viloyat qishloq va shaharlarida Chilangarlar (Sirdaryo tumani), Chorvador (Guliston tumanidagi Beshbuloq mahallasi), Tadbirkor (Sirdaryo tumani), Baliqchi (Sayxunoblod tumani), Binokor (Xovos tumani) kabi joy nomlari qayd etiladi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan bog‘liq bo‘lgan Dehqonobod (Guliston tumani), Mehnatobod (Xovos tumani), Paxtakor, Sholikor (Sirdaryo tumani), Pillakor, G‘allakor (Boyovut tumani), Bodomzor (Guliston shahar), Mirishkor, Behizor kabi qishloqlar mavjud. O‘zbekistonda kishilarning iqtisodiy turmushida savdoning ahamiyati yuqori bo‘lgan. Savdo mazkur hududning gullab yashnashiga ta’sir o‘tkazgan. Shuning uchun “bozor” iborasi toponimlar tarkibida ko‘p tarqalgan. Sirdaryo viloyatidagi toponimlar orasida Bozor, Ustabozor, Yangibozor nomlari savdoga nisbat berib qo‘yilgan. Aholi maskanlari orasida kishilarning mulkiy darajasini (boy), jamiyatdagi mavqiyini, tabaqasini (bek, xo‘ja, darvesh, eshon, pir, mulla, so‘fi) bildiruvchi so‘zlar bilan hosil qilingan joy nomlari ham anchaginani tashkil etadi.

O‘zbek xalqining azaliy orzu-umidlari, maqsad va intilishlarini ifoda etuvchi so‘nggi yillarda qo‘yilgan joy nomlari, jumladan, Yangi O‘zbekiston, Yangi hayot, Do‘stlik, Bahor, Ulug‘obod, Shodlik, Bog‘ishamol, Obod yurt, Ahillik, Navbahor, Istiqlol, Ma’naviyat, Ulug‘yo‘l, Sayqal, Namuna, Taraqqiyot, Baxt, Buyuk kelajak, Nurafshon,

Sohil, Nihol, Ibrat, Yuksalish, Bo‘ston, Madaniyat, Kamolot, Orzu, Farovon, Yoshlik, Adolat, Bunyodkor, Intilish, Istiqbol, Birdamlik kabi nomlar viloyatdagi toponimlarning katta qismini tashkil qiladi.



## SIRDARYO VILOYATINING QISQACHA TOPONIMIK LUG‘ATI

**SIRDARYO** – Markaziy Osiyodagi eng uzun daryo. Ushbu daryo turli manbalarda turlicha nomlangan: qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida **Yaxartes** (Yaksart), ba’zan **Tanais**, zardushtiylarning muqaddas “Avesto” kitobida **Danu**, **Yaosha**, X asrga oid “Hudud ul-olam” anonim asarida **Xashart**, qadimgi turkiy runiy yozuvlarida **Yenchiog‘uz**, Firdavsiyning “Shohnoma” asarida va Hamdallah Qazviniyning “Qalblar saodati” asarida (1339) **Gulzarriyun**, arablar istilosidan keyingi ko‘plab yilnomalarda **Sayxun**, arab geografi Ibn Ibn Xurdodbehning (IX asr) asarlarida **Xishart** va **Kankar**, Beruniy asarlarida **Xasart**.

Shu bilan birga, daryo, oqim joyiga qarab, **Obi Farg‘ona** (Farg‘ona daryosi), **O‘zgand daryosi**, **Obi Xo‘jand** (Xo‘jand daryosi), **Naxri Shosh** (Shosh, Choch daryosi), **Banokat daryosi** deb ham nomlangan.

Shuni ta’kidlash kerakki, Yaxartes va Yaksart, Xashart va Enchuog‘uz – barchasi “Marvarid daryosi” degan ma’noni anglatgan. Daryoning zamonaviy **Sirdaryo** nomi qachon paydo bo‘lgan? Rim tarixchisi Pliniy (I asr) skiflar (saklar) bu daryoni **Silis** deb ataganliklarini yozib qoldirgan.

Ba’zi olimlar (V.V.Bartold, S.G.Klyashtorniy, H.Hasanov) Silisni **Sirbilan** bir xil deb hisoblashgan.

Shunday qilib, Sirdaryo qadimgi davrlarda o‘rta va yuqori oqimlarda **Yaksart**, past oqimlarida esa – **Silis** (Sir) deb nomlangan. XIII–XIV asrlarda Jend shahri yaqinidagi quyi oqim nomi – **Siro‘rda**. Ushbu dalillar mazkur daryoning (Sirdaryo) eng qadimgi nomlaridan biri nafaqat xalq og‘zida saqlanib qolganligi, balki asta-sekin ushbu daryoning asosiy nomiga aylanib ulgurganidan dalolat beradi.

Ba’zilar daryoning nomi **Sir**, ya’ni bo‘yoq degan ma’noni anglatadi, deya ta’kidlashadi (“sariq daryo” (loyli daryo), **Sirdaryo** – “*tog‘ sirtlaridan oqib keluvchi daryo*”).

Ushbu talqinning ilmiy mohiyati professor H.Hasanov tomonidan e’tirozga sabab bo‘lgan. Biz ushbu buyuk daryoning nomini uning

bo'yida yashagan qabila (silis – sir) nomi bilan bog'liq ekanligi eng munosib izoh deb hisoblaymiz.

**Sirdaryo** Markaziy Tyanshanda joylashgan Oqshiroq tog'idagi Petrov muzligidan boshlanuvchi Qorasoy hamda Tarag'ay daryolarining qo'shilishidan vujudga kelgan Norin bilan Farg'ona tizmasidan suv yig'uvchi Qoradaryoning Farg'ona vodiysi sharqiy chekkasida birlashishidan vujudga keladi<sup>22</sup>.

Sirdaryo O'zbekistonning Andijon, Namangan, Farg'ona, Toshkent, Sirdaryo viloyati, Tojikistonning Sug'd viloyati va Qozog'istonning Janubiy Qozog'iston hamda Qizilo'rda viloyatlari bo'ylab avval g'arb, janubi-g'arb tomon, so'ngra esa shimoli-g'arbgga oqib borib, Orol dengiziga quyiladi. Sirdaryo – qadimiy va tarixiy daryo.

Sirdaryo gidronimining turlicha nomlar bilan qadimgi tarixiy, geografik, badiiy asarlarda uchrashi ham fikrimizning yorqin dalilidir. Sirdaryo gidronimi dastlab Rim tarixchisi Pliniy asarida (milodning I asri) **“Silis”** shaklida uchraydi<sup>23</sup>. E.Safoyeva va I.Shoyimardonovlarning ko'rsatishicha, Silis “sarmat”, “sar”, “sir” so'zlari bilan asosdosh (o'zakdosh) bo'lib, hammasi shu daryo bo'ylarida istiqomat qilgan sart nomli qabilaga aloqador. *Sir* va *Silis* nomlari bir-biriga monandir. *Sir* – Sirdaryoning qadimiy sak tilidagi nomi.

Bunday fikr P.Baratov ishlarida ham kuzatiladi. U: *“Silis” yoki “Sir”* so'zlari daryo qirg'oqlarida yashagan qabila nomidan olingan bo'lsa kerak, degan taxminlar bor”, – deb yozadi<sup>24</sup>.

Demak, Silis, Sir bir so'zning fonetik variantlaridir. XIII–XIV asrlarda Sirdaryo etagida Jand shahri yaqinida Jo'jixonning o'g'illari va nabiralari o'rdasi *Siro'rd*a deb atalgan. Qadimgi turkiy yodgorliklarda *sir* etnonimi uchraydi: *“Qapg'an xoqon Turk sir xalqi erida urug' ham, xalq ham, kishi ham [erga] ega ham bo'lmas edi”*<sup>25</sup>.

---

<sup>22</sup> Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 85.

<sup>23</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7-ж. – Тошкент, 2004. – Б. 640, 435

<sup>24</sup> Сафоева Е., Шойимардонов И. Ўзбекистон халқлари тарихини ўқитишда ўлкашунослик материалларидан фойдаланиш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – Б. 24.

<sup>25</sup> Тўньюкўк битиктоши // Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи 1982. – Б. 79.

Bu dalillar Sir etnonim ekanligini, asrlar davomida daryo nomiga aylanganligini va hozirga qadar yetib kelganligini ko'rsatadi.

XVI asrda Muhammad Solih yozgan "Shayboniynoma" asarining o'nlab o'rinlarida ham daryo nomining Sir varianti kuzatiladi: *Bu ariq birla yetishti lashkar, Sir bo'yin ayladilar tunla maqar. Sovuq aylab erdi Sirga ta'sir, To'ngub erdi, topo olmay tadbir...*<sup>26</sup>. Ayrim tarixchi olimlar fikricha, "Avesto"da tilga olingan keng sersuv daryo – **Ranxa** hozirgi Sirdaryoning qadimiy nomi bo'lishi mumkinligini ta'kidlashadi<sup>27</sup>.

Biroq "Avesto"ning yangi nashrida Ranxa gidronimi Amudaryo deb izohlangan. "Avesto"da quyidagi parcha kuzatiladi: "*O'ldirdi danulik Varashavani, Va yovuzlik tarqatuvchi Pitasnani*". Mazkur parchadagi kichik harflar bilan berilgan *danu* so'ziga kitobning lug'at qismida quyidagicha izoh berilgan: "Danu – turlar qabilasining nomi. Ehtimol, ana shu qabila sohilida istiqomat qilgan daryoning nomi ham bo'lishi mumkin (Don, Sirdaryo)". Demak, asar tarjimoni fikricha, bu asardagi Danu Don yoki Sirdaryoning qadimiy nomi<sup>28</sup>.

Sirdaryo gidronimi qadimgi yunon tarixshunoslari asarlarida, G'arbiy Yevropa manbalarida *Yaxartes (Yaksart)*, ba'zan *Tanais* tarzida kuzatiladi.

Pliniyning ma'lumotiga ko'ra, daryoni baqtriyaliklar *Laksat*, skiflar *Silyas* deb atashgan. Laksat aynan Yaksart nomining variantidir. *Tanais* asli antik shahar (mil. av. III a. – mil. V a.), Don daryosining quyi oqimi bo'yida joylashgan.

Yunon muarrixlari Don va Sirdaryoni shunday ataganlar<sup>29</sup>. Anglashiladiki, *Tanais* asli polisonim – shahar nomi, keyinchalik daryo nomiga – gidronimga aylangan, ya'ni gidropolisonimdir, biroq bu nom manbalarda kam uchraydi. Klavdiy Ptolemey "Geografiyadan qo'llanma" asarida yozishicha, Yaksart daryosi sohillari yaqinida

---

<sup>26</sup> Мухаммад Солих. Шайбонийнома. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 128.

<sup>27</sup> Қаранг. Сағдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 22.

<sup>28</sup> Қаранг. Авесто (Асқар Маҳкам таржимаси). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 350.

<sup>29</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-ж. – Тошкент, 2005. – Б. 252.

yaksartlar degan katta qabila yashagan<sup>30</sup>. Shuningdek, Bihistun katibalarida Sirdaryo ortidagi qabilalar saklar deb atalgan. Gerodot “Tarix” asarida “*Forslar barcha skiflarni saklar deb ataydilar*”, – deb yozadi<sup>31</sup>.

Bizningcha, yaksartlar ana shu saklarning bir urug‘i. Demak, Yaksart nomi yaksart etnonimining onomastik konversiya asosida gidronimga (daryo nomiga) o‘tishi asosida shakllangan: *yaksart* > *Yaksart*. Yaksart gidronimi pahlaviychada *Yaxshart* shaklida uchraydi.

Sharqshunos I.Markvart Yaxshart gidronimini *Yaxsha, arta* kabi ma’noli qismlar (morfemalar)ga ajratib, uning etimonini “*haqiqiy, toza gavhar*”, deb izohlaydi. Yaxsha – gavhar so‘zi daryoning xitoycha va turkiycha nomlari tarkibida ham mavjud.

Qadimgi turkiy yodgorliklarda Sirdaryo gidronimining **Yinchuo‘guz**, ya’ni **Injuo‘guz** shakli kuzatiladi: “*Injuo‘guzni kechib Tinsi o‘g‘li yotadigan Bangligak tog‘ini...*”<sup>32</sup>.

S.G.Klyashtorniy Yinchuo‘guz Sirdaryoning o‘rta oqimi, lug‘aviy ma’nosi: Inju (marvarid) daryo, deb ko‘rsatadi<sup>33</sup>. Yinchu hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi inju so‘zining tarixiy fonetik varianti bo‘lib, “marvarid, gavhar” ma’nolarida qo‘llanadi. O‘g‘uz so‘zi turkiycha bo‘lib, “daryo” ma’nosini anglatadi.

S.G.Klyashtorniyni ko‘rsatishicha, daryoning xitoycha nomi “chjen chu je” ham aynan ana shu Yinchuo‘guzning tarjimasidir. Sug‘dchasi *Yaxshart, Yaksart* > *Yaxsha arta (asl marvarid)dir*. Yaksartning xitoycha transkripsiyasi – *Yaosha, Yausha* yoxud *Yosha*. Islomiyat davridagi arab va fors manbalarida Beruniyning “Qonuni Mas’udiy”, muallifi noma’lum “Hudud ul-olam” asarlarida gidronim *Xashart* shaklida uchraydi.

Bizningcha, Xashart ham Yaksart nomining fonetik varianti bo‘lib, *Yaksart, Yaxshart, Chinchuxe, Yinchu, Xashart* kabi daryoning tarixiy

<sup>30</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 10-ж. – Тошкент, 2005. – Б. 365.

<sup>31</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7-ж. – Тошкент, 2005. – Б. 437.

<sup>32</sup> Тўнюкук битиктоши // Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 77.

<sup>33</sup> Кляшторный С. Г. Тонюкук-Ашида Юаньчжен. – Тюркологический сборник. К шестидесятилетию А. Н. Кононова. – Москва: Наука, 1966. – С. 75.

nomlari aynan bir ma'noga ega. Shuningdek, daryo Firdavsiyning "Shohnoma" asarida va Hamidulloh ibn Abu Bakr Mustavfiy Qazviniyning "Nuzhat ul-qulub" ("Qalblar rohati") asarida *Gulzarriyun* tarzida tilga olinadi. Mazkur nom ham daryoning yuqoridagi nomlariga monand. Daryoning bu badiiy nomi Gulzarriyun – fors-tojikcha "gul" va "zar" soʻzlaridan tarkib topgan boʻlib, "gulga monand zar, oltin" degan ma'noni anglatadi.

Badiiy gidronim *Gulzarriyun*, bizningcha, Yaksart – "asl marvarid" ma'nosidagi yaksart etnonimi asosida shakllangan daryoning qadimiy nomi, Yoxshart, Xashart esa mazkur nomning fonetik variantlari. *Yinchu* (fonetik varianti Inju) gidronimning turkiy, *Chjenchuje* esa xitoycha muqobilidir. *Yaxshart*, *Chjenchuje*, *Yinchu* nomlari daryoni mohiyatan gavharga qiyoslash asosida shakllangan. Arablar esa daryoni *Sayhun* deb ataganlar. Jumladan, Alisher Navoiy *Sayhun suyi*, Zahiriddin Muhammad Bobur ham *Sayhun* gidronimini qoʻllagan: *Oqib haddi sharqiyda Sayhun suyi, Borib haddi gʻarbiyda Jayhun suyi*<sup>34</sup>. Yoki: "yetti pora qasabasi bor; beshi *Sayhun* suyining janub tarafida, ikki shimol jonubida".

Shuningdek, XVI asr oxirlarida, aniqrogʻi, 1596 yillarda yaratilgan Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarida *Sayhun* varianti kuzatiladi: "(Chingizxonning) ikkinchi oʻgʻli Chigʻatoyxondirki, (u) Qoshgʻar chegarasidan va Sayhundandan (tortib) to Jayhun labigacha (boʻlgan yerlarga) uning muborak hukmi joriy edi"<sup>35</sup>.

Is'hoqxon Ibrat tarixiy asarida *Sayhun*, Sirdaryo nomlarini teng qoʻllaydi: "Xoʻqand xonligʻiga Qoshgʻar va Pomir, yaʻni Shugʻnon hududigʻacha Oʻrol koʻlina muttasil oʻlub, butun *Sayhun* daryosini komilan shomul oʻlub..." Yoki: "Fargʻona gubernasi shimoli-sharqiy tarafidan Samarchin, yaʻni Yettisuv shimoli-gʻarbiy tarafidan Sirdaryoga nafs Turkiston gʻarbi-janubiy tarafidan Buxoro xonliqi mahkumi to Pomir, yaʻni Shugʻnon hukumati mustaqilasiga

<sup>34</sup> Алишер Навоий. Садди Искандарий. Хамса. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 328.

<sup>35</sup> Хофиз Таниш Бухорий. Абдуллонома ("Шарафномаи шоҳий"). Биринчи китоб; Форс тилидан С. Мирзаев тарж. Сўз боши ва изоҳлар муаллифи: Б. Аҳмедов. – Тошкент: Шарк, 1999. – Б. 50.

*muttasildur*<sup>36</sup>. Ayrim manbalarda Jayhun (Amudaryo) nomi bilan Sirdaryoning Sayhun nomi “G‘arbiy Osiyodagi Jayxon va Sayxon (asli *Jayhon, Sayhon*) ga nisbat qilib qo‘yilgan”, – degan izoh ham kuzatiladi<sup>37</sup>. Siyhon yoki Sayhon – Kichik Osiyoning janubi-sharqiy qismidagi daryo. U Qaysariyadan boshlanadi va Tarsusga yaqin joyga suvini quyadi. Ummaviylar va vizantiyaliklar hukmronligi davrida asirlarni ayirboshlashni shu yerda amalga oshirilgan<sup>38</sup>.

Sirdaryoning arablar kelganidan keyin Sayhun deb atala boshlanganligini e‘tiborga olinsa, bu fikrda ancha asos bor. Toponimiyada bir joy nomining ikkinchi joy nomiga ko‘chishi – qadimiy an‘ana. O‘zbekiston toponimiyasida Sayhun gidronimi asosida shakllangan bir necha joy nomlari kuzatiladi. Jumladan, *Sayxunobod* – Sirdaryo viloyatidagi tuman nomi, ya‘ni gidroxoronim (suv obekti nomi bilan atalgan tuman), Sayxun Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi shaharcha nomi, ya‘ni gidrooykonim (suv obekti nomi bilan atalgan shaharcha nomi) va boshqalar<sup>39</sup>.

Manbalarda Sayxun gidronimining imlosi turlicha beriladi. Jumladan, Boburning “Boburnoma” asarida *Sayxun*, Ibratning “Ta‘rixii Farg‘ona” asarida *Sayhun*, fors-tojikcha “G‘iyos ul-lug‘at”, arabcha “Al-Munjid” kabi lug‘atlarda *Sayhun*, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da va boshqa ayrim manbalarda esa *Sayxun* kabi.

Sir variantiga doir turlicha talqinlar kuzatiladi. Jumladan, S. Qorayev kitobida ko‘rsatilishicha, bu nomning bir nechta variantlari bo‘lib, ularni quyidagicha izohlaydilar: “*Sirli daryo*”, “*sir*”, ya‘ni “*rang*”, “*bo‘yoq*” so‘zidan; *Sirdaryo* – *tog‘ oralaridan, sirtlaridan oqib keluvchi daryo*; *Saridaryo* – “*sariq daryo*”, ya‘ni *loyqa suv*; *Serob*

---

<sup>36</sup> Ибрат. Фарғона тарихи. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 282–284.

<sup>37</sup> Қаранг. Сўз мулкига саёҳат. Амударё // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 1996. – Б. 89.

<sup>38</sup> Қаранг. Ал-Мунжид. – Байрут: Католик, 1966. – Б. 276.

<sup>39</sup> Қаранг. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 7-ж. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2004. – Б. 435.

– “*ko‘p suvli*”<sup>40</sup>. A. Xudoyorov fikricha, bu variantlardan faqat bittasi – “*Sirdaryo*” nisbatan asosliroq<sup>41</sup>.

Bizningcha, gidronimning *Sirli daryo*, *Sirdaryo*, *Saridaryo*, *Serob* kabi variantlari ilmiy manbalarda kuzatilmaydi va *Sir* nomining “rang”, “bo‘yoq” so‘zidan olingan deb izohlash juda jo‘n hamda sodda talqin. Osetiyalik sharqshunos B. Albarov daryo nomi haqida qiziq mulohaza yuritadi: “*Sarmast – sart – silis – sir* so‘zlarining o‘zagi bitta: bular hammasi shu daryo bo‘ylarida istiqomat qilgan sar ismli qabilaga aloqador: daryo nomi hind-yevropacha sal (tuz) so‘zidan olingan – daryo o‘zanidan tuz yig‘ilib, etaklarda yuzasi oqarib turadi, ya’ni “Tuzli daryo” demakdir”.

Demak, B. Albarov fikricha, sar va sal aynan bir so‘z. Bu talqin ham ancha asossiz. Sirdaryo qaysi yerdan oqib o‘tishiga qarab, *Obi Farg‘ona* (yoki Farg‘ona daryosi), *O‘zgan daryosi*, *Obi Xo‘jand* (Xo‘jand suvi), *Nahr ash-Shosh* (Shosh daryosi), *Banokat daryosi* deb ham atalgan<sup>42</sup>.

Tahlillardan anglashiladiki, daryo tarixda o‘nlab nomlar bilan atalgan. Jumladan, yuqori va o‘rta oqimlarida Yaksart, quyi oqimida Sir (Silis), arablar tomonidan Sayhun kabi. Hozirda bu nomlardan Sirdaryo varianti faol qo‘llanadi. Sirdaryo gidronimi morfemik jihatdan *sir* va *daryo* ma’noli qismlaridan tarkib topgan bo‘lib, *sir* etnonimi asosida shakllangan. *Sir* so‘zining etnonim deb qaraydigan bo‘lsak, gidronimning etimoni “*sirlar daryosi*” otli birikmasi. Birikma davrlar davomida sayqallanib, qo‘shma so‘zga, undan qo‘shma tarkibli nomga, ya’ni gidronimga aylangan: *Sirlarning daryosi* > *Sirlar daryosi* > *Sir daryo* > *Sirdaryo*.

Shuningdek, hozirda ham o‘zbek she’riy nutqida gidronimning *Sir* yoki *Sayxun* shakllari kuzatiladi: “*Amu bilan Sirdan suv ichgan, Zarafshonni loylatib kechgan Chavandozlar bordir bu elda*” (H. Olimjon. “O‘zbekiston”). Nomning Sayxun shakli tarixiy, badiiy asarlardagina qo‘llanadi. Sirdaryo gidronimi va uning varianti hamda

<sup>40</sup> Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – Б. 112.

<sup>41</sup> Худоевров А. Дарёларнинг кўхна номлари // “Маърифат” газетаси, 2007, 20 январь, 14-бет.

<sup>42</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 7-ж. – Тошкент, 2004. – Б. 640.

muqobillari tahlili nomlar xalq tarixi, tili haqida yorqin ma'lumot beruvchi lisoniy xazinaligidan dalolat beradi<sup>43</sup>.

## BOYOVUT TUMANI

**BOYOVUT** – Sirdaryo viloyati tarkibidagi tuman, shahar, Guliston tumanidagi qishloq nomi. Etnonim. Boyovut – O‘zbekiston hududida qadimdan yashab kelgan turkiy urug‘lardan birining nomi. Rashididdinning “Jome ut-tavorix”, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” asarlarida Chingizxon qo‘shinlari bilan birga kelgan qabilalar orasida Boyovut urug‘i tilga olingan. *Boyovut* – “boy”, “boylar” degan ma’nolarni anglatadi. Qozoqlarning Arg‘in qabilasi tarkibida ham bayaut urug‘i qayd qilingan. Ayrim mutaxassislar, jumladan, boshqird etnolog olimi R.G.Kuzeyev Boyovut bilan Bayot aslida bir qabila, deb hisoblaydi.

Rashididdinning yozishicha, qadimgi vaqtda boyovut ancha katta qabilalardan biri bo‘lib, bir necha tarmoqqa bo‘lingan. XII – XIV asrlarda Boyovutlarning katta bir qismi o‘zbek, turkman xalqlari tarkibiga kirib, ular bilan aralashib ketgan. Qo‘lyozma nasabnomalarning ba’zilarida boyovut qadimiy 92 o‘zbek urug‘ining biri sifatida ko‘rsatilgan. Boyovut so‘zining kelib chiqish tarixiga oid rivoyatlarga asoslangan boshqa talqinlar ham bor. Masalan, rivoyatlardan birida qadimda bu yer otlarga boy bo‘lgan va “*otga boy*”, “*boy ot*” so‘zlaridan kelib chiqqan deyilsa, boshqa rivoyatda bu yerlar o‘tga boy joylar bo‘lgan, *Boyovut* – “*boy o‘t*” so‘zidan kelib chiqqan deyiladi. XVI asrda yashagan farg‘onalik Mulla Sayfiddin Axsikandiyning “Majmu-at-tavorix” asarida Boyovut 92 bovli o‘zbek urug‘laridan biri sifatida qayd qilingan<sup>44</sup>. Tuman ma’muriy markazi – Boyovut shahri. O‘tgan asrning 60-yillarida Mirzacho‘lni o‘zlashtirish harakati boshlanishi bilan uzoq-yaqindan ko‘chib kelganlar va quruvchilar hisobiga shahar kengaygan. Shahar 1961–1991-yillari *Dmitrovo* deb atalgan. (Dmitrovo nomi sovet tuzumi davrida Bolgariya

<sup>43</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. –Toshkent, 2022. – B. 434-439.

<sup>44</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. –Toshkent, 2022. – B. 54.



kommunistik partiyasi yetakchisi Georgi Mixaylovich Dimitrov nomini abadiylashtirish maqsadida qo'yilgan). Boyovut tumanida Boyovut, Olmazor shaharchalari, Boyovut, Dehqonobod, Darvozaqir, Do'stlik, Laylakko'l, Madaniyat, Mingchinor, Tinchlik, Usmonobod, G'allakor mahallari bor.

**QORAQISHLOQ** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi Do'stlik mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Boyovut va Oqoltin tumanlarida shu nomli qishloqlar bor. Respublikaning bir qancha aholi manzillarida shu nomdagi toponimlar uchraydi. Qoraqishloq nomi Baxmal tumanidan ko'chib kelgan kishilar tomonidan shunday nomlangan. Deyarli barcha turkiy xalqlar tarkibida, masalan, qo'ng'iroq qabilasi tarkibida qora urug'i bo'lgan. Tarkibida qora sifati uchraydigan turkiy etnonimlar soni 300 dan oshadi. Qoraqishloq – “qora urug'i vakillari yashaydigan qishloq”<sup>45</sup>. Qora – bu etnonim, masalan, qirq qabilasining bo'linmalaridan biri Qora (qoracha) deb nomlangan. Bundan tashqari, *qora* komponenti deyarli barcha turkiy xalqlarda qabilaviy bo'linish nomlarida ko'p marta takrorlangan. Qora urug'i ko'plab turkiy xalqlarda uchraydi: o'zbeklar (qo'ng'iroq), qozoqlar (nayman, arg'in, dulat, boyo'g'li), qoraqalpoqlar (keneges), qirg'izlar (saribag'ish), turkmanlar (ersarlar) va boshqalar. Rang belgilari turkiy xalqlarning urug'-qabila nomlarida keng ifodalangan: *oq*, *qizil*, *sariq*. Rang belgilari orasida birinchi o'rinni *qora* egallaydi: dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, u 300 ga yaqin etnonimlarda uchraydi: *qora* komponentining o'zi mustaqil etnonim sifatida qozoqlar, o'zbeklar, qoraqalpoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, tuviniyaliklar orasida va boshqa turkiy xalqlarda bir necha bor takrorlangan. Etnonimlarning ichida urug'-aymoqni ifodalovchi qora komponentlilari nisbatan ahamiyatli hisoblanadi: qoraaziq, qoraboy, qora-kesak, qora-bog'ish (qirg'izlar orasida), qorabayir, qorako'sa, qoramoyin, qorateri, qoraqo'yli (o'zbeklar orasida), qorabosh, qorabura, qorako'z, qorato'y, qorato'qay (qozoqlar orasida), qoraxo'ja, qora-siyrak, qora-mang'it (qoraqalpoqlarda), qora-barak, qora-balkan, qoragan, qoraman (turkmanlar orasida) va boshqalar. *Ko'k*, *qizil*, *sori* ranglari

---

<sup>45</sup> Кораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 240 б.

oddiyroq taqdim etilgan. Etnonimlarning rang belgilarining ma'nolari hali ochib berilmagan<sup>46</sup>. Qora so'zi "Qopahoniylar" bilan bo'g'liq holda "buyuk", "katta", "uiug'" ma'nosini anglatishi mumkin. Masalan, "Qora qishloq" – "Katta qishloq" ma'nosida. Bunday nomlanish toponimlarda kattalik sifatiga ega. Qora sifati bilan bog'liq nomlarning yonida "Oq" sifati bilan bog'liq nomlar ham uchrashi mumkin. "Qora nayman" – "Katta nayman" "Oq nayman" – "Kichik nayman" kabi. Shuning uchun ham ko'pincha qora so'zi katta ma'nosida qo'llaniladi. Bunda qora qishloqning kattaligi yoki eskiligi (qadimiyligi)ga e'tibor qaratish ham lozim bo'ladi.

**TURKMAN OVUL** – Boyovut tumanidagi Yangiobod mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Etnotoponim. Turkman toponimi qarluq qabilalari tarkibida tilga olingan. Shu sababli etnotoponim hisoblanadi. Turkmanlar yashayotgan qishloq bo'lganligi sababli shunday nomlangan<sup>47</sup>. Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani Turkman nomli qishloq, Samarqand viloyatining Poyariq, Pastdarg'om va Samarqand tumanlarida Turkmanqishloq nomli qishloqlar bor<sup>48</sup>.

**YUQORI OVUL** – Boyovut tumanidagi Sadridin Ayniy mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Yuqorida joylashgan qishloq ma'nosida keladi.

**DO'NG OVUL** – Boyovut tumanidagi Sadridin Ayniy mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Tepalikda (do'ng) joylashgan qishloq ma'nosida keladi.

**UYAS//UYAZ** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi Boboyurt mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Jizzax viloyatining Baxmal, Zomin tumanlari; Samarqand viloyatining Bulung'ur, Jomboy tumanlarida Uyaz//Uyas nomli qishloqlar bor. B.X.Karmisheva ma'lumotlariga qaraganda, *uyas (uyaz)* – marqa qabilasining 16 urug'laridan biri<sup>49</sup>. Uyaz boshqa urug'lar tarkibiga kirgan. Masalan, uyaz va salin qabilalari ittifoqi *uyas-salin* deb atalgan. Qadimgi turk tilida *uyaz* "pashsha",

<sup>46</sup> O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 374.

<sup>47</sup> Атаниёзов, Топонимика Юго-восточного Туркменистана. 1980. – В. 347

<sup>48</sup> O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr. –Toshkent, 2022. – B. 482.

<sup>49</sup> Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М, 1976.. – С. 96

“chivin”ni anglatgan<sup>50</sup>. X.Doniyorov “Shajara”sida esa mazkur so‘z, o‘zbek urug‘laridan biri deb ko‘rsatilgan<sup>51</sup>. Bizningcha, X.Doniyorov fikri haqiqatga yaqin. Chunki o‘zbek urug‘lari orasida -s,-z bilan tugagan etnonimlar anchagina. Masalan, kenagas, uyas, chilkas, sevas va boshqalar<sup>52</sup>.

**DARVOZAQIR** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi qishloq nomi. Bu tepalik yassi bo‘lib, u “*tepacha*”, “*qircha*” ma’nolarini olgan. Hozir ham xalq bu joylarini “*qircha*” so‘zi bilan ifodalaydi. Qishloq M34 – xalqaro ahamiyatli magistral yo‘li (Guliston – Yangiyer shaharlari) oralig‘ida nisbatan tepalik(qir)da joylashgan. Shu yerda yashovchi mahalliy aholining aytishiga qaraganda, qishloq dastlab tashkil topgan vaqtlarda qishloqqa kiraverishda darvoza o‘rnatilgan. Shu hodisa qishloq nomiga ko‘chgan. Darvozali qir // Darvozaqir nomini olgan.

**QO‘QONQARAPCHI** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi qishloq. Etnotoponim. Qorapchi qabilasining bo‘linmalaridan biri *qo‘qonqarapchi* yoki *qarapchiqo‘qoni* deb ataladi<sup>53</sup>.

**PASHI** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi qishloq nomi bo‘lib, Toshkentning Oq ko‘rpali degan qishlog‘idan besh kishi chorvachilik qilish uchun ko‘chib kelgan va shu bilan tojik tilida “Panji” deb atalgan. Keyinchalik talaffuzda o‘zgarib, “Pashi” deb atalgan<sup>54</sup>.

**NOV** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi qishloq nomi. Nov – tojikcha “*yangi qishloq*” degan ma’noni bildiradi. Bu nom *Novkent*, *Novobod*, *Navqat* ko‘rinishida ham uchraydi. Tojik tili o‘tmishida nova so‘zi *suv*, *nam* ma’nosini ham anglatgan. Fors tilida nova – *ariq*, *kichik anhor*, *kanal*. Tog‘li tumanlardagi aholi nutqida nova – *doimo suv oqib turadigan kichik o‘zan*, *jilg‘a*. Nova – *suv oqimi*, *vaqtincha suv saqlash*, *mollarni sug‘orish uchun yog‘och*, *taxta*, *truba*, *quvur* va *shu kabilarda*

---

<sup>50</sup> Девону луғотит турк, – Т. 1. С. 112; Фозилов Е. Шаркнинг машхур филологлари. – Т., 1971.

<sup>51</sup> Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. 1968.

<sup>52</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. –Toshkent, 2022. – B. 495.

<sup>53</sup> Ko‘rsatilgan asar. – B. 393.

<sup>54</sup> Ko‘rsatilgan asar. – B. 317.

*qilingan oxursimon suv o'zani. Navqat sug'dcha "yangi qishloq" degan ma'noni beradi.*

**ZOMINQISHLOQ** – Sirdaryo viloyatining Boyovut tumani va Toshkent viloyatining Bo'ka tumanidagi qishloq nomi. Qishloq aholisi cho'lni o'zlashtirish uchun Zomin tumanidan ko'chib kelganligi tufayli Zominqishloq deb nomlangan<sup>55</sup>.

**BEKAT** – Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanidagi qishloq nomi. Jizzax viloyatining Forish tumani, Samarqand viloyatining Samarqand tumani, Farg'ona viloyatining Oltiariq tumani shu nomli qishloqlar bor. *Bekat* – “kordon”, “o'rmon xo'jaligi”, “pochta stansiyasi”, “karvon-saroy” ma'nolaridagi ruscha – “beket” (fransuzcha – “piket”) so'zidan kelib chiqqan. Qozoqlarning Alimulla qabilasida beket urug'i bor<sup>56</sup>.

**QARAPCHI** – Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Qarapchi urug'i ba'zi bir ro'yxatlarda 92 bovli o'zbek urug'laridan biri qatorida tilga olingan; qarapchi 16 urug'ga bo'linadi, ba'zan, esa yuz urug'ining katta bir bo'lasi sifatida qayd qilingan. Ba'zi olimlar fikricha, qarapchi so'zi qarovchi nozir, nazorat qiluvchi deganidir, chunki, qarapchilardan biylar, beklar, qo'mondonlar ko'p chiqqan ekan. Qadimiy tilshunos olim Abu Xayyon al-Andalusiy qarapchi so'zi “qashshoq”, “kambag'al” degan ma'noni bildiradi deydi<sup>57</sup>. Qishloq aholi Tojikiston Respublikasi Shahriston tumaniga qarashli Qarapchi qishlog'idan ko'chib kelgan.

**LAYLAKKO'L** – Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanidagi qishloq va mahalla nomi (Do'stlik kanali yoqasida joylashgan). *Laylak* va *ko'l* (“katta ko'l” ma'nosida) so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. *Laylakko'l* – *laylaklar ko'li* ma'nosini anglatadi<sup>58</sup>.

<sup>55</sup> O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 540.

<sup>56</sup> Востров В. В. Родоплеменной состав и расселение казахов на территории Тургайской области. – Труды Института истории, археологии и этнографии АН Казахской ССР. – Алма-Ата, 1962. – С. 87, O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati.. – Toshkent, 2022.

<sup>57</sup> Фозилов Е. Шарқнинг машхур филологлари. – Т., 1971, – Б. 51., Ўзбекистон жой номларининг изохли луғати. – Тошкент, 2022. – Б. 367. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 240 б.

<sup>58</sup> O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr. – Toshkent. 2002. – B. 230.

**SULTONHOVUZ** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi ko‘l, Sirdaryoning eski o‘zanining qoldig‘i nomi. Sirdaryoning chap sohilidagi ko‘l.

**MUQIMIY** – Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanidagi mahalla nomi. Muqum *doimiy, turg‘un* ma‘nolarini anglatadi. O‘zbek shoiri va mutafakkiri – Muhammad Aminxo‘ja Mirzaxo‘ja o‘g‘li Muqimiy (1850–1903) nomi bilan bog‘liq<sup>59</sup>.

**PAXTAKOR** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi mahalla nomi. Paxtakor nomli mahallalar Xorazm viloyati Gurlan, Xonqa va Qo‘shko‘pir tumanlarida uchraydi. Ushbu termin “*paxta yetishtiruvchi, paxta teruvchi*” ma‘nosini ifodalab, mazkur hudud faqatgina paxta yetishtirishga mo‘ljallanganligini bildiradi. Bunday nom respublikamizning ko‘plab hududlarida uchrashi va ko‘p sonli aholi manzillarining nomi ekanligini ta’kidlash lozim.

**OZODLIK** – Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanidagi mahalla. Respublikamizdagi ko‘plab mahallalarga mustaqilligini sharaflash maqsadida qo‘yilgan joy nomi.

**ISTIQLOL** – Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanidagi mahalla nomi. Respublikamizdagi ko‘plab mahallalariga mustaqillikni sharaflash maqsadida qo‘yilgan joy nomi. Mustaqillik yillaridan atalgan mazkur so‘zga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shunday ta’rif beriladi: “*Inson, millat, davlatning boshqalarga tobe bo‘lmay, o‘z erki bilan yashashi, o‘zini o‘zi idora etishi; mustaqillik, erkinlik*”<sup>60</sup>.

**GULBOG‘** – Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanidagi mahalla. Samarqand viloyatining Samarqand tumani, Namangan viloyatining Uychi tumanidagi qishloqlar nomi. *Gulbog‘* – “*istirohat bog‘i, gulzorli bog‘*” ma‘nosini ifodalaydi<sup>61</sup>.

**IFTIXOR** – Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanidagi mahalla. Buxoro viloyati Vobkent tumanida ham shu nomdagi qishloq bor. *Iftixor*

<sup>59</sup> Ko‘rsatilgan asar. – B. 262.

<sup>60</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд, 239 – бет.

<sup>61</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. Toshkent. 2002. – B. 151.

soʻzi arabcha soʻz boʻlib, “*faxrlanish*”, “*maqtanish*” degan maʼnolarni bildiradi<sup>62</sup>.

**UCHTURGON** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi mahalla nomi. Uchturgon nomli qishloq nomidan olingan. Mahalliy aholining aytishicha, XIV – XV asrlarda bu yerdagi balandlik yonbagʻridagi buloq yaqiniga uchta aka-uka kelib joylashgan va shu yerda bir umrga yashab qolib ketishgan. Shundan soʻng esa bu yer Uchturgon (uch aka-uka yashagan) degan nom bilan atalib qolgan. Bu buloqning shifobahshligi aniqlangach, hozirda Hovo togʻ sanatoriyasi tashkil etilgan<sup>63</sup>.

**JOʻLANGAR** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi mahalla nomi. Toʻgʻrisi, Joʻyi Langar boʻlishi kerak. Tojikcha “Joʻy” – “*ariq*”, “*kanal*” demakdir. “Langar” deganda *mozor, qabr*, baʼzan *musofirxona, karvonsaroy*, koʻproq *avliyo qabri* tushunilgan. Joʻlangar – “*avliyo arigʻi*” degan maʼnoni anglatadi. Langar degan kichik bir oʻzbek urugʻi sifatida ham qayd qilingan. Qishloq nomi Jizzax viloyati Yangiobod tumanidagi Joʻlangar qishlogʻidan koʻchib kelgan aholi tomonidan qoʻyilgan<sup>64</sup>.

**ISKANDARQISHLOQ** – Boyovut tumanidagi Joʻlangar mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Markaziy Osiyoda koʻpgina nomlanishlar Iskandar (arablashgan shakli Aleksandr) komponenti bilan bogʻliq. Bu nomlar odatda Aleksandr Makedonskiy nomidan hosil boʻlgan deb hisoblanar edi. Biroq bunday dalillar oʻz tasdigʻini topmagan. Koʻp holatlarda bu nomlar keyingi davrlarda paydo boʻlgan. Masalan, Toshkent viloyatidagi Iskandarariq imperator Aleksandrning nomiga atalib qoʻyilgan. Shuningdek, Zulqarnayn (Zulqarnayn “ikki shoxli”) – Aleksandr Makedonskiyning laqabi toponimi ham mavjud<sup>65</sup>.

**KIYIK TEPA** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi qishloq nomi. Zooykonim<sup>66</sup>.

---

<sup>62</sup> Oʻzbekiston joy nomlarining izohli lugʻati. Birinchi nashr. Toshkent. 2002. – B. 145.

<sup>63</sup> Koʻrsatilgan asar. – B. 490.

<sup>64</sup> Koʻrsatilgan asar. – B.176.

<sup>65</sup> Koʻrsatilgan asar. – B. 150.

<sup>66</sup> Oʻzbekiston joy nomlarining izohli lugʻati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. B. 206.

**SARMICH** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi mahalla nomi. Jizzax viloyati Yangiobod tumanidagi Sarmich qishlog‘idan ko‘chib kelgan aholi nomiga qo‘yilgan.

**PASTKI SARMICH** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi Sarmich mahallasi tarkibidagi qishloq nomi – Sarmich qishlog‘ining quyida joylashgan qismiga nisbatan qo‘yilgan joy nomi. Qishloq Jizzax viloyati Yangiobod tumanidagi Sarmich qishlog‘idan ko‘chib kelganlar yashaganligi sababli shu nom bilan nomlangan. Toponimikada rel`yefga nisbatan qo‘yiladigan joy nomi. Biror ob`ektning ikkinchisiga nisbatan quyida, etakda joylashganligini anglatadi. Viloyatdagi Pastki Chaqir, Pastki Mahalla kabi nomlar shu asnoda vujudga kelgan.

**YUQORI SARMICH** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi Sarmich mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Sarmich qishlog‘ining yuqori qismida joylashgan qismiga nisbatan qo‘yilgan joy nomi. Qishloq Jizzax viloyati Yangiobod tumanidagi Sarmich qishlog‘idan ko‘chib kelganlar yashaganligi sababli shu nom bilan nomlangan. Toponimikada rel`yefga nisbatan qo‘yiladigan joy nomi. Biror ob`ektning ikkinchisiga nisbatan yuqorida joylashganligini anglatadi.

**ALISHER NAVOIY** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi mahallaning nomi. Qishloq g‘azal mulking sultoni mir Alisher Navoiy (1441–1501) nomi bilan atalgan<sup>67</sup>.

**MADANIYAT** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Guliston shahrida Madaniyat nomli mahalla, Sayxunobod tumanida Madaniyat nomli istirohat bog‘i bor. Shuningdek Madaniyat nomli aholi manzilgohlari Xorazm viloyati Bog‘ot, Xonqa va Qo‘shko‘pir tumanlarida ham bor. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagi ma’nolari qayd etiladi: 1. Jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui; 2. Biror ijtimoiy guruh, sinf yoki xalqning ma’lum davrda qo‘lga kiritgan yutuqlari darajasi; 3. O‘qimishlilik, ta’lim-tarbiya ko‘rganlik, ziyolilik, ma’rifat; 4. Madaniyatli shaxs talablariga javob beruvchi sharoit; 5. O‘simlik yoki ekinning turlarini yetkazish, o‘stirish,

---

<sup>67</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. B.17.

yetishtirish<sup>68</sup>. Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi ma’nolarning mujassam bo‘lishini nazarda tutgan holda shunday nom qo‘yilgan bo‘lsa, ajab emas<sup>69</sup>.

**MIRISHKOR** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi mahalla nomi. Qashqadaryo viloyati tarkibidagi tuman, Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. *Mirishkor* so‘zi “o‘z ishining mohir ustasi”, “omilkor” degan ma’noni bildiradi. Shuni ham ta’kidlash joizki, o‘zbek millati tarkibiga kirgan *mirishkor* (*merishkor*) nomli qadimiy qabila ham mavjud. Qabila nomi “ov hokimi, amiri” degan ma’noni anglatadi. Shuningdek, Buxoro viloyatining Qorako‘l tumani; Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumani; Namangan viloyatining Namangan tumani; Surxondaryo viloyatining Sho‘rchi tumanlarida ham shunday nomli qishloq bor. *Mirishkar* so‘zi (forscha *mirishikor*) – “ovchilar boshqaruvchisi” shaklida o‘zbek tiliga *mirishkor* – “mohir, tajribali, bilimli” sifatida kirib kelgan. Ehtimol, ular (mirishkorlar) bir vaqtlar etnik emas, balki ijtimoiy, hatto, ularning ismlariga ko‘ra, etnik ko‘rinishga ega bo‘lgan professional guruhlar bo‘lganlar<sup>70</sup>. Etnolog, tarixshunos B.X.Karmishevaning fikricha, *mir+i+shikor* (f-t) birikmasining soddalashgan shaklidan *mirishkor* etnonimi yuzaga kelgan, ma’nosi – *ov qilish bilan shug‘ullanuvchi, ov begi*<sup>71</sup>. Bu etnonimning *merishkar* tarzidagi talaffuz shakli ham bor. Urug‘, qabila nomlari majmuida fors-tojikcha izofa, qo‘shma so‘z etnonimlar deyarli uchramaydi. O‘zbek xalqi etnonimlarining barchasi o‘zbekcha, turkiy so‘zlardir. Etnonimlar asosidagi so‘z va qo‘shimchalarning turkiy haqiqatidan kelib chiqib, qabila nomini *mirishk/mereshk/merishk/mireshk+ar/er* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan so‘z, deb izohlashga moyillik bor. Etnonimning birinchi qismi qabila uchun totem bo‘lgan hayvon yoki qush nomi, degan faraz ham bor. So‘nggi qismi esa *odam, kishi(lar), er, inson* degan ma’nodagi

---

<sup>68</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати, II жилд, 521-бет.

<sup>69</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 233.

<sup>70</sup> Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М, 1976. – С. 85.

<sup>71</sup> Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М, 1976. – С. 86.



qadimgi turkiy soʻzdir. *Qiyoslang: bulgʻar (bulgʻa+ar), tatar (tat+ar), mojar, ogʻar/oqar, soqar, suvor, jaloyir, uygʻur, chandir, badir* – barchasi umumturkiy etnonimlar. Bu – mulohazatalab fikr. Aholisining etnik tarkibi qishloqning nomlanishi uchun lisoniy va nolisoniy dalil boʻlgan. Oʻtmishda boshqa mansabdorlar kabi mirshikorlarning ham xususiy yerlari, ekin maydonlari boʻlgan. Bu joylarda keyinchalik sekin-asta qishloq va mahallalar tashkil topgan. Darhaqiqat, Mirishkor qishlogʻi shu mansab egasiga qarashli yerlarda bunyod etilgan. Shu bois aholi maskani amal nomi bilan yuritilib kelgan. Aslida Mirshikor tarzida shakllangan toponim nom tarkibidagi “sh” va “i” tovushlarining oʻrin almashishi metateza hodisasi tufayli Mirishkor koʻrinishiga kelib qolgan<sup>72</sup>.

**DOʻSTLIK** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi mahalla nomi. Viloyatning Boyovut, Xovos va Mirzaobod tumanlarida Doʻstlik nomli mahallalar va qishloqlar mavjud. Guliston shahri markazidan Doʻstlik nomidagi kanal oqib oʻtadi. Sirdaryo va Sayxunobod tumanlarida Doʻstlik nomi berilgan qabristonlar mavjud. Jizzax viloyati tarkibida shu nomli shahar va tuman mavjud.

Oʻtgan asrning 60-70-yillarida choʻlni oʻzlashtirish boshlandi. Janubiy Mirzachoʻl kanalidan Sirdaryo viloyati orqali katta miqdorda suv oʻtdi. Bu yerga sobiq ittifoqning turli hududlaridan choʻlni oʻzlashtirish uchun koʻplab mutaxassislar koʻchib kelishdi. Bir qator yangi tumanlar, shaharchalar, qishloqlar qurildi. Yangi aholi maskanlariga yangi nomlar berildi. Millati, tili, eʼtiqodidan qatʼi nazar, barcha mehnatkash xalq bir tan bir jon boʻlib choʻlni obod qilish uchun jonbozlik koʻrsatishdi. Turli millat va elat vakillarining hamkorligi sharafiga koʻpchilik yangi tashkil etilgan qishloq va mahallalarga *Doʻstlik* nomi berilgan.

*Doʻstlik* soʻzi ijtimoiy-ahloqiy va psixologik tushuncha. Oʻzaro hurmat, yoqtirish, manfaatlarning umumiyliги, yaqinlik, bir-birini tushunishga asoslangan kishilar oʻrtasidagi munosabat shaklini

---

<sup>72</sup> Охунов Н. Жўйдам, Миришкор ва Баҳрин // Тил ва адабиёт таълими, 2011, – № 9, – Б. 93. Ўзбекистон жой номларининг изоҳли луғати. Биринчи нашр. – Тошкент, 2022. – Б. 252.

ifodalaydi. Do'stlik millat va xalqlar o'rtasidagi ijobiy aloqalarda ham o'z ifodasini topadi. Hozirgi davrda ko'p millatli mamlakatimizning rivojlanishi uchun xalqlar o'rtasidagi do'stlik nihoyatda muhim. Do'stlik oykonimi haqiqatdan Mirzacho'l va Jizzax cho'lini o'zlashtirishda qatnashgan saksondan ortiq millat va elat vakillarining hamkorligi sharafiga berilgan nomdir. Nom rasmiy-ma'muriy tarzda berilgan, xalqlarning ittifoqligi, birgalikda xo'jalik yuritishi, do'stligi kabi omillar uning paydo bo'lishida ijtimoiy asos vazifasini bajargan. Aslida geografik obyektlarga balandparvoz nomlar qo'yish, chaqiriq yoki shior toponimlarning sonini ko'paytirish, mafkuraviy lof urishning hayotiy siyosat emasligini sho'rolar toponimiyasi ko'rsatdi. Shuning uchun, har qanday joy nomi, jumladan, oykonimlar mustaqillikning muhim ko'rsatkichi, yurt jamoli, xalqning aql-zakovati mahsuli bo'lmog'i kerak<sup>73</sup>.

**BERUNIY** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi mahalla nomi. Qoraqalpog'iston Respublikasi tarkibida shu nomdagi shahar va tuman mavjud. Beruniy Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad (973 –1048) – ulug' o'zbek mutafakkir olimi, o'rta asrning buyuk daholaridan biri. Mutaxassislarning fikricha, uning nasl-nasabida "*berun*" so'zi "*tashqi*", *Beruniy* esa "*shahardan tashqarida yashovchi kishi*" ma'nosini bildiradi. Abu Rayhon Beruniy shu hududda joylashgan qadimiy Kat shahrida tavallud topgan. Geograf, sayyoh, olim va yozuvchi Asror Nizomov "Beruniyning gidrologik merosi" nomli monografiyasida Beruniy taxallusini yangicha talqin qilgan. Unga ko'ra, ko'pchilik olimlar ta'kidlagandek, Abu Rayhon Beruniy shahardan tashqarida emas, balki shaharning o'zida tug'ilgan. Chunki o'rta asrlarda Kat shahrining Raboti Berun degan nomi ham bo'lgan. Nomshunos olim, ayrim tarixiy manbalarda, jumladan, A.Samoniylar asarlarida shahar "Raboti Berun" nomi bilan qayd qilinganligi va o'sha davrda Beruniy tug'ilganligini hisobga olib, Beruniy taxallusining kelib chiqishi sabablarini ilmiy asoslashga harakat qilgan. Amudaryoning o'ng sohilidagi bu shahar qadimda Kat deb atalgan va Xorazmning poytaxti bo'lgan. Qadimgi Kat (Kad) shahrining xarobasi hozirgi Beruniy

<sup>73</sup> O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr. –Toshkent, 2022. – B. 119.

shahridan, taxminan, 2,5 km shimolroqda joylashgan. 1957-yilgacha shahar Shabboz (Shayx Abbos Vali) deb atalgan. 1957-yil shaharga shu yerda tugʻilib oʻsgan olim va mutafakkir Abu Rayhon Beruniy nomi berildi. Beruniy 990-yillarda shaharda astronomik kuzatishlar olib borgan. X asrda fors-tojik tilida bitilgan muallifi nomaʼlum “Hudud ul-olam” nomli geografik asarda “Kat – Xorazmning bosh shahri, savdogarlar oqib keladigan joy, shahar katta boylikka ega, yostiq-choyshablari, qavilgan kiyimlar, ip gazlamalar, kigiz va boshqalar oʻsha yerdan olib kelinadi”, deb yozilgan. Kat oʻrta asrlarda turkiy elatlarning savdo-sotiq markaziga aylangan. Tarixiy manbalarga qaraganda, shahar turli davrlarda turlicha nomlangan. Ular orasida eng mashhuri Kat – xorazmiy tilida “aholi yashash manzili” degan maʼnoni anglatgan. Oʻrta asr arab geografi Yoqut Hamaviyning yozishicha, Kat Jayxun (Amudaryo) ning sharqiy qirgʻogʻida, Jurjoniyan yigirma farsax narida joylashgan. Bozori shahar markazida, Jardurishak soyi boʻyida boʻlgan. Muqaddasiyning maʼlumotlariga koʻra, Kat shahriston deb ham atalgan va kattaligi jihatidan Nishopurga tengdir. A. Samoniy esa oʻzining “Kitob ul-ansob” asarida Kat raboti “Berun” deb atalganini qayd etgan. Beruniy Afrigʻiylar sulolasining asoschisi Afrigʻ shahar ichida 3 qavat devor bilan oʻralgan qasr qurdirganligi, uning devorlari nihoyatda baland boʻlib, taxminan, 20 km uzoqlikdan ham koʻrinib turganligi haqida maʼlumot yozib qoldirgan. X asrda Kat Xorazm davlatining poytaxti boʻlgan. Keyinchalik Amudaryo shaharni yuvib keta boshlagach, aholi uning sharq tomoniga koʻchib oʻtib, yangi Kat shahrini qurgan. X asr oxirlariga kelib eski shahar, asosan, yuvilib ketib, poytaxt Gurganj (hozirgi Koʻhna Urganch) ga koʻchirilgan. 995 yil Gurganj hokimi Abulabbos Maʼmun ibn Muhammad dastlabki Xorazmshohlar sulolasini tor-mor keltirgach, Kat shahri oʻzining siyosiy ahamiyatini yoʻqotgan. Arab sayyohi Ibn Battuta Katni Xorazm (yaʼni, Gurganj) bilan Buxoro oʻrtasidagi aholi yashaydigan yagona shahar ekanligini eslatib oʻtgan. XIV asrda shahar Xiva bilan birga Chigʻatoy ulusi tarkibiga kirgan. 1372 yili shaharni Amir Temur egallagan. XVIII asrda yangi Katni suv bilan taʼminlab turgan yop (yob)ni Amudaryo yuvib ketadi va Xiva xoni Anushaxon daryoning chap qirgʻogʻida Toza

Yormish yopni qazdirib, uning bo‘yida bir qal’a qurdirgan (1681), so‘ng eski shahar aholisi o‘sha yerga ko‘chib o‘tgan. XIX asr boshida bu joyni ham Amudaryo yuvib ketgan, shahar aholisi daryoning o‘ng sohilidagi Shayx Abbos Vali mozori tevaragiga kelib joylashgan. Shundan e’tiboran aholi punkti Shobboz deb atala boshlagan. 1957 yili Shobboz shaharchasiga Beruniy nomi berilgan<sup>74</sup>.

**OLMAZOR** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Shuningdek, Oqoltin tumanida qishloq, Toshkent viloyati Chinoz tumanida shu nomdagi shahar tipidagi aholi punkti mavjud. Olma va *-zor* – joy nomini ifodalovchi affiksdan tashkil topgan. Olmaliq va Olmazor toponimlari farqlanadi. Birinchidan, *-lik (-li)* affiksining kelib chiqishi turkcha, *-zor* qo‘shimchasiniki esa fors-tojikchadir; ikkinchidan, *-lik (-li)* affiksi shunga ishora qiladiki, mazkur nom bilan yovvoyi olma o‘sadigan joy nomlanishi nazarda tutiladi, *-zor* affiksi bilan esa olma bog‘lari hosil qilingan hududlar nomlanadi<sup>75</sup>.

**OLMALI** – Boyovut tumanidagi Iftixor mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. *-li* affiksining kelib chiqishi turkcha, mazkur nom bilan yovvoyi olma o‘sadigan joy nomlanishi nazarda tutiladi, Olmachi, X.Doniyorov fikriga ko‘ra, etnonimdir<sup>76</sup>.

**SHIRIN** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi mahalla nomi. Shirin nomli mahalla Xorazm viloyati Xonqa tumanida ham bor. Mazkur so‘zning "O‘zbek tilining izohli lug‘ati"da bir qancha ma’nolari beriladi: “*a) shirasi o‘tkir, shirali; b) ta’mi yoqimli, mazali, lazzatli; d) kishi huzur qiladigan, orom oladigan, lazzatlanadigan, xush yoqadigan, yoqimli, yoqimtoy; e) ahil totuv*” Shirin – xotin-qizlar ismi<sup>77</sup>. “Farhod va Shirin” dostonidagi Shirin obraziga nisbatan qo‘yilgan joy nomi. Boshqa ilmiy manbalarda mazkur Shirin termini etnonim sifatida ham qayd etilib, turkiy xalqlar tarkibida uchrovchi qadimiy komponentlardan biri ekanligi ta’kidlanadi. Shirin nomi etnonim sifatida keyingi asrlarda unutilgan. Ammo geografik nom shaklida turkiy xalqlar yashayotgan hududlarda keng uchrashi bu nom arealining katta ekanligini ko‘rsatadi.

<sup>74</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr.– Toshkent, 2022. – B. 59.

<sup>75</sup> Ko‘rsatilgan asar – B. 288.

<sup>76</sup> Дониёров Х. Ўзбек шажара ва шевалари. 80-бет.

<sup>77</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати, IV жилд, – Б. 579.

Demak, geografik nomga asos boʻlgan *shirin* soʻzi “*totli*”, “*shirali*”, “*mazali*” kabi maʼnolarni anglatadi. Shu bilan birgalikda, oʻzbek xalqi tarkibida *shirin* deb ataluvchi urugʻ nomi, etnonim mavjudligi aniqlangan. Demak, *Shirin* – “*shirin urugʻi vakillari yashaydigan joy*” degan maʼnoni anglatadi. Shuningdek, *shirin* soʻzi yordamida hosil qilingan toponimlar mamlakatimizning koʻplab hududlarida uchraydi. Masalan, *Shirinlar* – Xorazm viloyati Gurlan tumani; *Shirintepa* – Samarqand viloyati Narpay tumani; *Katta Shirin va Kichik Shirin* – Samarqand viloyati Ishtixon tumani; *Sari Shirin* – Qoraqalpogʻiston Respublikasi Xoʻjayli tumani; *Shirinqoʻngʻirot* – Xorazm viloyati Yangibozor tumani. *Shirin* – oʻzbek qabilasi. Respublikamizning bir qator hududlarida, jumladan, Narpay (*Shirin Xotin*), Kattaqoʻrgʻon (*Shirin*), Xatirchi (*Shirin Bahrin, Shirin ovul*), Vobkent (*Shirin*), Yangiyoʻl (*Kattashirin, Kichikshirin*) tumanlarida *shirin* leksemasi bilan bogʻliq nomlar uchraydi. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasining Xakasiya avtonom oblastida *Shirin* nomli tuman ham mavjud. *Shirin* qabilasi turkiy xalqlar etnogenezida ishtirok etgan komponent sifatida tez-tez tilga olinadi. Jumladan, Qrim xonligida mamlakat siyosiy hayotida yetakchi rol oʻynagan yuqori tabaqa vakillari orasida *Barin, Argin, Sejeut, Mangit, Yashlov* qabilalari sardorlari qatori *Shirin* qabilasi vakillari ham faol ishtirok etgan. Oʻzbek toponimiyasida *shirin* nomi yozma manbalardan oʻrta asr vaqf hujjatlarida uchraydi. Sayfiddin Boxarziyning nevarasi shayx Yahyoning vaqfnomasida (1326) *Shirin* kanali va qishlogʻi nomlari tilga olinadi<sup>78</sup>.

**KOREYSLAR** – Sirdaryo viloyati Boyovut va Guliston tumanlardagi mahalla nomi. Sirdaryo tumanidagi qabriston nomi. 1930 yillarda respublikaga koʻchib kelgan koreyslar juda koʻpchilikni tashkil qilgan. 1960 - 1970 yillarda Mirzachoʻlni oʻzlashtirishda koreys millatiga mansub aholi ham faol ishtirok etgan. Shu joylarda koreyslar yashaganligi uchun ham mahalla va qabristonlar shunday nomlangan<sup>79</sup>.

**TARAQQIYOT** – Sirdaryo viloyati Boyovut, Guliston, Sirdaryo tumanlari va Guliston shahridagi mahalla nomi. “Taraqkiyot” arab

<sup>78</sup> Oʻzbekiston joy nomlarining izohli lugʻati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 571.

<sup>79</sup> Oʻzbekiston joy nomlarining izohli lugʻati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B.210.

tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “yuksalish, olg‘a harakatlanish, rivojlanish, o‘shish” ma’nolarini ifodalaydi hamda u mustaqillik yillarida atalgan toponim hisoblanadi. U o‘zbek tilining izohli lug‘atida shunday izohlanadi: “Rivojlanishning oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga yo‘nalgan shakli, uning yuksalishi”<sup>80</sup>.

**OZODLIK** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi mahalla nomi. Respublikamiz mustaqilligini sharaflash maqsadida qo‘yilgan joy nomi.

**MA’NAVIYAT** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumani va Guliston shahridagi mahalla nomi. Ma’naviyat “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izohlanadi: “*Insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy va shu kabi tasavvurlari va tushunchalari majmuyi*”<sup>81</sup>.

**TURKISTON** – Sirdaryo viloyati Boyovut, Guliston, Xovos tumanlaridagi qishloq, Sirdaryo tumanidagi mahalla nomi. “Tarixi Rashidiy” asarida Turkiston o‘lka nomi tarzida (Movarounnahr va Turkiston shaklida) keladi. Turkiston o‘lkasi nomiga bog‘liq holda qo‘yilgan nomlar.

**TOJIK OVUL** – Boyovut tumanidagi Sadridin Ayniy mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Tojik nomi bilan yuritiluvchi qishloq Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumani, Farg‘ona viloyatining Qo‘sh tepa, Toshloq tumanlarida, Tojikqishloq – Farg‘ona viloyatining Qo‘sh tepa, Quva tumanlari; Jizzax viloyatining Baxmal tumani; Tojikkent – Buxoro viloyatining Qorako‘l tumani, Tojiklar – Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani, Tojikmahalla – Toshkent viloyatining Toshkent tumanlarida mavjud.

Boshqa xalqlar bilan, xususan, o‘zbeklar bilan yashaydigan hududlarda tojik etnonimini o‘z ichiga olgan boshqa nomlardagi joylar mavjud (shu bilan birga, o‘zbek etnonimi va boshqalar). Boshqa xalqlar, jumladan, o‘zbeklar bilan tojiklar qo‘shni yashaydigan hududlarda shunday qishloqlar uchraydi<sup>82</sup>.

**USMONOBOD** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi mahalla va qishloq nomi. Mashhur davlat arbobi Usmon Yusupov (1900-1966)

---

<sup>80</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати, III жилд, 677-бет.

<sup>81</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати, II жилд, 564-бет.

<sup>82</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. B. 471.

nomiga qo'yilgan. Usmon Yusupov shu tumandagi "Boyovut" xo'jaligida bir necha yil rahbar bo'lib ishlagan.

**YANGIBO'STON** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi mahalla nomi. "Yashnagan "bog'", "Bog'-rog'" ma'nosidagi *bo'ston* (asli *buyiston*) – "xidlar o'lkasi" so'zidan olingan.

**NAVBAHOR** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi mahalla nomi. Navbahor – viloyatda keng tarqalgan joy nomlaridan biri. Aksariyat hollarda bu nom o'zbek tilidagi erta bahor, ilk bahor, bahorning boshlanishi ma'nosida ishlatilgan. Shamsiy yil hisobida yangi yilning birinchi kuni navro'z deb ataladi. Ramziy ma'noda yangi kunning, yangi davrning boshlanishi ma'nosida ham shunday atalgan joy nomlari mavjud<sup>83</sup>.

**XALQOBOD** – Boyovut tumanidagi Navbahor mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Buxoro viloyati Vobkent tumani, Xorazm viloyati Yangibozor tumanida Xalqobod nomidagi qishloqlar bor. Nom *xalq* va *obod* so'zlaridan iborat. Toponimning birinchi komponenti – *xalq* so'zi biror mamlakat yoki davlat aholisini, millat yoki elatni anglatadi. Uning ikkinchi komponenti – *obod* so'zi ba'zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo'shib joy nomini yasaydigan, "*obodonlashtirilgan*", "*o'zlashtirilgan*", "*gullab-yashnagan*" ma'nosidagi so'z, affiks. Demak, Xalqobod – "*biror hudud aholisi, millat yoki elat tomonidan o'zlashtirilgan, obodonlashtirilgan joy*" ma'nosini anglatadi<sup>84</sup>.

**CHASHMA** – Boyovut tumanidagi Navbahor mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Mahalliy aholining ma'lum qilishicha o'tmishda bu yerda chashma (bo'loq) bo'lgan va aholi undan foydalanganligi sababli bu joy shu nom bilan atalgan.

**BO'Z QISHLOQ** – Boyovut tumanidagi Anorzor mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. H. Hasanovning yozishicha, *bo'z* so'zining *yangi* degan ma'nosi bor, *bo'z yer* – *yangi yer*, *bo'z bola* – *yosh yigit* va boshqalar. Shu sababdan *bo'z qishloq* deganda, *yangi qishloq* deb tushunish mumkin. *Bo'z* so'zini *loyqa*, *sarg'ish* degan ma'nosi ham bor. *Bo'z suv* – *loyqa suv*, *sarg'ish rangdagi suv*.

<sup>83</sup> O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. B.271.

<sup>84</sup> O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. B. 508.

Qadimda qo‘l dastgohlarida bo‘sh pishitilgan paxta ipidan sodda to‘qilgan mato ham *bo‘z (karbos)* deyilgan. Yozma manbalarda boshqa matolar qatori bo‘z ham ko‘p tilga olingan. Bo‘z Turkistonda qo‘lda to‘qilgan matolar orasida xaridorbop mato bo‘lgani uchun mahalliy aholi orasida keng tarqalgan. Chunonchi, Buxoroda bo‘z sotiladigan “Bozori karbos” nomli maxsus joy bo‘lgan. *Bo‘zchilar* (bo‘z to‘qish kasbini egallagan) – bo‘zdan turli xil kiyimlar, kashta tikilgan buyumlar, gul bosib bezatilgan dasturxon, choyshablar tayyorlagan.

Bo‘z so‘zining yana bir ma‘nosi – *o‘zlashtirilmagan, uzoq yillar ishlov berilmagan qo‘riq yer, dasht, cho‘l*. Bo‘z yer, asosan, sug‘orish imkoni bo‘lmaganligi tufayli saqlanib qolgan va ular ekin maydonlarini kengaytirishning asosiy zaxirasi hisoblanadi. O‘zbekistonda bo‘z tuproq turi dengiz sathidan balandligi 300 metrdan 1000 metrgacha bo‘lgan yerlarda tarqalgan va qishloq xo‘jaligida keng foydalaniladi. Ayrim mutaxassislar, “*baz*” yoki “*bo‘z*” so‘zini qadimiy turkiy tilda “*o‘zga yerlik kishi*”, “*begona kishi*” degan ma‘nolari ham bo‘lgan deyishadi<sup>85</sup>.

**MINGTERAK** – Boyovut tumanidagi Navbahor mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Mingterak O‘zbekiston hududidagi terakzorlar bor joy nomi. *Ming* va *terak* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Demak, Mingterak – “*sanoqsiz, ko‘ptarak*” ma‘nolarini ifodalaydi.

**JARBOSHI** – Boyovut tumanidagi Muqimiy mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Mahalliy aholining aytishicha shu yerda Buxoro amirining rus qo‘shinlari bilan jangi bo‘lib o‘tgan Yerjar iste‘hkomi ham shu yerda bo‘lgan. *Jar* – “jarlik”, bu “*jarlikdagi qishloq*” ma‘nosini anglatadi. *Jar* asli geografik termin bo‘lib, tog‘ etagi, qiyalarida, zamini yumshoq tekisliklarda ko‘plab uchraydigan, oqar suvlar yerni yuvib ketishi natijasida hosil bo‘lgan chuqurliklardir. *Jar*, umuman, “*chuqurlik, pastlik*” ma‘nosini ham ifodalaydi. “*Jar*” so‘zi qo‘shilishidan *Anorjar, Jamanjar, Jarariq, Jarboshi, Jarqo‘rg‘on, Oqjar* kabi qishloq nomlari vujudga kelgan. Shuningdek, Samarqand viloyati Pastdarg‘om va Urgut tumanlari; Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani; Surxondaryo viloyati Sho‘rchi, Soriosiy tumanlarida ham mazkur nom bilan atalgan

---

<sup>85</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. B. 91.



toponimlar mavjud bo‘lib, u “*jarlikdagi qishloq*” (aynan, “*qishloq – jarlik*”) ma’nosida ekanligi qayd etiladi<sup>86</sup>.

**TABIR** – Boyovut tumanidagi Ozodlik mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Mahalliy aholining xabar berishicha, bu qishloq Mirzacho‘lni o‘zlashtirish davrida turli o‘zbek urug‘lari kelib o‘rnashgan ovullardan biri bo‘lgan. Tobar so‘zi forschada – “birga ko‘chib yuradigan lo‘lilar to‘dasi va ularning qo‘ngan joyi” degani. Bu yerda cho‘lni o‘zlashtirish uchun ko‘chib kelgan “cho‘lquvarlar” maskan tutgan joy ma’nosida bo‘lsa kerak<sup>87</sup>.

**YER MASJID** – Boyovut tumanidagi Muqimiy mahallasi tarkibidagi qabriston nomi. O‘tmishda Sirdaryo yerlarida yer osti suvlari ancha pastda joylashganligi sababli odamlar yerto‘lalarda yashashlari mumkin bo‘lgan. Mahalliy aholining aytishicha, hududga ilk kelgan odamlar yerto‘la qazib, undan masjid sifatida foydalanishgan. Machit (arabcha *masjid*) – 1) *musulmonlar ibodatxonasi*; 2) *kichik qishloq*;

**NORIN** – Boyovut tumanidagi Yangiobod mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Namangan viloyati tarkibidagi shahar va tuman nomi. Norin – Qirg‘iziston va O‘zbekistondagi daryo nomi. Norin nomi dastlab gidronim sifatida paydo bo‘lgan, keyinchalik shahar, tuman va boshqa aholi punktlari ham shu nom bilan atalgan. Norin so‘zi mutaxassislar tomonidan turlicha talqin qilingan. Masalan, H.Hasanovning yozishicha, norin so‘zi mo‘g‘ul tilida “*tor, ingichka*” ma’nolarini anglatadi. Hozirgi mo‘g‘ul tilida nariyn – “*ingichka, nozik, tor, tang*” kabi ma’nolarga ega. Norin so‘zining ma’nosi unutilib, nutqdan chiqib ketgach, atoqli otga aylangan. Nom ma’nosidan ma’lumki, daryo o‘zanining qaysi bir qismi tor, siqiq bo‘lib, suvi tez oqqan bo‘lsa, dastlab o‘sha qismi shu nom bilan atalgan. Keyinchalik nomning areali kengayib, butun daryo shu nom bilan yuritilgan. Boshqacha aytganda, *Norinni tang, siqiq daryo*, deb izohlasa bo‘ladi. Qirg‘iz olimlari B.Yunusaliyev va S.Qudaybergenovlar ham norin so‘zining “*tor, kambar*” ma’nolari borligini qayd qilishgan. S.Qorayev

---

<sup>86</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 162.

<sup>87</sup> Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 240 б.

norin soʻzini etnonim hisoblab, oʻzbeklarning laqay, yuz qabilalari, shuningdek, Fargʻona qipchoqlari tarkibida norin urugʻi borligini taʼkidlagan. E.M.Murzayev esa norin – “*serquyosh, oʻftobroʻy*” degan maʼnoni anglatadi deydi. Oʻzbek milliy taomlari orasida xoʻranda sevib isteʼmol qiladigan norin taomi ham bor. Norin eng qadimiy taomlardan hisoblanib, oʻtmishda chorvador qabilalar oʻrtasida keng tarqalgan<sup>88</sup>.

## GULISTON TUMANI

**DEHQONOBOD** – Sirdaryo viloyati Guliston tumani maʼmuriy markazi, shaharcha. Dehqonobodda dastlab 1886 yili Rossiyaning Poltava, Tver guberniyalaridan podsho hukumati tomonidan koʻchirib keltirilgan rossiyaliklar yashagan. 1887-yildan boshlab aholi punkti Romanovskiy (1887) (Rossiyada hukmronlik qilgan Romanovlar oilasi sharafiga) deb atalgan. Hududda shoʻrolar hokimiyati oʻrnatilganidan soʻng, 1923-yili shaharchaga Krestyansk nomi berilgan. Bu nom 1992-yilgacha amalda boʻlgan va oʻsha yili shaharcha nomi rasmiy-maʼmuriy tarzda Dehqonobod deb oʻzgartirilgan. Guliston tumanida Dehqonobod shaharchasi, Beshbuloq, Zarbdor, Koʻnchi, Oltintepa, Oltin Oʻrda, Soibobod, Sohilobod, Chortoq, Humo nomli mahallalar bor. Boyovut, Mirzaobod tumanlarida Dehqonobod nomi bilan ataluvchi qishloqlar, Mirzaobod va Sirdaryo tumanlarida mahallalar mavjud. Qashqadaryo viloyati tarkibida shu nomdagi tuman mavjud.

Nom ikki tarkibiy qismdan: *dehqon* va *obod* soʻzlaridan iborat. Dehqon – agrar sohada faoliyat koʻrsatadi, yerga egalik qiladi va unda xoʻjalik faoliyatini yuritadi. Dehqonning paydo boʻlishi ibtidoiy jamoat tuzumining parchalanishi jarayonida ixtisoslashuv yuz berib, dehqonchilikning paydo boʻlishi bilan bogʻliq.

Markaziy Osiyoda dastlab jamoadan ajralib chiqqan katta yer egalari, baʼzan qishloq oqsoqollari “dehqon” deyilgan. Ular oʻzlarining devor bilan oʻralgan mustahkam qoʻrgʻonlariga ega boʻlganlar. Oʻrta asrlarga kelib dehqonlar qishloq xoʻjaligi iqtisodiyotining asosiy tayanchiga aylandi. Z. Doʻsimovning yozishicha, XI – XII asrlardan

---

<sup>88</sup> Oʻzbekiston joy nomlarining izohli lugʻati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 276.

keyin ekin ekuvchi aholining barchasini dehqon deb ataganlar. So‘nggi davrlarda Xiva xonligida katta yer egalari yollanib ishlovchi mardikorni dehqon deyishgan.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda dehqon davlatdan yerni uzoq muddatga (10–50 yil) ijaraga olgan yirik fermer xo‘jaligi sohibi. Dehqonlar o‘zlashtirib, yangidan tashkil qilingan obod maskan – Dehqonobod. *Obod* – ba‘zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo‘shilib joy nomini yasaydigan, “obodonlashtirilgan”, “o‘zlashtirilgan”, gullab-yashnagan, go‘zal ma‘nosidagi so‘z. *Obod* – *asli ob* – “*suv*” so‘zidan kelib chiqqan, degan fikr ham bor<sup>89</sup>.

Ta’kidlash joizki, geografik obyektlarga nom berishda quyidagi shartlarga rioya qilishni zarur deb hisoblaymiz: birinchidan, nomning ma‘nosi aniq, tuzilishi sodda, qulay bo‘lishi lozim. Ikkinchidan, qo‘yiladigan nom tilning grammatik qoidalariga mos kelishi zarur. Nom birgina geografik termin yoki ijtimoiy-siyosiy istilohlardan, birgina o‘simlik yoki hayvon nomlaridan iborat bo‘lmasligi kerak. Uchinchidan, bir xildagi nomlar ko‘payib ketmasligi lozim, chunki bir viloyat, shahar yoki tumanning o‘zida bir xil yoziladigan nom ikkita bo‘lsa, chalkashlik tug‘iladi. Tarixiy toponimlarni o‘zgartirmaslik kerak, ular lisoniy, tarixiy, siyosiy va ilmiy ahamiyatga ega. Xalq o‘tmishidan darak beruvchi bunday nomlarni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish shart.

**PAROM//PAROMOVUL** – Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi qishloq. Nom paromdan o‘tishni eslatadi. Bu qishloq Sirdaryo qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan bo‘lib, daryodan kechib o‘tish uchun parom shu qishloqqa nom tariqasida qo‘yilgan. Qishloq shuning uchun ham *Paromovul* deb yuritilgan<sup>90</sup>.

**TO‘QAYOVUL** – qishloq. Sirdaryo viloyati Guliston tumani. Manzilgoh avvalgi qamishzorlar o‘rnida paydo bo‘lgan (to‘qay – chakalakzor).

**UYUVLI / O‘YUVLI** – Sirdaryo viloyati Guliston tumani Inoqlik mahallasi hududidagi qishloq nomi. O‘yuvli qishlog‘i etnonim hisoblanadi. Qarapchi qabilasining bir urug‘i uyuvli deb atalgan. *O‘yuvli*

<sup>89</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 105.

<sup>90</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 313.

– o‘zbeklarning do‘rmon, qo‘ng‘irot qabilalari tarkibida *o‘yuvli* urug‘i bo‘lgan<sup>91</sup>. *O‘y* – chuqur, past joy ma’nolarini beradi. *Uy* so‘zi uyg‘ur, uyrat, uychi, o‘ymovut kabi o‘zbek etnonimlari tarkibida ham uchraydi. *Uy*, o‘y so‘zli qabila, urug‘ nomlari boshqa turkiy xalqlarda ham bo‘lishi tabiiy. Qozoq tilshunosi T.Jonuzoqov turkiy tillarning oltoy davri o‘tmishida *uy-o‘y* so‘zi bo‘lgan, o‘rmon, daraxtzor ma’nosini anglatgan degan qiyosiy-tarixiy mulohaza asos bayon qilgan<sup>92</sup>.

**JUVONSIYROQ** – Sirdaryo viloyatining Guliston tumanidagi qishloq nomi. Juvonsiyroq – etnonim bo‘lib, aynan “pochasi yo‘g‘on” degan ma’noni bildiradi. Qishloq shu nom bilan atalgan.

**O‘ZBEKISTON** – Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi qishloq nomi. *O‘zbek* va *-iston* affiksining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. O‘zbek – etnonim, O‘zbekiston xalqi, millatining nomi.

**BAXMAL** – Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Bu nom mahalla xalqini asosiy qismini Jizzax viloyati Baxmal tumanidan ko‘chib kelganlar tashkil qilganligi sababli qo‘yilgan. Shuningdek, Sirdaryo tumanida ham shu nom bilan atalgan mahallalar bor.

Nomshunos olimlar tomonidan Baxmal nomining etimologiyasi haqida aniq bir fikr bayon qilinmagan. Ko‘pchilik mutaxassislar gazlama hisoblangan baxmalga bu so‘zning hech qanday aloqasi yo‘qligini ta’kidlashgan. Janubiy O‘zbekiston toponimiyasini o‘rgangan olim To‘ra Nafasov baxmal so‘ziga ta’rif berib, qovchirlarning bir urug‘i boqmon (baqman), baxmal uning talaffuzda o‘zgargan shaklidir, degan xulosani bayon qilgan. Bozorboy O‘rinboyev ham yuqoridagi fikrni tasdiqlagan. Ammo, qaysi til qonuniyatlari asosida baqman so‘zi baxmal shakliga o‘zgarganligi sabablari ochib berilmagan. Joy nomining etimologiyasi haqidagi yuqorida keltirilgan izohni ishonarli deb bo‘lmaydi. Chunki hozirgi Baxmal tumani hududida o‘tmishda baqman, boqmon yoki baxmal nomi bilan etnik guruh yoki qishloq qayd qilinmagan. Mavjud dalillarga asoslanib aytish mumkinki, bu nom xuddi

---

<sup>91</sup> Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 240 б.

<sup>92</sup> Қораев С. Топонимика. – Т., 2006. – Б. 147.

Forish, G‘allaorol nomlari kabi sobiq sho‘rolar davrida paydo bo‘lgan yasama (soxta) nomlar sirasiga kiradi. Sangzor vohasi tarixini o‘rgangan arxeolog olim M.Pardayevning yozishicha, tarixiy manbalarda Jizzax viloyati Baxmal tumani o‘rni “yoryayloq” nomi bilan qayd qilingan. Balki vohaning aynan go‘zal, yam-yashil va chiroyli tabiati uni shu nom bilan atalishiga sabab bo‘lgandir. Mutaxassislar tomonidan tuman nomiga asos bo‘lgan baxmal so‘zining kelib chiqishi va etimologiyasi sinchiklab o‘rganilishi maqsadga muvofiq<sup>93</sup>.

**NAVOIY** – Sirdaryo viloyati Boyovut, Guliston va Xovos tumanlaridagi qishloq, Guliston va Sirdaryo tumanlaridagi mahalla nomi. Buyuk o‘zbek shoiri, atoqli arbob Alisher Navoiy nomi bilan atalgan joy (1441–1501).

**MEVAZOR** – Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi mahalla nomi. Xorazm viloyati Gurlan tumanida shu nomdagi mahalla nomi bor. Mevazor nomi mustaqillik yillarida qo‘yilgan nom bo‘lib, mazkur termin “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *mevali daraxtlar bilan band joy, mevali bog‘* ma’nolarini ifodalashi qayd etilgan. Bunday nom respublikamizning ko‘plab hududlarida uchrashini ta’kidlash lozim<sup>94</sup>.

**OLTIN VODIY** – Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi mahalla nomi. Nom tarkibi *oltin* va *vodiy* so‘zlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – *oltin* so‘zi *sariq-qizg‘ish tusli qimmatbaho nodir metalni, zar, tillani* bildiradi. Apelyativning ikkinchi komponenti – *vodiy* termini, yerning unumdorligiga ishora qilib “*yashnagan yer*”, “*boy yer*”, “*vodiy*”, “*suv oqadigan pastlik*” degan ma’nolarni beradi. Mamlakatimizning bir qancha hududlarida oltin vodiy nomli joy nomlari uchraydi.

**TERAKZOR** – Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi mahalla nomi. *Terakzor* – qator teraklar ekilgan maydon ma’nosini anglatadi.

**FURQAT** – Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi mahalla nomi. O‘zbek taraqqiyparvar shoiri, mutafakkir, publitsist Zokirjon Mullo Xolmuhammad o‘g‘li Furqat nomiga berilgan. Barkamol lirikasi, jozibali nasri va publitsistikasi bilan XIX asr oxiri va XX asr

<sup>93</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 52.

<sup>94</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B.246.

boshlaridagi milliy adabiyotimiz rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Furqat ona vatanidan uzoqda vafot etdi. Uning jasadi Yorkentning Dongdor qabristonida ko‘milgan. 1990 yili shoir qabri ustida maqbara qurilgan. Shoir hayoti va ijodi haqida qator ilmiy asarlar yozildi, dissertatsiyalar yoqlandi, opera librettosi, kinossenariy va boshqalar yaratildi. Furqat she‘rlari kitob holida dastlab 1913-yili bayoz holida toshbosmada bosilgan edi. O‘tgan asrning 1950 – 1980-yillari oralig‘ida shoir asarlari ko‘p bor nashr etildi. O‘zbekistondagi bir qator qishloq, tuman, maktab, ko‘cha va hiyobonlar o‘zbek taraqqiyparvar shoiri Furqat nomi bilan ataladi.<sup>95</sup>

**MUSTAQILLIK** – Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi qishloq va mahalla nomlaridan biri. Shuningdek, Guliston, Sayxunobod, Oqoltin va Xovos tumanlarida Mustaqillik nomi bilan nomlanuvchi mahallalar mavjud. O‘zbekiston mustaqilligi e‘lon qilingan davrdan boshlab, mamlakat mustaqilligining sha‘niga atab qo‘yilgan nom<sup>96</sup>.

**BIRLASHGAN** – Sirdaryo viloyati Guliston va Mirzaobod tumanlarida mahalla nomi, Sardoba va Guliston tumanlarida ham shu nomdagi qishloq va mahallalar bor. Ushbu termin “*birlashmoq*” so‘zining sifatdoshi asosida nomlangan bo‘lib, u “*o‘zaro jipslashgan, o‘zaro kelishilgan*” ma‘nolarini ifodalab, mazkur hududning aholi vakillari birlashsin, deya shunday atalgan.

**TURK OVUL** – Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi Birlashgan mahallasi hududidagi qishloq nomi. O‘zbekiston hududida XVI asrgacha yashagan qarluq, barlos, kaltatoy, musobozori, mo‘g‘ul qabilalari turk deb atalgan, bulardan tashqari, turk degan alohida qabila ham bo‘lgan. Respublikadagi *Turkiston, Turklar, Turkravosh, Turkqishloq* deb ataladigan qishloqlar nomida ham turk so‘zi toponimining asosini tashkil etadi<sup>97</sup>.

**IBRAT** – Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi mahalla nomi. Viloyatda bir necha marta takrorlanadigan joy nomlaridan biri. Arabchada Ibrat – *namuna, o‘rnak* degan ma‘noni bildiradi. Ikrom –

---

<sup>95</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 128.

<sup>96</sup> Ko‘rsatikgan adabiyot. – B. 263.

<sup>97</sup> Ko‘rsatikgan adabiyot. – B. 481.

*izzatli, hurmatli, Islom – bo‘ysungan, itoatkor, islomni qabul qilgan, Iftixor – faxr, g‘urur, shon-shavkat, Yo‘ldosh – yosh, hamroh, do‘st* deb izohlanadigan kishilar ismidan ham viloyatda joy nomlari vujudga kelgan<sup>98</sup>.

**ISHONCH** – Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi qishloq, Sirdaryo va Guliston tumanlaridagi mahallalar nomi. Ushbu so‘zning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ikkita ma’nosi qayd etiladi: a) ishonish hissi, tuyg‘usi; b) e’timod etilgan, suyanilgan, umid bog‘langan shaxs yoki narsa tushunchalarini ifodalab, har ikkala ma’nosini ham nazarda tutgan holda qo‘yilgan nom<sup>99</sup>.

**KO‘NCHI** – Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi qishloq va yirik bozor. Guliston tumanidagi “Uch qahramon” xo‘jaligi hududida joylashgan qishloq nomi. Chor Rossiyasi imperiyasi bosqinidan so‘ng ko‘chirib keltirilgan ruslar tomonidan “Konnogvardeyskiy” (1897) nomi bilan barpo qilingan qishlog‘ining xalq orasida tarqalgan nomi.

**BESHBULOQ** – Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi qishloq nomi. Mahalla xalqini asosiy qismini Jizzax viloyati Zomin tumanidagi Beshbuloq qishlog‘idan ko‘chib kelganlar tashkil qilganligi sababli qo‘yilgan. Mo‘g‘ul va turkiy tillar uchun umumiy, mushtarak bo‘lgan terminlardan biri buloq, u yer osti suvlarining tabiiy holda yer yuzasiga sizib chiqqan joyga aytiladi. *Buloq* so‘zining areali ancha keng va toponimik termin sifatida barcha turkiy tilli hududlarda qo‘llaniladi. Buloq so‘zi “*oqmoq*”, “*aralash-tirmoq*” ma’nosidagi *bula* fe’lidan kelib chiqqan, degan xulosa mavjud. Demak, *Beshbuloq* – “*besbuloqdan iborat joy, buloqlari ko‘p joy*” degan ma’noni anglatadi. Rossiya imperiyasi bosqini davrida ko‘chirib keltirilgan rus aholisi tomonidan barpo qilingan “Nadejdinskiy” (1886) qishlog‘i o‘rnida joylashgan.

**SOYIBOBOD** – Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi qishloq nomi. Ushbu termin *Sohib obod* arabcha+forscha so‘zlaridan iborat bo‘lib, *ishbilarmon, ish beruvchi, yollovchilar, o‘z ishining ustasi, omilkor* ma’nolarini ifodalaydi. Rossiya imperiyasi bosqini davrida

---

<sup>98</sup> Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 240 б.

<sup>99</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 153.

ko‘chirib keltirilgan rus aholisi tomonidan barpo qilingan “Krivosheino” (1886) qishlog‘i o‘rnida joylashgan.

**CHORTOQ** – Sirdaryo viloyati Guliston tumanida joylashgan mahalla nomi. Namangan viloyatidagi Chortoq shahrining nomidan olingan. Chortoq nomining paydo bo‘lishi haqida turlicha rivoyatlar va qarashlar mavjud. Geografiya fanlari doktori, professor H. Hasanov Chortoq oykonimini quyidagicha talqin etadi: “Chortoq Namangan yonidagi qishloq. Buni “To‘rt tog‘” deb izohlanadi, lekin bunday emas. To‘rt gumbazli (to‘rt toqisi bo‘lgan) inshoot (ark, qo‘rg‘on, qorovulxona) Chortoq deyilgan. Ba‘zan to‘rt tomonida turadigan qorovulxonalar (baland minoralar) ham Chortoq deb atalgan”<sup>100</sup> Demak, joy o‘rtasida baland ark, qorovulxona bo‘lganligi bois shunday atalgan. S.Qorayev esa Chortoq toponimini quyidagicha izohlagan: “Aslida Chortoq so‘zi ikki so‘zdan – *chor* (to‘rt) va *toq* (ark, gumbaz) so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, “to‘rt go‘shali”, “gumbaz” demakdir, toq so‘zi Markaziy Osiyodagi eng qadimgi me‘morchilik termini bo‘lib, “*arkli bino*” ma‘nosini anglatadi. Peshtoq (imoratning oldi tomonidagi toq), toqi ravoq (hashamatli saroy). Chortoq so‘zlari ana shu iboralardan tarkib topgan. Ayvon, boloxona, qorovulxona ham chortoq deyilgan”. Shuningdek, S. Qorayevning “O‘zbekiston viloyatlari toponimlari”<sup>101</sup> kitobida yuqoridagi fikrlarga qo‘shimcha tarzda Chortoq *chordoq* shaklida ham talaffuz etilgan. Otashparastlarning ibodatxonasi ham chortoq deyilgan, degan fikrlarni bildirgan.

T.No‘monov va B.Turdaliyevlar Chortoq astionimi haqida quyidagi fikrlarni bildiradilar: “Chortoq fors-tojikcha so‘zga aloqador bo‘lib, *choxar* – *to‘rt*, *toq* – *ustun*, ya‘ni *to‘rt ustun ustiga qurilgan qorovulxona, chayla* ma‘nosini anglatgan”<sup>102</sup>. Demak, *Chortoq* so‘zi joy o‘rniga mos bo‘lib, qorovulxona, baland minora vazifasini o‘taydigan

---

<sup>100</sup> Hasanov X. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 56–57.

<sup>101</sup> Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б. 98.

<sup>102</sup> Нумонов Т., Турдалиев Б., Ҳайдаров А. Наманган топонимларидан материаллар. – Наманган, 1995. – Б. 78.



inshoot ma'nosini ifodalab, davrlar o'tishi mobaynida o'z qadriyatini yo'qotmay joy nomiga aylangan<sup>103</sup>.

**TERAKZOR** – Guliston tumanidagi mahalla nomi. T.Nafasov terak – tik o'sadigan daraxt ekanligi va shunday daraxt bor joy Terak deb atalishini qayd qilgan holda, yana boshqa bir izohni ham keltiradi. Qadimiy turkiy tilda *terngak/ ternak/teranguk/ternguk* – buloq suvi, qaynab chiqadigan yerosti suvi; jilg'a. Beshterak, Beshdarak nomlaridagi terak, darak so'zlari ham terngak so'ziga daxldor. Shimoliy Kavkazdagi Terek daryosi nomi ham shu so'z bilan bog'liq. Terak – buloq, jilg'a<sup>104</sup>.

Demak, *Terakzor* – qator teraklar ekilgan maydon ma'nosini anglatadi. Toponim kelib chiqishiga ko'ra fitonim hisoblanadi. Chunki toponimning kelib chiqishiga terak daraxtining nomi asos bo'lgan. *Terak* – daraxt nomi. –*lik* toponim yasovchi qo'shimcha. Demak, Teraklik – “*Terak daraxti ko'p o'sadigan joy*” degan ma'noni bildiradi.

**BOYOVUT** – Guliston tumanidagi mahalla nomi. Boyovut respublikamiz hududida qadimdan yashab kelgan urug'lardan biri. Rashiduddinining “Jome at-tavorix”, Abulg'oziy Bahodirxonning “Shajarai turk” asarlarida Chingizxon qo'shinlari bilan birga kelgan qabilalar orasida ham boyovut urug'i tilga olingan. Boyovut so'zi “boy”, tug'rirog'i “boylar” demakdir<sup>105</sup>. Boyovut tarifiga qarang.

**YETTIURUG'** qabristoni – Guliston tumanidagi Sohilobod mahallasi hududidagi qabriston nomi. *Jetiuruv* – qipchoqlarning unchalik katta bo'lmagan urug'i, jeti (adabiycha – *yetti*) *uruv* yoki *uru* (adabiycha – *urug'*) ma'nolarini anglatadi<sup>106</sup>.

## MIRZAOBOD TUMANI

**MIRZAOBOD** – Sirdaryo viloyati tarkibidagi tuman nomi. 1992-yilgacha tuman Komsomol (ruscha, Коммунистический союз

<sup>103</sup> O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. B. 601.

<sup>104</sup> Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. -T.: 2009. – B. 28.

<sup>105</sup> Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 240 б.

<sup>106</sup> O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 165, 529.

молодежи, o‘zbekcha, Kommunistik Yoshlar Ittifoqi) nomi bilan yuritilgan. Mirza so‘zining ilk shakli mirzoda, keyinchalik bu so‘z mirzaga aylanib, kishilar ismi sifatida foydalanilgan. “*Mirza*” so‘zi fors-tojik tilida “*amirzoda, amir avlodi*” degan ma’noni bildiradi. XIV–XV asrlar va undan keyingi davrlarda Amir Temur avlodlari, temuriy shahzodalar ismiga qo‘shib aytilgan unvon. Keyinchalik (XVI – XIX asrlar) kotiblar unvoni o‘rnida ham qo‘llanib kelingan. Tuman hududi Mirzacho‘lda joylashganligi bois, tumanga nom ham shunga mos holda ma’muriy-rasmiy tarzda tanlangan. Mirzaobod tumanida Navro‘z shaharchasi, Birlashgan, Mehnatobod, Mirzacho‘l, Navbahor, Nurafshon, Oqoltin, Toshkent, Yo‘ldoshobod, Haqiqat, Yangi O‘zbekiston, Do‘ngariq, Dehqonobod, T.Ahmedov, Tinchlik, Mirzo Ulug‘bek, Yangihayot nomli mahallalar bor.

**NAVRO‘Z** – Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani ma’muriy markazi vazifasini bajaruvchi shaharcha va shu tumandagi mahalla nomi. Shuningdek, Mirzaobod, Sardoba, Boyovut va Sirdaryo tumanlarida, Xorazm viloyati Xonqa tumanida ham shu nomli mahallalar mavjud. O‘zbekiston o‘zining mustaqilligini e’lon qilgandan keyin ko‘pchilik milliy qadriyatlarimiz va an’analarimiz, urf-odatlarimiz, jumladan, tarixiy nomlarimiz qayta tiklanib, ko‘pchilik aholi punktlari nomlari Navro‘z deb atala boshlandi. Chunki sobiq Ittifoq davrida bular taqiqlangan edi. Demak, *Navro‘z – shamsiya yil hisobida yangi yilning birinchi kuni, yangi kun* ma’nolarini ifodalaydi. Mazkur termin fors tili orqali o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “*yangi kun*” ma’nosini anglatadi. B. O‘rinboyevning aytishicha, toponim *nav – yangi* va *ro‘z* so‘zlarining birinchi bo‘g‘inidan yasalgan<sup>107</sup>.

**MIRZACHO‘L** – Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Jizzax viloyati tarkibida ham shu nomdagi tuman mavjud. Mirzacho‘l so‘zini H.Hasanov shunday izohlagan: “Mirzacho‘l – ruschada boshqa nom olgan: Южная Голодная степь (“Janubiy yalang dala”), Северная Голодная степь Qozog‘iston hududida bo‘lib, *Betpakdala* deyiladi. Mirzacho‘l turlicha izohlab kelinmoqda, bu nom Mirza ismli odamning ismidan olingan, degan fikr ham bor. Agar bu

<sup>107</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 273.

nomga *marza* va *marzak* soʻzlari asos qilib olingan boʻlsa, mantiqli izoh tugʻiladi; masalan; “*Qizilqum chekkasidagi kichik choʻl*”, *marza* – “*chekkadagi yer*”; arabcha *marzak* – “*kichik*” soʻziga *daxldor*”.

S.Qorayevning yozishicha, XVI asrgacha bu hudud *Jizzax – Chinoz choʻli* deb atalgan. XVI asr oxirida hukm surgan Buxoro xoni – Abdullaxon dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-tijorat ishlarini, umuman, obodonchilik ishlarini ancha avj oldirgan. U oʻz amaldori – mirzosiga Jizzax – Chinoz orasidagi choʻlda karvonsaroylar, rabotlar, machitlar, sardobalar qurdirgan. Hozirgi Jizzax viloyati hududidagi Tuyatortar kanali qazilib, choʻlning janubiy va markaziy qismlarida katta maydonlarga suv chiqarilgan. Jizzax – Chinoz choʻlida bir qancha irrigatsiya inshootlari ham qurilib, dehqonchilik birmuncha rivojlangan. Ana shu davrdan, 1583 – 1598-yillardan eʼtiboran *Jizzax – Chinoz choʻli Mirzoning choʻli* (Mirzachoʻl) deb atala boshlagan.

Soha mutaxassislari orasida *Mirzachoʻl* nomining ilk shakli *Marzachoʻl* boʻlgan, keyinchalik xalq talaffuzida Mirzachoʻl boʻlib oʻzgargan, degan talqinlar ham bor. Masalan, P.Gʻulomovning yozishicha, *marza – relʼef shakli, tepasi qabariq shakldagi uzun choʻzilgan balandlik*. Marzalar tektonik yoʻl bilan hosil boʻlishi, daryo, dengiz toʻlqini keltirgan qumlardan vujudga kelishi, morena jinrlarining toʻplanishidan paydo boʻlishi, kishilar tomonidan bunyod etilishi mumkin<sup>108</sup>.

*Boshqa izoh:* Mirzachoʻl soʻzining kelib chiqishi Mirzo Ulugʻbekning mamlakatda olib borgan obodonchilik ishlari bilan bogʻliq, choʻl nomidagi Mirza soʻzini Ulugʻbek nomi bilan aloqador, deb izohlovchilar ham topiladi. Mirza soʻzining ilk shakli mirzoda, keyinchalik bu soʻz mirzaga aylanib, kishilar ismi sifatida foydalanilgan.

**QORASIYROQ** – Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi qishloq. Parchayuz urugʻining bir boʻlagi deb eʼtirof etilgan. Qishloq aholisining koʻpchiligini shu urugʻ vakillari tashkil etadi. “Siyroq”– “yuz”, “bet” degan maʼnolarni bildiradi. Urugʻ boshligʻi yuzi qora boʻlgani uchun “siyroqʻi qora”, “qorasiyroq yigit” deb chaqirilgan. Shundan soʻng ushbu nom keng ommalashib, qishloqqa ham aynan shu

<sup>108</sup> Oʻzbekiston joy nomlarining izohli lugʻati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B.251.

nom beriladi. Shuningdek, Sirdaryo viloyati Guliston tumani, Jizzax viloyati Jizzax tumani, Samarqand viloyatining Narpay va Pastdarg‘om tumanlarida shu nomli qishloqlar bor. *Qorasiyroq* – etnonim. Masalan, laqay qabilasining kichik bo‘linmalaridan biri qarasiyrak (qorapocha) deb nomlangan<sup>109</sup>. L.S.Tolstovaning ta’kidlashicha, djuvansi(y)rak, karasi(y)rak etnonimlari qadimgi sarmatlarning *sirak* qabilasi nomi bilan bog‘liq bo‘lib, sirak qabilasi nomidan kelib chiqqan<sup>110</sup>. T.Nafasovning qayd qilishicha, siyroq umumturkiy urug‘ nomi<sup>111</sup>.

**BARLOS** – Mirzaobod tumanidagi Haqiqat mahallasi tarkibidagi qishloq. Qabila nomi bilan bog‘liq etnonim. Samarqand viloyatining Ishtixon, Bulung‘ur tumanlarida Barlos nomidagi qishloqlar bor. Barlos qabila nomi bilan bog‘liq nom. Hozirgi vaqtda barloslarning avlodlari Chiroqchi, Koson, Shahrisabz, Boysun, Denov, Sariosiyo, Forish, Jizzax, Marhamat, Xo‘jaobod, Nurota, Urgut, G‘allaorol tumanlarida yashaydi. “Badoyi al-lug‘at” asarida “*barlos*” so‘zi – “mard, botir, qo‘mondon”, deb izohlangan<sup>112</sup>.

**BOYTO‘BI** – Mirzaobod tumanidagi Do‘ngariq mahallasi tarkibida qishloq. Boyto‘bi – boylar guruhi. To‘p – urug‘ bo‘limlarini ifodalash uchun nisbatan qo‘llaniladigan terminlardan biri<sup>113</sup>. *Boyto‘bi* – “*boylar urug‘i*” etnonim, aniqrog‘i, patronim. *Bay* asosi bilan (*boy, boylar, baydar, bayli, bayat, bayaut, bayandur* va boshqalar) bog‘liq etnonimlar o‘zbeklar, qozoqlar, qirg‘izlar, boshqirdlar va boshqa turkiy xalqlarda keng uchraydi. Boy keng tarqalgan joy nomlaridan biri, ushbu maskanda yashayotgan kishilarning mulkiy holatiga nisbatan yoki biror kishiga qo‘yiladigan ism nomidan joy nomi hosil qilingan. *Boymahalla, Boyto‘pi, Botirboy, Jumaboy, Katta-boybuchcha, Meliboy, To‘laboy, Toshboy zamini, Uzoqboy, O‘rinboy, Qo‘qonboy* kabi joy nomlari shular

---

<sup>109</sup> Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории..., – С. 99, 101

<sup>110</sup> Толстова Л. С. Отголоски ранних этапов этногенеза народов Средней Азии в ее исторической ономастике. “Ономастика Средней Азии”. – М., 1978. – С. 9 – 10.

<sup>111</sup> Нафасов Т, 2009: – Б. 384.

<sup>112</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 46.

<sup>113</sup> Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории. – С. 27–28

jumlasidandir. To‘p – urug‘ bo‘limlarini ifodalash uchun nisbatan qo‘llaniladigan terminlardan biri<sup>114</sup>.

**GADOY** – Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi ko‘l nomi. Gadoy – qarluq qabilasi urug‘laridan biri<sup>115</sup>. Etnonim ko‘l nomiga asos bo‘lgan.

**NAYMAN** – Sirdaryo viloyati Mirzaobod va Oqoltin tumanlaridagi qishloq. “Nayman” – etnik guruh bo‘lib, o‘zbek millatining tarkibiga kirgan urug‘lardan birining nomi. Shuningdek, qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq xalqlari tarkibida ham naymanlar bor. Tarixning guvohlik berishicha, Temuriylar sulolasining hukmronligi tugagach, ko‘chmanchi o‘zbeklar o‘troqlasha boshlagach, nayman nomida qishloqlar paydo bo‘lgan.

**TO‘PAK** – Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi qishloq. O‘zbek urug‘laridan bo‘lgan parchayuz urug‘ining bir bo‘lagi to‘pak deb atalib, nom shundan olingan.

**SIRG‘ALI** – Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanida Tinchlik mahallasi tarkibida qishloq. Sirg‘ali Oqdaryo tumanidagi bo‘lis nomi. Manbalarda dastlab volost (bo‘lis) nomi sifatida uchraydi. Mazkur termin bilan ataluvchi nomlar respublikamizda ko‘p. Jumladan, Toshkentdagi Sergeli tumani nomi ham ushbu so‘z bilan bog‘liq. Sirg‘ali so‘zi aslida etnonim bo‘lib, urug‘ nomidir. Akademik V.V.Radlov sirg‘ali urug‘ini yuz qabilasining tarmoqlaridan biri sifatida ko‘rsatadi. Sirg‘ali urug‘i haqidagi ma‘lumotlar boshqa ko‘pgina etnograf olimlarning ishlarida ham uchraydi. Masalan, etnograf olim K.Shoniyozov Zarafshon vohasida yashovchi jetiuruv o‘zbek-qipchoqlar tarmog‘ining bir bo‘limi “sirg‘ali” ekanligini qayd etadi. Shunday fikr professorlar X.Doniyorov, H.Hasanov asarlarida ham mavjud. Toponimshunos S.Qorayev Jizzax viloyati Zomin tumanidagi Sirg‘ali, Sirg‘aliog‘ar qishloqlari haqida yozar ekan, sirg‘ali (sergeli, sergali)lar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Qoziqurt, Qorjontov, Chimkent etaklarida, Keles, Bodom, Chirchiq daryolari bo‘ylarida

---

<sup>114</sup> Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории. – С. 27–28. О‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 50.

<sup>115</sup> Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изохли луғати. Ўзбекистоннинг жанубий районлари. Т., “Ўкитувчи”, 1988. – Б. 245.

yashaganliklarini qayd qilib, sergeli (sirg‘ali)lar 12 urug‘ tarmog‘idan iborat, deb ko‘rsatadi.

Demak, sirg‘ali turkiy (o‘zbek, qozoq va boshqa xalqlar) urug‘laridan biri bo‘lib, u ko‘plab toponimlarning yaratilishiga asos bo‘lgan. Urug‘ga sirg‘ali deb nom berilishi esa, uning tamg‘asi sirg‘a shaklida bo‘lganligi bilan bog‘liq. Bugungi kunda ushbu nomdagi toponimning uchramasligi davr o‘tishi bilan mazkur so‘zning o‘z mohiyatini yo‘qotishi bilan bog‘liq<sup>116</sup>.

**CHUQURSOY** – Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi Mirzo Ulug‘bek mahallasi tarkibidagi qishloq. Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi Chuqursoy nomli soy bor. Gidronim. Gidroobyektning joylashgan holatini ko‘rsatuvchi atama<sup>117</sup>.

**SO‘PI qishlog‘i** – Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanida Tinchlik mahallasi tarkibida qishloq. So‘filar – so‘fi, muazzinlar (masjid xizmatchilari) ko‘p yashaydigan joy. Bu yerda *so‘pi* – etnonim. Qo‘sh tamg‘alaroy urug‘ining bir qismi supi (sufi) deb nomlanadi<sup>118</sup>. Qo‘ng‘irot qabilasining kichik bir guruhi so‘pi deb ataladi. Mazkur nom etnotoponim bo‘lib, Jizzax viloyatining Baxmal tumanida So‘pi nomli qishloq, Urgut shahridagi Sufiyon (so‘filar) nomli mahalla, Farg‘ona viloyati Qo‘shko‘pir tumanida shu nomdagi mahallalar bor. Andijon viloyati Jalaquduq tumani markazining eski nomi So‘fiqishloq bo‘lgan. Mazkur nom Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi So‘pi nomli qishlog‘idan kelganlar tomonidan qo‘yilgan<sup>119</sup>.

**SOLIN** – Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanida Tinchlik mahallasi tarkibida qishloq. Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanida Solin nomli qishloq bor. Solin o‘zbek urug‘larining kichik bir shoxobchasi. Solin urug‘i tog‘ayto‘bi, jobuvchi solin, shodmon to‘bi, kavrak solin, davlat solin, uyaz solin, qirsadoq solin degan tarmoqlarga bo‘lingan<sup>120</sup>. Shuningdek, Jizzax viloyatining Zomin tumanida ham

<sup>116</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 433.

<sup>117</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 606.

<sup>118</sup> Кубаков К. О некоторых родоплеменных группах. – С. 14; Жўраев Б. Юкори Қашқадарё шевалари, – Б. 162.

<sup>119</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 449-450.

<sup>120</sup> Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978. – С. 113

shunday nomli toponim mavjud. Solin – tag‘aytobi, jabuvli salin, shadman tobi, kavrak salin, davlat salin, uyaz salin, qirsadaq salin va boshqalarning birlashmalaridan tashkil topgan o‘zbek qabilasi. Solin qabilasi vakillari Zarafshon vodiysi va Markaziy Osiyoning boshqa joylarida tarqoq holda yashashgan<sup>121</sup>.

**JUVONSIYROQ** – Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanida Tinchlik mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Juvonsiyroq parchayuz urug‘ining bir bo‘lagi deb e‘tirof etilgan. Qishloq aholisining ko‘pchiligini shu urug‘ vakillari tashkil etadi. L.S.Tolstova fikricha, juvonsiyroq, qorasiyroq kabi etnonimlar qadimgi sarmat xalqining sirak qabilasi nomidan kelib chiqqan<sup>122</sup>. Ushbu nom keng ommalashib, qishloqqa ham aynan shu nom berilgan. Urgut shahrining Andak mahallasida Qorapocha va Oqqocha toponimlari qayd qilingan. T.Nafasovning qayd qilishicha, siyroq umumturkiy urug‘ nomi<sup>123</sup>. Shuningdek, Sirdaryo viloyati Guliston tumani, Jizzax viloyati Jizzax tumani, Samarqand viloyati Narpay tumanida shu nomdagi qishloqlar bor<sup>124</sup>.

**DO‘NGARIQ** – Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanida Tinchlik mahallasi tarkibida qishloq. Do‘ngariq – “*tepalikdagi ariq*” ma’nosini anglatadi.

**PILLAKOR** – Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi qishloq nomi. Ushbu termin “*pilla yetishtiruvchi, pilla teruvchi*” ma’nosini ifodalab, mazkur hudud asosan pilla yetishtirishga ixtisoslashganligini bildiradi.

**MEHNATOBOD** – Sirdaryo viloyati Mirzaobod va Xovos tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Mehnat* va *obod* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Mehnatobod – *mehnat bilan obodonlashtirilgan* ma’nosini anglatadi<sup>125</sup>.

**BALIQCHI** – Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi qishloq nomi. “Baliqchi” – *shahar, qal’a qo‘riqchisi* ma’nosida keladi. Yana bir

---

<sup>121</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. B. 440.

<sup>122</sup> Толстова Л. С. Отголоски ранних этапов этногенеза народов Средней Азии в ее исторической ономастике. “Ономастика Средней Азии”. – М., 1978. – С. 9 – 10.

<sup>123</sup> Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. -T.: 2009. – С. 384.

<sup>124</sup> Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории ... . – С. 99, 101.

<sup>125</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 245.

ma'nosi o'zbek urug'laridan birining nomidir. Qishloq baliqchilikka ixtisoslashgani uchun shunday nomlangan.

**CHINOBOD** – Mirzaobod tumanidagi Haqiqat mahallasi tarkibidagi qishloq. Shuningdek, Chinobod toponimi Andijon viloyatining Baliqchi tumani, Toshkent viloyatining Qibray tumani, Samarqand viloyatining Poyariq tumani, Surxondaryo viloyatining Termiz tumani, Xorazm viloyatining Xiva, Gurlan tumanlarida uchraydi. Bunday nom respublikamizning ko'plab hududlarida uchrashini ta'kidlash lozim.

Chin – haqiqiy, sof, obod – obod, seraholi (Chinobod – obod aholi punkti). Ushbu nom ham “chem” so'ziga borib taqaladi. “Chem” va “chim” hamda “chin” so'zlarining o'zagi tarixan bitta (Chimkent, Chimqo'rg'on, Chinobod)<sup>126</sup>.

**BAHORISTON** – Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Ushbu toponim bahor so'ziga o'rin-joy oti yasovchi - *iston* qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan. U fors tilidan o'zlashgan bo'lib, “gullab-yashnagan bog” ma'nosini ifodalaydi hamda “O'zbek tilining izohli lug'ati”da shunday izohlanadi: “Bahorga makon bo'lgan, doim yashnab turgan o'lka, mamlakat”<sup>127</sup>.

**BOG'ISTON** – Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi mahalla nomi. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida shu nomdagi qishloq, Xorazm viloyati Bog'ot va Gurlan tumanlarida ham mazkur nom bilan atalgan mahalla nomi mavjud. Bu nom quyidagicha izohlangan: “*Bog'iston – (forscha – bog'larga boy joy; bog'lar) serbog' joy; bog'lar o'lkasi, bog'-rog'lar bilan qoplangan maydon, joy*” ma'nosini ifodalaydigan toponimdir”. Mazkur hudud shuning uchun ham shunday nomlangan.

V.V.Bartoldning fikricha, “Bog” so'zi bundan bir necha asr oldin “Alloh” ma'nosini ifodalagan<sup>128</sup>.

Geograf olim H.Hasanovning fikricha, Bog'iston toponimi “*Bug'ular hayoti*” ma'nosini ifodalagan. Biroq bunday tahlillar asos

<sup>126</sup> O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 593.

<sup>127</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати, I жилд, 198-бет.

<sup>128</sup> Бартольд В. В. Историко-географический очерк Ирана, – Ташкент, 1926. – С. 55, 130.



talab qiladi. Yoki *-iston* qo‘shimchasi so‘zlarga qo‘shilib, quyidagi ma’nolarni ifodalaydi:

1) qaysidir mamlakat yoki xalqning yashash joyi, mamlakat nomi;

2) nimalarnidir serob joyi. Mazkur qo‘shimcha so‘zlarga qo‘shilib, qaysidir bir hayvonning (masalan – Bug‘u) nomini hosil qilgan.

Professor I.P.Petrushevskiy “Bog‘iston” terminini “*daraxtlar o‘tkazilgan bog*” sifatida tushuntiradi va buni biz nisbatan to‘g‘ri deb hisoblaymiz.

Shunga qo‘shish mumkinki, qirg‘izlarda bogostan-bugustan urug‘i bo‘lgan<sup>129</sup>. Boshqa bir ilmiy manbalarda uning ikki xil talqini mavjud. Bulardan biri Bug‘uston – “*bug‘ular yashaydigan makon*” degan ma’noni bildirsa, ikkinchidan, o‘tmishda bog‘-rog‘lar ko‘p joy, serdaraxt guzar – bog‘iston deyilgan. Rashididdinning “Jome’ at-tavorix” asarida ham bog‘iston so‘zi bor.

**OLG‘A** – Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi mahalla nomi. Mirzacho‘lni o‘zlashtirish jarayonlari bilan bog‘liq mafkuraviy xarakterga ega atama. Ushbu atama so‘z sifatida *oldinga, ilgariga* ma’nolarini ifodalaydi.

**NURAFSHON** – Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi mahalla nomi. Shuningdek Xorazm viloyati Xonqa, Gurlan va Bog‘ot tumanlarida shu nomli mahallalar bor. Ushbu termin arabcha-forscha bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mazkur so‘z quyidagi ma’nolarda ifodalanadi: “*Nur sochuvchi, nur tarqatuvchi, nurli, porloq*”<sup>130</sup>.

**OYDIN** – Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Toshkent viloyatining Chinoz tumani shu nomdagi qishloq mavjud. Oydin – *oysimon, oy bilan yoritilgan*, ko‘chma ma’noda – *yorug‘, aniq* ma’noni anglatadi<sup>131</sup>.

**TOSHKENT** – Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Dastlab Toshkent shahridan ko‘chib kelgan aholi joylashgan va yashagan joy nomi. Shuningdek, Oqoltin va Mirzaobod

<sup>129</sup> Ситняковский Н. Ф. Перечисление некоторых родов киргизов, обитавших в восточной части Ферганской области. – ИТОРГО, т. 2, вып. 1, 2, – Ташкент, 1900. – С. 58.

<sup>130</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати, III жилд, 66-бет.

<sup>131</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 308.

tumanlaridagi mahalla nomi. Mazkur hududga qariyalarining aytishicha, Toshkent shahridan 10-15 ta oila kelib, shu yerda joylashadi va muqim yashab qoladi. Yillar o'tishi bilan ular ko'payib, qishloq aholisining muayyan qismini tashkil etadilar. Shundan keyin mazkur qishloq Toshkent shahri nomi bilan atala boshlaydi. Toshkent (arab yozuvida *Toshkand* shaklida yozilgan, hozirda o'zbek tilida *Toshkent* ko'rinishida yoziladi, *Toshkan* shaklida talaffuz qilinadi;

Toshkent shahrining hozirgi nomi, taxminan, ming yil muqaddam Markaziy Osiyoning qomusiy olimlari Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Koshg'ariy asarlarida tilga olingan. Ularning ikkalasi ham bu nomni "tosh qal'a" yoki "tosh minora" ma'nosida bayon qiladi. Choch-Shosh – Tosh(kent) – bu bitta so'zning fonetik evolyutsiyasimi yoki shahar nomining ushbu variantlarining har biri mustaqil ma'noga egami? "V–XI asrda birinchi marta tilga olingan hozirgi turkiy nomning Choch yoki Shosh shakllari bilan qanchalik bog'liqligi hali ham jumboqli" (V.V.Bartold). Bu masala bo'yicha olimlar o'rtasida kelishuv mavjud emas. Masalan, taniqli tilshunos prof. E.A.Polivanov *Toshkent* toponimi *Tojkent* deb izohlagan: "Tojiklar shahri", ya'ni "arablar shahri" (Markaziy Osiyoda arablar dastlab tojiklar deb nomlangan. Biroq aksariyat olimlar ushbu fikrlar qarama-qarshiligini turkiy tildagi "Tosh" so'zi bilan bog'lash orqali yechim topishni ma'qul ko'rishadi (Sug'd tilida Choch "Tosh" degan ma'noni anglatadi)<sup>132</sup>.

## QQOLTIN TUMANI

**QQOLTIN** – Sirdaryo viloyati tarkibidagi tuman nomi. Nom tarkibidagi oq so'zi rang ma'nosini bildiradi. Oltin – *tilla, zar, sariq-qizg'ish tusli qimmatbaho metall*. Nom tarkibidagi oltin so'zi ramziy ma'noda qo'llanilgan va u nodir metalni emas, balki qimmatli sanoat xomashyosi bo'lgan paxtani ifodalaydi. Paxta engil va to'qimachilik sanoati uchun qimmatli xomashyo bo'lganligi bois uni oltinga qiyoslashgan. Majoziy ma'noda oqoltin – paxta. Adabiy tilda paxtakorlar mehnatini sharaflab, ularning mashaqqatli mehnati bilan

<sup>132</sup> O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr. –Toshkent, 2002. – B. 477.

yetishtirilgan paxtani oqoltin deyishadi<sup>133</sup>. Oqoltin tumanida Sardoba shaharchasi. Ahillik, Bo‘ston, Ko‘rkam diyor, Andijon, Yangi hayot, Obod, Toshkent, Yangi davr, A.Navoiy, Saxovat, Shodlik nomli mahallalar bor.

**SARDOBA** – shaharcha. Sirdaryo viloyat Oqoltin tumani ma`muriy markazi. “Sardoba” – tojikcha “sard” – “sovuq”, “ob” – “suv” so‘zlaridan hamda ot yasovchi *-a* qo‘shimchasidan tarkib topgan bo‘lib, “muzdek suv saqlanadigan joy” degan ma’noni bildiradi<sup>134</sup>.

“Sardoba” asli suv inshooti nomi. Oqar suvi bo‘lmagan joylarda usti gumbazsimon qilib yopilgan, tagi va devorlari tosh, g‘ishtdan terilgan, suv kiradigan teshigi, ustida mo‘risi va suvidan foydalanish uchun odam kirib chiqadigan maxsus joyi bo‘lgan qadimiy suv havzasi – Sardoba deb yuritilgan. Bu nomdan ko‘plab joy nomlari kelib chiqqan: Sardoba toponimi ko‘p bora uchraydi. Masalan, Sardoba Malik, Sardoba Raimbek, Katta Sardoba, Yakka Sardoba, Yusuf Sardoba, Sardoba o‘g‘iz va shu kabilar. Usti gumbazsimon bo‘lgani uchun ba’zan *gumbaz* deb ham yuritiladi. Sardoba “sovuq suv” degan ma’noga ega<sup>135</sup>.

**SANGZOR** – Sirdaryo viloyati Oqoltin tumanida Ko‘rkam diyor mahallasida joylashgan qishloq. Sangzor Jizzax viloyatining Baxmal va G‘allaorol tumanlari o‘tuvchi daryo va shu nomdagi vodiya nomi. Forscha *sangzor* yoki *sangusor* – “Toshli joy”, “Toshga to‘la joy” ma’nolarini ifodalaydi<sup>136</sup>. Qishloq aholisi Jizzax viloyatining Sangzor vodiysidan kelib yashab qolgan va qishloq nomi shu sababli Sangzor deb nomlangan.

**ZOMIN** – Sirdaryo viloyati Oqoltin va Sardoba tumanlaridagi mahalla, Sirdaryo tumanidagi qabriston nomi. Zomin tumanidan ko‘chib kelganlar yashaydigan qishloq bo‘lganligi uchun shunday atalgan. Qarang. Zominlik, Zominqishloq.

**AHMAD YASSAVIY** – Sirdaryo viloyati Oqoltin va Guliston tumanlaridagi mahalla. Mahallalar taniqli tasavvuf shoir Ahmad Yassaviy nomi bilan atalgan. Xoja Ahmad Yassaviy XI–XII asrlarda

<sup>133</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. –Toshkent, 2002. – B. 301.

<sup>134</sup> Ko‘rsatilgan asar. – B. 410.

<sup>135</sup> Массон М. Е. Проблема изучения системн-сардоба. – Т., 1935.

<sup>136</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 410.

yashagan, tasavvufning mashhur namoyandalaridan biri, turkiy xalqlarning buyuk shoiri.

**SHODLIK** – Sirdaryo viloyati Oqoltin tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Shuningdek, Sayxunobod tumani va Guliston shahrida, Xorazm viloyatining Gurlan va Xonqa tumanlarida shu nomdagi mahallalar bor. Mustaqillik yillarida qo‘yilgan nom bo‘lib, mazkur so‘z “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *shod-xurram holati, xursandlik, sevinch, quvonch* ma’nolarini ifodalashi qayd etiladi<sup>137</sup>.

**BO‘STON** – Sirdaryo viloyati Oqoltin tumanidagi qishloq, Oqoltin, Sardoba, Xovos tumanlari va Guliston shahrida mahallalar nomi. Shuningdek, Buxoro viloyatining Vobkent tumanida, Andijon viloyatining Andijon va Baliqchi tumanlari, Farg‘ona viloyatining Rishton tumanida ham shunday nomli qishloq va mahallalar mavjud. Ilmiy manbalarda mazkur toponimning ko‘p marta takrorlanadigan qishloq va mahallalar nomlari sifatida qayd etiladi. Farg‘ona – Yozyovon – Quva oralig‘ida yashovchi qirg‘izlarning Bo‘sto‘n (*bo‘z to‘nli*) urug‘i vakillari keng tarqalgan joylarda shu nomli qishloqlar bor. Albatta, hamma Bo‘ston toponimlari urug‘ nomidan olingan – etnonim deb o‘ylash xato. H.Hasanovning yozishicha, *bo‘z* so‘zining *yangi* degan ma’nosi bor, *bo‘z yer – yangi yer, bo‘z bola – yosh yigit* va boshqalar. Shu sababdan *bo‘z qishloq* deganda, *yangi qishloq* deb tushunish mumkin. *Bo‘ston* so‘zi o‘zbek tilida “*yashnagan bog‘*” ma’nosida ishlatilishini ham e’tiborga olish lozim. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *bo‘ston* so‘zi “*gullagan joy*”, “*gulzor*”, “*serbog‘ joy*”, “*bog‘iston*”, “*diyori*” degan ma’nolarni anglatadi<sup>138</sup>.

**OBOD** – Sirdaryo viloyatining Oqoltin tumanidagi mahalla nomi. Obod nomi bilan yuritiladigan mahallalar Xorazm viloyatining Gurlan va Xonqa tumanlari, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumani, Andijon viloyatining Asaka, Xo‘jaobod tumanlarida ham uchraydi. Toponimdagi komponent – *obod* so‘zi ba’zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo‘shilib, joy nomini yasaydigan, “*obodonlashtirilgan*”,

<sup>137</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати, IV жилд, 591-бет, О‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2002. – B. 559.

<sup>138</sup> О‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2002. – B. 45.

“o‘zlashtirilgan”, “gullab-yashnagan” ma’nosidagi so‘z, affiks. Ushbu atama forscha “*odam yashaydigan, ishlov berilgan*” ma’nolarini beruvchi so‘z asosida atalgan nom hisoblanadi. Demak, Obod – “*qulay va shinam*”, “*seraholi*” ma’nolarini anglatadi<sup>139</sup>.

**GULZOR** – Sirdaryo viloyati Oqoltin tumanidagi mahalla nomi. Uning tarkibi ikki komponent: *gul* so‘zi va *-zor* so‘z yasovchi qo‘shimchalarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. *Gul* – ziynat uchun ekiladigan yoki o‘zi o‘sadigan gulli o‘simliklar, chechaklar. Demak, *Gulzor* – “*gullar bilan ishlag‘ol etilgan yer*”, “*gulshan*”, “*chamanzor*”, “*gul ekilgan obod joy*” degan ma’nolarni anglatadi. Mazkur “*Gulzor*” termini “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “*gul bilan qoplangan maydon; gul ekilgan yer, chamanzor, gulshan*” ma’nolarida qayd etiladi<sup>140</sup>.

**OLMAZOR** – Sirdaryo viloyati Oqoltin va Boyovut tumanlaridagi mahalla nomi. *Olma* – *asos*, *-zor* – joy nomini ifodalovchi affiks. Olmazor yasama so‘z. Olma daraxtlardan iborat yurt, hudud ma’nolarini beradi.

**SAXOVAT** – Sirdaryo viloyatining Oqoltin tumanidagi mahalla nomi. Xorazm viloyati Bog‘ot tumanida Saxovat nomli mahalla bor. Ushbu termin arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, o‘zbek tilining izohli lug‘atida mazkur so‘z quyidagi ma’nolarni ifodalashi qayd etiladi: a) “qo‘li ochiqlik, oliyhimmatlilik, saxovatlilik; baland himmatlilik, saxiylik; b) tabiiy boylik, mo‘l hosil, to‘kinlik, mo‘llik”<sup>141</sup>.

**ANDIJON** – Sirdaryo viloyati Oqoltin tumanidagi mahalla nomi. Farg‘ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan Andijon viloyati va shu nomdagi shahar nomidan olingan. Andijon viloyatidan ko‘chib kelganlar tomonidan qo‘yilgan. Andijon nomi X asrdan boshlab, tarixiy yozma yodgorliklarda *Andiyan*, *Andukan*, *Andugan*, *Andigan* va nihoyat, *Andijon* (masalan, Boburnomada XVI asr) sifatida tilga olinadi. Shahar nomining kelib chiqishi bo‘yicha bir qancha afsonalar ham bor. Eng keng tarqalgan afsona bo‘yicha Andijon – bu ayol ismi: turklarning afsonaviy shohi Afrosiyob shahar qurgan va uni o‘zining sevimli qizi

<sup>139</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2002. – B. 284.

<sup>140</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати, I жилд, 519-бет.

<sup>141</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд, 464-бет.

Adinajon qizining nomi bilan atagan; boshqa bir taxmin bo'yicha, shahar mo'g'ul xonlaridan birining sevimli qizi nomiga atab qurilgan va shunday nomlangan. Boshqa bir afsonada xabar berilishicha: allaqanday xon: "Anda jon qoldi", ya'ni "*u yerda mening yuragim – sevimli yorim qoldi*", – deydi. Boshqa bir afsonalarga ko'ra Andijon toponimi ikki so'zdan tashkil topgan: *Olti jon*, u yerda insonlarning joylashishi bo'yicha. Armeni Vamberining fikricha, Andijon nomi *ant* – "qasam" va *jan* – "rozilik" so'zlaridan kelib chiqqan. Mazkur toponimni birinchilardan bo'lib, ilmiy nuqtayi nazardan tushuntirishga harakat qilgan rus olimi V.P.Nalivkin (1852–1918), Namangan aholisining og'zaki afsonalariga asoslanib, "Andijon" *andi* so'zidan kelib chiqqan (go'yoki, turkiy qabilalarning nomlaridan biri), forscha ko'plik qo'shimchasi bilan shakllangan; "Shu davrdan boshlab, namanganliklar andijonlik o'zbeklarni tez-tez *andi* nomi bilan atashadi, hatto shunday tasdiqlaydilarki, *andi* nomi o'sha turklardan kelib chiqib, hozirda ham Turkiston shahri va uning tevarak atrofida joylashgan"<sup>142</sup>. Andijonlik tarixchi S. Jalilovning ta'kidlashicha, "hozirgacha O'rta Osiyo xalqlari va o'zbeklar tarkibiga kiruvchi katta miqdordagi urug' va qabilalar haqida asarlar nashr qilingan. Biroq biror bir asarda *andi* nomi ostida turkiy qabila kuzatilmagan". Uning ta'kidlashicha, Andijon toponimi turk qabilasi kiruvchi *ad* elementi bilan nomlangan, bu etnonim fors-tojikchasiga ko'plik shaklda *adgon* – *adigon* shaklida talaffuz qilingan, natijada u yerda *n* tovushi paydo bo'ladi"<sup>143</sup>. Boshqa bir andijonlik tilshunos olim A.Turg'unov shunday hisoblaydi: "*andi* qabilasi o'tmishda Shimoliy Kavkazda ko'chmanchi bo'lgan. Uning kuzatishlari bo'yicha, o'zbek shevalarida *andi* komponenti "*lo'li*", "*iflos odam, isqirt*", "*uquvsiz*" va boshqa ma'nolarni ifodalagan". Natijada *andi* etnonim sifatida qo'llanilgan<sup>144</sup>. V.V.Radlovning so'zlariga qaraganda, *andi* so'zi fonetik transformatsiyaning natijasi bo'lgan va qadimgi turkiy *argo* komponenti bilan bog'liq va u "*o'rtada ajralib turgan yashil joy,*

---

<sup>142</sup> Наливкин В. П. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886. – С. 6.

<sup>143</sup> Джалилов С. Д. О названии "Андижан". Материалы конференции по ономастике Узбекистана. – Джизак, 1985. – С. 7-8.

<sup>144</sup> Тургунов А. К этимологии топонима "Андижан". Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана XV – XIX вв. – Ташкент, 1987. – С. 130, 136.

*daryoning irmog'i*” ma’nosini ifodalagan. V.V.Radlov va A.Turg’unovlarning soʻzlariga asoslanib, Andijon toponimi *argoning* fonetik deformatsiyasi natijasi hisoblanadi: (qadimgi turkiycha “*odam yashamaydigan yashil joy*”) va *yan (gan) jan* – (“*ko’ngil*”, “*hayot*”), bu Andijonsoyning odam yashamaydigan yashil joyidagi jamoaviy ko’ngillilar (insonlar), deganidir. Shunday qilib, Andijon shahri nomining kelib chiqishi haqidagi masala oxirigacha oʻz yechimini topmagan. Hayratlanarlisi shuki, tilshunoslarning aytishlaricha aniq, ishonchli etimologiya boʻlishi mumkin emas. Shuningdek, *Andijon (Andigan)* nomi Oʻzbekiston va Tojikistonning kartasida bir necha bor takrorlanadi. Bu oʻrinda mutaxassislarning fikrlari oʻrinlidir va keltirilgan toponim “andi – turklarning shu hududni oʻrganayotgan izlari deb ham hisoblash mumkin”, – deb yozadi etnograf B. X. Karmisheva<sup>145</sup>.

**ZARAFSHON** – Sirdaryo viloyati Oqoltin tumanidagi mahalla nomi. *Zarafshon* – forsha *zar* – oltin, “*afshon* – sochiluvchi, tarqaluvchi”dir.

**NAYMAN** – Sirdaryo viloyati Oqoltin tumanida Yangi Toshkent mahallasida joylashgan qishloq. Shuningdek, respublikamizning koʻplab tumanlarida Nayman nomli qishloqlar uchraydi. Masalan, Andijon viloyatining Andijon va Buvayda tumanlari, Fargʻona viloyati Qoʻshtepa tumani; Toshkent viloyati Bekobod tumani; Qoraqalpogʻiston Respublikasi Beruniy tumani; Xorazm viloyati Gurlan, Bogʻot tumanlarida, Buxoro viloyati Vobkent tumani va shu kabi boshqa aholi punktlarining nomlari oʻzbek qabilasi *Nayman* nomi bilan atalgan. Bu nom etnonim hisoblanadi. “Nayman” – etnik guruh boʻlib, oʻzbek millatining tarkibiga kirgan urugʻlardan birining nomi. Naymanlar – qadimda turkiy va moʻgʻul xalqlari tarkibida boʻlgan qadimiy qabila. Oʻzbek, qozoq, qirgʻiz, noʻgʻoy, oltoy va boshqa turkiy xalqlar tarkibida naymanlar yirik qabila, qabila uyushmasi sanalgan. Bu qabila vakillarining Oʻzbekiston hududiga kelishi manbalarda XV asrning oxiri

---

<sup>145</sup> Кармишова Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана”. – М., 1976. – С. 171., Oʻzbekiston joy nomlarining izohli lugʻati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2002. – B. 22.

– XVI asrning boshlarida deb qayd qilingan. Naymanlar o‘zbek xalqining *saroy* qabilasi bilan ittifoq, yonma-yon yashagan. Shu bois ularni *naymansaroy* deb ham atashgan. Mo‘g‘ul tilida *nayman* so‘zi “*sakkiz*” degan ma‘noni bildirgan. Shu ma‘no tufayli naymanlarni *sakkiz urug‘*, *qabila*, *turkiy xalq* deb ham izohlashgan. Taniqli toponimist T.Nafasovning ma‘lumotlariga ko‘ra, etnonimning so‘nggi qismi hisoblangan *man* (*mon*) so‘zi turkiy tillarning o‘tmishida “*odam(lar)*”, “*kishi(lar)*”, “*urug‘*” ma‘nosini bildirgan. Qishloq nomiga *nayman* urug‘i nomi asos bo‘lgan. Naymanlar, A. D.Grebenkin ma‘lumotlariga qaraganda, XIX asrning 70 yillarida Zarafshon, Farg‘ona vodiylari va Xorazmda yashagan hamda uchta yirik urug‘ga – *qo‘sh tamg‘ali*, *sadirbek* va *voxtamg‘ali* urug‘lariga bo‘lingan. Bulardan tashqari, naymanlar *ag‘ran*, *ayronchi*, *badir*, *biya*, *bag‘anali*, *bukalay*, *burunsov*, *jag‘alboyli*, *jestovon*, *jilonli* (*ilonli*), *jumaloqbosh*, *oltiota*, *oqto‘nli*, *segizuruv* (*sakkizurug‘*), *sarinayman*, *to‘rtuul* (*to‘rto‘g‘il*, *to‘rtovul*), *to‘rt tamg‘ali*, *urguch*, *uchul*, *changali*, *cho‘michli*, *qozoyoqli*, *qoragadoy*, *qorasiyroq*, *qarg‘ali*, *qiltamg‘ali*, *qo‘ltamg‘ali*, *chirqirovuq*, *chuvulloq*, *oltamg‘ali* kabi mayda tarmoqlarga ham bo‘linadi. Pstdarg‘om, Kattaqo‘rg‘on va Narpay tumanlarida naymanlarning *oltio‘g‘il*, *po‘lotchi*, *ulus*, *zarman*, *kichikdik*, *qoranayman*, *zaxnayman* bo‘laklari bor. Nayman etnonimi qirg‘iz, oltoy, no‘g‘ay, shuningdek, qozoq xalqlari tarkibida uchraydi. Akademik V.V.Bartold “*nayman*” so‘zi mo‘g‘ulcha bo‘lib, “*sakkiz*” ma‘nosida ekanligi, demak, ushbu xalq sakkiz tarmoq (urug‘)ga bo‘linishini ko‘rsatadi. Rashididdin nayman feodal davlati haqida hikoya qilar ekan, Bukaxon Taybuka, Buyruqxon, Qushluk (Kuchluk) kabi hukmdorlar nomini tilga oladi. Naymanlar shajarasida sof turkiy ismlar uchraydi. Naymanning uch o‘g‘li – Tokpan, Elota, Ukrashlar bo‘lib, ularning avlodlari keyinchalik nayman urug‘lari tarmoqlarini tashkil qilgan<sup>146</sup>.

**ITTIFOQ** – Sirdaryo viloyati Oqoltin tumanida Shodlik mahallasida joylashgan. Hududning shunday nomlanishiga sabab, ushbu hududda turli millat vakillari, aniqrog‘i, o‘zbek, eron, turkman va

---

<sup>146</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 274.



boshqa xalqlar vakillari ahillikda birlashib yashaganligi tufayli, mazkur joy *Ittifoq* deb atalgan<sup>147</sup>.

**SHODLIK** – Sirdaryo viloyatining Oqoltin tumanidagi mahalla nomi. Mustaqillik yillarida qo‘yilgan nom bo‘lib, mazkur so‘z “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *shod-xurram holati, xursandlik, sevinch, quvonch* ma’nolarini ifodalashi qayd etiladi.

## SAYXUNOBOD TUMANI

**SAYXUNOBOD** – Sirdaryo viloyati tarkibidagi tuman nomi. Tuman 1952-yili dastlab Verxnevolinskoy nomi bilan tashkil qilingan. 1970-yili Voroshilov tumani nomi bilan qayta tashkil etilgan. 1984-yildan boshlab tuman Sayxunobod nomi bilan yuritiladi. Tuman hududidan O‘rta Osiyoning eng yirik daryolaridan biri – Sirdaryo oqib o‘tadi. Tumanga nom tanlashda daryo asosiy vazifani bajargan. Binobarin, daryoning arabcha nomi bo‘lgan “Sayxun” so‘ziga “obod” qo‘shimchasini qo‘shish orqali yaratilgan nom tumanga berilgan. Nom tarkibidagi obod so‘zi juda qadimdan joy nomlari yasashga ixtisoslashgan qo‘shimcha sanaladi. Bu so‘z doimo nomlarning so‘nggi komponenti bo‘lib, belgi vazifasini bajarib kelgan. Tumanda Sayxun shaharchasi, Guliston, Istiqlol, Ittifoq, Nurota, Sho‘razak, Yangihayot, O‘zbekiston nomli mahallalar bor.

**SAYXUN** – shaharcha. Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani ma’muriy markazi. Sirdaryoning qadimgi nomi, Soy va Xun so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Ya’ni Xunlar soyi, daryosi degan ma’noni anglatadi<sup>148</sup>. Sayxun shaharchasi Rossiya imperiyasi bosqini davrida ko‘chirib keltirilgan rus aholisi tomonidan barpo qilingan Verxniy Volinskiy va Nijniy Volinskiy (1896) qishloqlari o‘rnida joylashgan<sup>149</sup>.

**QAMISHLI** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi ko‘l nomi. Qamishli – bu ko‘lning atrofida har doim qamish o‘simligi o‘sib turganligi Qamishli deb atalishiga sabab bo‘lgan.

---

<sup>147</sup> Ko‘rsatilga asar. – B. 152.

<sup>148</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 410.

<sup>149</sup> Кудратов С. Қахрамонлар юрти тарихи. – Т, 2023.

**ITTIFOQ** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanida Shodlik mahallasida joylashgan qishloq nomi. Shuningdek, bu nom Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumanida ham mavjud. Hududning bunday nomlanishiga sabab, ushbu hududda turli millat vakillari, aniqrog‘i, o‘zbek, tojik, qozoq, turk, ozarboyjon va boshqa xalqlar vakillari ahillikda birlashib yashaganligi tufayli, mazkur joy *Ittifoq* deb atalgan<sup>150</sup>.

**BULOQBOSHI** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi Gulbuloq mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Andijon viloyatidagi tuman, Farg‘ona viloyatining O‘zbekiston tumani hamda Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahrida Buloqboshi nomli mahalla va Rishton tumanida shu nomdagi qishloq bor. Aholi maskani buloqning boshlanishi tomonidan bo‘lganligi uchun shunday nomlangan. Buloqboshi “*sarchashma*” so‘zining o‘zbekchasidir. Buloqboshi nomli o‘zbek urug‘i ham bor<sup>151</sup>. E.Murzayevning yozishicha, bu so‘z “*oqmoq*”, “*aralashmoq*” fe‘lidan olingan. Buloqning xarakteri, shakli, soni, egasini ifodalovchi so‘zlar qo‘shilib, ko‘plab joy nomlari hosil bo‘lgan, jumladan, *Yettibuloq*, *Zarbuloq*, *Oqbuloq*, *To‘qqizbuloq* kabi joy nomlari “buloq” so‘zi bilan bog‘liq<sup>152</sup>.

**TURK OVUL** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi O‘rikzor mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Farg‘ona viloyati Quva va Uchko‘prik tumanlarida Turkovul nomli qishloqlar mavjud. Shuningdek, Samarqand viloyatining Poyariq tumanida Kattaturk//Kichikturk nomidagi qishloqlar bor. O‘zbekiston hududida XVI asrgacha yashagan qarluq, barlos, kaltatoy, musobozori, mo‘g‘ul qabilalari turk deb atalgan. Bulardan tashqari, turk degan alohida qabila ham bo‘lgan. Bu qabilalarning hammasi o‘zbek millati tarkibiga qo‘shilib ketgan. Respublikadagi *Turkiston*, *Turklar*, *Turkravosh*, *Turkqishloq* deb ataladigan qishloqlar nomida ham turk so‘zi toponimning asosini tashkil qiladi<sup>153</sup>.

**ROBOT** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi O‘rikzor mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Apellativning birinchi qismi – *rabot*

<sup>150</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 145.

<sup>151</sup> Копаев, 1970.

<sup>152</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 47.

<sup>153</sup> Ko‘rsatilgan asar. – B. 453.

so‘zi “qo‘rg‘on”, “qo‘ra”, “hovli joy” degan ma‘nolarni anglatadi. Respublikamizning qariyb barcha tumanlarida “rabot, ravot” termini ishtirokida yasalgan joy nomlari uchraydi. Masalan, Beklar Ravoti, Ravot, O‘rta Ravot, Yuqori Ravot (Urgut t.) kabi.

*Ravot* (aniqrog‘i, *ribat*) arabchadan o‘zlashgan bo‘lib, dastlab (arablar bosqini davrida) dushmanlar hujumidan chegarani qo‘riqlovchi otlıq otryadlari uchun stansiya (to‘xtash joyi)<sup>154</sup> yoki chegarada musulmonlar egalik qiluvchi mustahkam joy ma‘nosini ifodalagan<sup>155</sup>. Keyinchalik ravot so‘zi bir necha ma‘nolarda qo‘llanilgan: 1) qo‘rg‘onchi qorovullar; 2) savdo yo‘llari uchun mustahkam turar joy (ravot); 3) karvonsaroy, doimiy turuvchi hovli. Ba‘zan rabot so‘zini forscha-tojikcha *rabad* (aniqrog‘i, rabaz) so‘zi bilan (“qal‘a devori”, keyinchalik “shahar ichi”, “shahar atrofi”) adashtirishadi. Rabat deb “otlar bog‘lab qo‘yiladigan joy” (termining etimologik jihatdan kelib chiqishi ham shunday) atalgan; rabat deb qozilar uchun (e‘tiqod uchun kurashuvchilar) qayta nomlangan, chunki ular chegara hududlarida joylashib, “ularning musulmonlarga hujumini aks ettirib, dushmanlar bilan yuzma-yuz yashashgan”<sup>156</sup>. Rabat deb devorlarning o‘zlari nomlangan, chunki bu arabcha termin arab mualliflari tomonidan qo‘llanilgan<sup>157</sup>.

Hozirgi o‘zbek tilida “ravot” so‘zi qishloq nomlari sifatida ham, shuningdek, to‘rt tomoni devor bilan o‘rab olingan hovli ma‘nosida ham qo‘llanadi. Ravot Xorazm viloyati Urganch tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Ribot yoki rabot – arabcha “otlarni bog‘laydigan yer”, “bog‘lamoq” fe‘lidan olingan. Boshqa manbalarda Rabot – qo‘rg‘on, istehkom ma‘nolarini ifodalashi qayd etiladi<sup>158</sup>. Ko‘rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan izohlar bir-birini to‘ldirib, bir-biriga yaqinligi namoyon bo‘lmoqda.

**OLG‘ABOS** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi mahalla nomi. Xorazm viloyati Gurlan tumanida Olg‘a nomidagi qishloq XX

<sup>154</sup> Бартольд В. В. Сочинения. – Т. I. – С. 247.

<sup>155</sup> Бартольд В. В. Сочинения, Т. III. – С. 119.

<sup>156</sup> Бартольд В. В. Сочинения. – Т. II. Ч. II. – С. 202.

<sup>157</sup> Бартольд В. В. Сочинения. – Т. II. Ч. I. – С. 200.

<sup>158</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 400. 403.

asrning birinchi yarmi o'rtalarida paydo bo'lgan bo'lib, u ilg'orlardan biri bo'lishi kerak, deb shunday atalgan. Ushbu atama so'z sifatida *oldinga, ilgariga* ma'nolarini ifodalaydi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qora'zak tumanining g'arbiy tomonida Chimboy tumani bilan chegara hududida Olg'abos nomli aholi manzili mavjud. *Olg'abos* atamasi ideologik atama hisoblanib, rivojlanishlar va yuksalishlar bo'lsin, degan yaxshi niyatlarda shu nom qo'yilgan<sup>159</sup>.

**PAYMARD** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi mahalla nomi. Joy nomi Jizzax viloyati Baxmal tumani Paymard qishlog'idan ko'chib kelgan aholi tomonidan qo'yilgan.

**HISOR** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi Farovon mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Hisor (arabcha) – istehkom qal'a, mudofaa devori. V. V. Bartold arab geograflari *hisor* o'rniga ko'proq *hasr* so'zini ishlatgan deya keltiradi<sup>160</sup>.

**SHO'RO'ZAK** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi Paymard mahallasi tarkibidagi qishloq va ariq. Sirdaryo viloyati Guliston tumanidan o'tuvchi Sho'ro'zak arig'i nomidan olingan. "O'zak" so'zidan tarkib topgan. Xususan, suv joy nomlari o'rnida o'zak, o'qo'zak (daryocha) so'zining o'zgarishidan paydo bo'lgan. O'zbekistonda, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida ham o'zak (o'zek) komponenti bilan murakkablashgan toponim ko'p, asosan, gidronimlar uchraydi: *Ko'ko'zak, Injenero'zak, Terano'zak* va boshq. Qadimgi turkiy tilda *ozuk – katta bo'lmagan suv hovuzi*<sup>161</sup>; hozirgi turkiy tillarda *ozuk – anhor, daryocha*<sup>162</sup>. Uzak (uzek) ukuz – "daryo" so'ziga borib taqaladi: o'kuz+ak – "kichik daryo", "daryocha"<sup>163</sup>.

**PARPI OTA** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi Nurobod mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Zomin tumani Parpiota nomli qishloq bor. Parpi ota – *ota so'zi ulug'lash, muqaddas, ko'pchilik*

<sup>159</sup> O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 288.

<sup>160</sup> Кораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари – Т, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 240 б.

<sup>161</sup> Махмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк. Солих Муталлибов таржимаси асосида нашрга тайёрловчи Қосимжон Содиков. –Тошкент: Фафур Фулом нашриёт-матба ижодий уйи, Т. 1. – С. 101.

<sup>162</sup> Радлов В. В. Опыт словаря, 1972.

<sup>163</sup> O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 579.

*kasalliklarni davolovchi, yordamchi* ma'nosini beradi. Hududda yashaydigan aholi mazkur joydan ko'chib kelganligi sababli shu joy nomini olganlar. Parpisoy degan joylar boshqa hududlarda ham uchraydi<sup>164</sup>.

**TURKLAR** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi Nurobod mahallasi tarkibidagi qabriston nomi. Turk nomidagi qishloqlar ta'rifi yuqorida keltirilgan.

**GULISTON** – Sayxunobod tumani Guliston mahallasidagi qishloq. Rossiya imperiyasi bosqini davrida ko'chirib keltirilgan rus aholisi tomonidan barpo qilingan “Obetovanniy” (1896) qishlog'i o'rnida joylashgan<sup>165</sup>.

**G'ALABA** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi Do'stlik mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. G'alaba nomli mahalla Xorazm viloyati Bog'ot tumanida ham bor. Ikkinchi jahon urushidan qo'lga kiritilgan g'alaba sharafiga shunday nomlangan. Hududda Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari sharafiga yodgorlik majmuasi o'rnatilganligi sababli mahalla shunday atalgan.

**TO'RTKO'L** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi Nurli yo'l mahallasi joylashgan qabriston nomi. Shuningdek, Andijon viloyati Izboskan tumanida shu nomdagi qishloq bor. Qoraqalpog'istonda shahar, Buxoroda tuman, Shahrisabzda ham qishloq To'rtko'l nomi bilan ataladi. Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'oti turk” asarida “To'rt burchak” ma'nosida keladi (“To'rti gul”, “To'rt kil”, “To'rt ko'l”). Demak, qadimda “To'rtko'l”, “To'rt burchak” ma'nosini bildirgan. Shuning uchun V.V.Bartold tarixiy asarlarda uchragan “To'rtko'l” so'zini “chor devor xarobasi” deb izohlagan. Bundan ma'lum bo'ladiki, To'rtko'l qishlog'i nomini “To'rtta ko'l” (ya'ni suv havzasi) deb izohlash ilmiy jihatdan to'g'ri emas (afsuski, mana shunday talqin qilish xalq orasida tarqalgan). Bulardan anglashiladiki,

---

<sup>164</sup> Кораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 240 б.

<sup>165</sup> Қудратов С. Қахрамонлар юрти тарихи. 2023.

“To‘rtko‘l” qadimiy “chordevor” – eski qishloq vayronasi ma’nosini beradi<sup>166</sup>.

**SHODLIK** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi mahalla nomi. Shodlik nomli mahalla Xorazm viloyatining Gurlan va Xonqa tumanlarida bor. Mustaqillik yillarida qo‘yilgan nom bo‘lib, mazkur so‘z “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *shod-xurram holati, xursandlik, sevinch, quvonch* ma’nolarini ifodalashi qayd etiladi<sup>167</sup>.

**GULBULOQ** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi mahalla nomi. Xalq etimologiyasiga ko‘ra, gulzor bo‘lsin deb shunday nomlangan. Uning tarkibi ikki komponent: *gul* so‘zi va *-buloq* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. *Gul* – ziynat uchun ekiladigan yoki o‘zi o‘sadigan gulli o‘simliklar, chechaklar. Demak, *Gulbuloq* – “*gullar bilan ishg‘ol etilgan yer*”, “*gulshan*”, “*chamanzor*”, “*gul ekilgan obod joy*” degan ma’nolarni anglatadi.

**DO‘STLIK** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi mahalla nomi. Jizzax viloyati tarkibida Do‘stlik nomidagi shahar va tuman mavjud. O‘tgan asrning 70-yillari boshida Jizzax va Sirdaryo viloyati hududidagi cho‘l hududlar o‘zlashtirila boshlandi. Sobiq Ittifoqning turli hududlaridan cho‘lni o‘zlashtirish uchun ko‘plab mutaxassislar ko‘chib kelishdi. Bir qator yangi tumanlar, shaharchalar, qishloqlar qurildi. Yangi aholi maskanlariga yangi nomlar berildi. Millati, tili, e’tiqodidan qat’i nazar, barcha mehnatkash xalq bir tan bir jon bo‘lib cho‘lni obod qilish uchun jonbozlik ko‘rsatishdi. Turli millat va elat vakillarining hamkorligi sharafiga yangi tashkil etilgan manzilgohlarga Do‘stlik nomi berilgan. Do‘stlik so‘zi ijtimoiy-axloqiy va psixologik tushuncha. O‘zaro hurmat, yoqtirish, manfaatlarning umumiyliigi, yaqinlik, bir-birini tushunishga asoslangan kishilar o‘rtasidagi munosabat shaklini ifodalaydi. Do‘stlik millat va xalqlar o‘rtasidagi ijobiy aloqalarda ham o‘z ifodasini topadi. Hozirgi davrda ko‘p millatli mamlakatimizning rivojlanishi uchun xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik nihoyatda muhim. Do‘stlik oykonimi haqiqatdan Mirzacho‘lni o‘zlashtirishda qatnashgan saksondan ortiq millat va elat vakillarining hamkorligi sharafiga berilgan

<sup>166</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 457.

<sup>167</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати, IV жилд, 591 бет.

nomdir. Nom rasmiy-ma'muriy tarzda berilgan, xalqlarning ittifoqligi, birgalikda xo'jalik yuritishi, do'stligi kabi omillar uning paydo bo'lishida ijtimoiy asos vazifasini bajargan<sup>168</sup>.

**NUROBOD** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi mahalla nomi. Nurobod nomi bilan yuritadigan mahallalar Xorazm viloyati Xonqa va Gurlan tumanlarida bor. Ushbu termin arabcha “yorug‘lik” ma’nosini bildiruvchi *nur* va forscha “*odam yashaydigan, ishlov berilgan*” ma’nolarini ifodalovchi *obod* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil qilingan toponim hisoblanadi. Aslida, *obod* so‘zi bilan yasalgan geografik nomlar asosan aholi yashaydigan punkt nomlarini yasashda qo‘llanilib, u ishtirok etgan nomlar respublikaning turli hududlarida ko‘plab uchraydi. Shuningdek, Nurobod nomi Respublikaning boshqa hududlarida ham qayd etiladi. U *nur* va *obod* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. *Obod* so‘zi, toponimist T.Rahmatov qayd qilishicha, nomlar tarkibida kelib, “*yangidan qurilgan, tashkil qilingan*” ma’nosini beradi. Mazkur so‘z bilan yasalgan geografik nomlar asosan aholi yashaydigan manzilgoh nomlarini yasashda qo‘llanilib, u ishtirok etgan nomlar faqat Markaziy Osiyo respublikalaridagina emas, Eron, Afg‘oniston va Pokistonda ham keng tarqalgan. O‘rta eron tilidagi **apam** – *aholi yashayotgan joy, obod qilingan, gullatilgan* ma’nosidagi bu so‘z bilan yasalgan joy nomlari Eron hududida eramizning III–IV asrlari, sasoniylar davridayoq uchraydi. Shuningdek, **apam** so‘zi bilan yasalgan nomlar qadimgi Armanistonda ham uchraydi. Markaziy Osiyoga “**obod**” terminining kirib kelishi arablar bosqini davrida, taxminan, VII–VIII asrlarda fors-tojik dialektlarining tarqalishi bilan bog‘liq. Yoqutning xabar berishicha, XIII asrda, ayniqsa, mahsuldor bo‘lgan. Respublikamizdagi *Rahmatobod arig‘i* (Samarqand tumani), *Yangiobod arig‘i* (Bulung‘ur tumani) singari ko‘plab geografik nomlar mazkur terminning joy nomlari yasashda hozir ham sermahsul ekanligini ko‘rsatadi<sup>169</sup>.

**BAXMALSOY** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi mahalla nomi. Toponimning birinchi ma’noli bo‘lagi Baxmal tumani

<sup>168</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 95.

<sup>169</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 279.

nomiga borib taqalsa, soy esa gidronimik indikator, ya'ni gidronimik aniqlagich hisoblanadi. Ular ba'zan alohida holda toponim bo'lib kela oladi, ko'pincha esa toponimik aniqlagich vazifasida kelishi kuzatiladi. Bu toponim Baxmalsoydan ko'chib kelganlar istiqomat qiladigan joy nomi ma'nosini bildiradi.

**NURLI YO'L** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi mahalla nomi. Mazkur termin mustaqillik yillarida qo'yilgan nom bo'lib, u arabcha *yorug'lik* ma'nosini bildiruvchi *nur* so'ziga o'zbekcha *-li* qo'shimchasini hamda kishilar yoki transport qatnovi uchun belgilangan uzun yer bo'lagi ma'nosini bildiruvchi *yo'l* so'zlarining qo'shilishidan hosil qilingan nomdir. Nur termini arabcha-forscha bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da mazkur so'z quyidagi ma'nolarda ifodalanadi: "*Nur sochuvchi, nur tarqatuvchi, nurli, porloq*"<sup>170</sup>. Xorazm viloyati Gurlan tumanida Nurliyo'l nomli mahalla bor<sup>171</sup>.

**SHOLIKOR** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi qishloq nomi. Xorazm viloyati Gurlan tumanida Sholikor nomli qishloq bor. Ushbu termin so'z sifatida sholi ekib, guruch yetishtirish bilan shug'ullanuvchi dehqon ma'nosini bildirib, mazkur hudud faqatgina sholi yetishtirishga mo'ljallangan bo'lgani uchun ham qishloq shunday nomlangan<sup>172</sup>.

**NUROTA** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi Sintob mahallasi tarkibidagi qishloq va qabriston nomi. Navoiy viloyati Nurota tumanidan ko'chib kelgan aholi tomonidan shunday nomlangan. Nurota dastlab (IX asr) *Nur* nomi ostida buxorolik tarixchi Narshaxiy asarida uchraydi<sup>173</sup>. Boshqa bir xil nomli aholi punktidan ajratish uchun uni *Nuri Buxoro* deb atashgan (masalan, Miyonqol va Zarafshon daryosi irmog'i oralig'idagi – Samarqand ostida Oqdaryo va Qoradaryo qishlog'i Nuri Miyonko'l deb atalgan. *Nur* so'zi arab tilidan o'zlashgan bo'lib, u "yorug'", "oy" ma'nolarini ifodalaydi. "Nur" so'zi bilan nomlangan joylar (Nuriston, Nurobod, Nurota) musulmon xaritalarida tez-tez takrorlanadi. Katta ehtimol bilan mazkur so'z ostida islom dini nazarda

<sup>170</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати, III жилд, – Б. 66.

<sup>171</sup> O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 267.

<sup>172</sup> O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 576.

<sup>173</sup> Наршахий, Бухоро тарихи, 16, – Б. 20.



tutiladi. *Nurota cho‘qqisi (Nuratau)*ni mo‘g‘ulcha Nuru – “*tog‘ cho‘qqisi*” so‘zi bilan tushuntirish mumkin<sup>174</sup>.

**SHO‘RO‘ZAK** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi Baxmalsoy mahallasi tarkibidagi qabriston nomi. Sirdaryo viloyati Guliston tumanidan o‘tuvchi Sho‘ro‘zak arig‘i nomidan olingan. “O‘zak” so‘zidan tarkib topgan. Xususan, suv joy nomlari o‘rnida o‘zak, o‘qo‘zak (daryocha) so‘zining o‘zgarishidan paydo bo‘lgan. O‘zbekistonda, shu jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham o‘zak (o‘zek) komponenti bilan murakkablashgan toponim ko‘p, asosan gidronimlar uchraydi: *Ko‘ko‘zak, Injenero‘zak, Terano‘zak* va boshq. Qadimgi turkiy tilda *ozuk – katta bo‘lmagan suv hovuzi*; hozirgi turkiy tillarda *ozuk – anhor, daryocha*. Uzak (uzek) ukuz – “daryo” so‘ziga borib taqaladi: o‘kuz+ak – “kichik daryo”, “daryocha”<sup>175</sup>.

**GULBULOQ** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi Gulbuloq mahallasida qabriston nomi. Xalq etimologiyasiga ko‘ra, gulzor bo‘lsin deb shunday nomlangan. Uning tarkibi ikki komponent: *gul* so‘zi va *-buloq* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. *Gul* – ziynat uchun ekiladigan yoki o‘zi o‘sadigan gulli o‘simliklar, chechaklar. Demak, *Gulbuloq* – “*gullar bilan ishgo‘l etilgan yer*”, “*gulshan*”, “*chamanzor*”, “*gul ekilgan obod joy*” degan ma‘nolarni anglatadi.

**NAMUNA** – Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi Guliston mahallasida joylashgan qabriston nomi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *namuna* so‘ziga quyidagicha izoh beriladi: “*O‘rnak bo‘la oladigan, ibrat olsa, ergashsa arziydigan, shaxs yoki narsa: ibrat, o‘rnak*”<sup>176</sup>. *Namuna* nomidagi mahalla. Xorazm viloyati Bog‘ot tumanida, bundan tashqari, Farg‘ona viloyati Qo‘shtepa, Quva, Farg‘ona tumanlarida keng tarqalgan. Kishilar o‘z qishloqlarini boshqalarga o‘rnak, ibrat bo‘lsin, degan maqsadda shunday nomlagan bo‘lishlari mumkin<sup>177</sup>.

<sup>174</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 280.

<sup>175</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 59.

<sup>176</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати, III жилд, 17-бет.

<sup>177</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 267.

## SARDOBA TUMANI

**SARDOBA** – Sirdaryo viloyatidagi tuman nomi. Tuman 1964-yilda Ilichevsk tumani nomi bilan tuzilgan. 1992-yilda Sharof Rashidov tumani deb nomlandi. 2004-yilda Sardoba tumani deb o‘zgartirildi. Tuman tarkibiga Paxtaobod shaharchasi, Cho‘lquvar, Guliston, Yangiqishloq, Gulzor, Yangiobod, Qo‘rg‘ontepa nomli mahallar mavjud. “Sardoba” – tojikcha “sard” – “sovuq”, “ob” – “suv” so‘zlaridan hamda ot yasovchi *-a* qo‘shimchasidan tarkib topgan bo‘lib, “muzdek suv saqlanadigan joy” degan ma‘noni bildiradi. “Sardoba” asli suv inshooti nomi. Oqar suvi bo‘lmagan joylarda usti gumbazsimon qilib yopilgan, tagi va devorlari tosh, g‘ishtdan terilgan, suv kiradigan teshigi, ustida mo‘risi va suvidan foydalanish uchun odam kirib chiqadigan maxsus joyi bo‘lgan qadimiy suv havzasi – Sardoba deb yuritilgan. Bu nomdan ko‘plab joy nomlari kelib chiqqan: Sardoba (ko‘p bora uchraydi), Sardoba Malik, Sardoba Raimbek, Katta Sardoba, Yakka Sardoba, Yusuf Sardoba, Sardobao‘g‘iz va shu kabilar. Usti gumbazsimon bo‘lgani uchun ba‘zan *gumbaz* deb ham yuritiladi. Sardoba “sovuq suv” degan ma‘noga ega<sup>178</sup>.

**PAXTAOBOD** – Sirdaryo viloyati Sardoba tumani ma‘muriy markazi nomi, shaharcha, Sayxunobod tumanidagi mahalla, qabriston, Mirzaobod tumanidagi qishloq – Paxtaobod nomi bilan yuritiladi. Paxtaobod nomi *paxta* va *obod* so‘zlaridan iborat. Apellativning birinchi qismi *paxta* – g‘o‘za o‘simligining nomi. G‘o‘za o‘simligining momig‘i ham *paxta* deb ataladi. Oykonimning ikkinchi komponenti *obod* so‘zi esa – ba‘zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo‘shilib joy nomini yasaydigan, “*obodonlashtirilgan*”, “*o‘zlashtirilgan*”, “*gullab yashnagan*” ma‘nosidagi so‘z<sup>179</sup>. *Paxtaobod* ko‘p sonli aholi punktlari, hatto kanallar nomi bo‘lib, u “*paxta ekib o‘zlashtirilgan joy*” ma‘nosida yoki paxtaga asoslangan va paxta tufayli obod qilingan aholi manzilgohi nomini anglatadi.

---

<sup>178</sup> Массон М. Е. Проблема изучения цистерн-сардоба. – Т., 1935, O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 418.

<sup>179</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 316.

**SAROYQISHLOQ** – Sirdaryo viloyati Sardoba tumanida qishloq nomi. Qishloqqa Jizzax viloyati G‘allaorol tumani Saroy qishlog‘idan kelgan aholi vakillari tomonidan Mirzacho‘ldagi dashtli yerlarni o‘zlashtirish yillarida asos solingan<sup>180</sup>.

**GUMBAZ** – Sirdaryo viloyati Sardoba tumanidagi qishloq nomi. *Gumbaz* – qubbali bino, sag‘ana, ibodatxona, sardoba (toza suv saqlanadigan sardobalar ustiga gumbaz qurilgani uchun *gumbaz* deb ham atalgan)<sup>181</sup>. Sirdaryo viloyati Sardoba tumanining Gumbaz qishlog‘ida XVI asrda qurilgan tarixiy obida saqlangan. Shuning uchun tuman nomi ham Sardoba deb nomlangan.

**YOG‘OCHLI SARDOBA** (Og‘och sardoba) – Sirdaryo viloyati Sardoba tumani Gumbaz qishlog‘ida, Toshkent – Samarqand – Buxoro shaharlarini bog‘lovchi M39 avtomagistral yo‘li yoqasida joylashgan me‘moriy yodgorlik. U, shuningdek, Mirzacho‘lda mavjud bo‘lgan 3 ta sardobadan biri va viloyatda shu turdagi yagona inshootdir. Yog‘ochli sardoba o‘rta asrlarda bino qilingan. Hozirda unga nisbatan “*Og‘och*” nomi ham qo‘llaniladi. Sardoba XVI asrda o‘zbek hukmdori Abdullaxon (1557-1598) davrida bunyod etilgan bo‘lib, uning Amir Temur (1370-1405) davrida qurilishi bilan bog‘liq rivoyat bizgacha etib kelgan. Tarixiy yodgorlik O‘zbekiston moddiy va madaniy merosining ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan – davlat muhofazasiga olingan. U Sirdaryo viloyatidagi 4 ta ekoturizm obyektlaridan biri hamdir. Sardobaning atrofida sizot suvlar ko‘tarilib ketishi oqibatida hovuz suvi hozirda iste‘molga yaroqsiz holatga kelib qolgan.

**QO‘RG‘ONTEPA** – Sirdaryo viloyati Sardoba tumanida mahalla nomi. Umuman, O‘zbekiston hududida “qo‘rg‘on” so‘zi qo‘shilib aytiladigan aholi punktlari ko‘plab uchraydi. Masalan, Farg‘ona vodiysida Uchqo‘rg‘on, Bozorqo‘rg‘on, Tepaqo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘on, To‘raqo‘rg‘on va h.k.lar bor. Bu xildagi joy nomlarining tarixi ikki davr bilan bog‘liq. Yo arablar kelgach vayron qilinib, yangidan qad ko‘targan joy, yoki mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng paydo bo‘lgan qishloqlar.

<sup>180</sup> Ko‘rsatilgan asar. – B. 424.

<sup>181</sup> Кораев С. Топонимика. – Т., 2006. – Б. 180.

Ayrimlari esa (masalan, Tepa qo‘rg‘on, Qo‘rg‘oncha) Shayboniylar davri bilan bog‘liq. Hudud aholisi tomonidan bu nom o‘zlarining oldin yashagan joy nomi sabab qo‘yilgan<sup>182</sup>.

**XALQOBOD** – Sirdaryo viloyati Sardoba tumanida mahalla nomi. Shuningdek, Buxoro viloyati Vobkent tumani, Xorazm viloyati Yangibozor tumanidagi shu nomdagi qishloqlar mavjud. Nom *xalq* va *obod* so‘zlaridan iborat. Toponimning birinchi komponenti – *xalq* so‘zi biror mamlakat yoki davlat aholisini, millat yoki elatni anglatadi. Uning ikkinchi komponenti – *obod* so‘zi ba‘zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo‘shilib joy nomini yasaydigan, “*obodonlashtirilgan*”, “*o‘zlashtirilgan*”, “*gullab-yashnagan*” ma’nosidagi so‘z, affiks. Demak, Xalqobod – “*biror hudud aholisi, millat yoki elat tomonidan o‘zlashtirilgan, obodonlashtirilgan joy*” ma’nosini anglatadi<sup>183</sup>.

**FAYZIOBOD** – Sirdaryo viloyati Sardoba tumanida mahalla nomi. Shuningdek, Farg‘ona viloyati Oltiariq tumanida shu nomdagi qishloq mavjud. *Fayz* – “*ko‘rkamlilik, jozibadorlik*” hamda *obod* – “*obodon*”. *Obod* so‘zi tojikcha “*ob – suv, obod – suvli, suv yetarli joy*” degan ma’noni bildiradi. Bu so‘z shahar, qishloq, umuman, aholi manzilgohlariga nisbatan ishlatiladi. Asosiy ma’nosi “*gullagan*” demakdir. Demak, Fayzobod – “*jozibali obod aholi yashash manzili*” ma’nosini ifodalaydi. Respublikamiz ijtimoiy hayotdagi voqealardan *Dehqonobod, Jonobod, Yoshlarobod, Mehnatobod, Navro‘zobod, Nurobod, Obodmahalla, Paxtaobod, Fayziobod, Xalqobod, Chinobod, Yangiobod* kabi joy nomlarining yaratilganligini ko‘rish mumkin<sup>184</sup>.

**ZOMIN** – Sirdaryo viloyati Sardoba tumanidagi qishloq nomi. Jizzax viloyatidagi Zomin tumanidan ko‘chib kelgan aholi yashaydigan qishloq bo‘lganligi uchun shunday atalgan. Toshkent viloyatining Bekobod va Piskent tumanlarida Zominovul nomli qishloqlar bor. Movarounnahrda qadimiy aholi maskanlaridan biri Zomin deb ataladi. Buyuk ipak yo‘lida joylashgan. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonning Jizzax viloyati tarkibidagi shaharcha, Zomin tumanining ma’muriy markazi.

<sup>182</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 328.

<sup>183</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 509.

<sup>184</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 124.

Suv ta'minoti ushbu maskandan oqib o'tuvchi Zominsuv soyidandir. XV asrda ma'muriy jihatdan Samarqand viloyati tarkibida bo'lgan. Zomin O'rta asrlarda yirik shahar bo'lgan. Birinchi marta ushbu nom (Zomin) X–XI asrlardagi arab geograflari – Istaxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy va boshqalar tomonidan tilga olinadi. Ilk o'rta asrlarda u Susanda, Sarsanda, Sabza (“yashil”) deb ham nomlangan<sup>185</sup>.

**ZOMINLIK** – Sirdaryo viloyati Sardoba tumanidagi qishloq nomi. Aholi tarkibini asosan Zomin tumanidan ko'chib kelganlar tashkil etadi. Shuning uchun Zominlik nomini olgan. *Zomin* + *-lik* mazkur joydan yetishib chiqqan insonlarni ko'rsatuvchi qo'shimchadir.

**RAVOT** – Sirdaryo viloyati Sardoba tumanidagi mahalla nomi. O'zbekistondagi ko'p sonli aholi manzilgohlari nomlarida “rabot, ravot” termini ishtirokida yasalgan toponimlar uchraydi. Masalan, Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanida qishloq va qabriston, Xovos tumanida temir yo'l bekati, Sardoba tumanida mahalla, Xorazm viloyati Urganch tumanida, Samarqand viloyatidagi Beklar Ravoti, Ravot, O'rta Ravot, Yuqori Ravot (Urgut t.) nomlari kabi. *Ravot* (aniqrog'i, *ribat*) arabchadan o'zlashgan bo'lib, dastlab (arablar bosqini davrida) dushmanlar hujumidan chegarani qo'riqlovchi ot otryadlari uchun to'xtash joyi vazifasini bajargan<sup>186</sup> yoki chegarada musulmonlar egalik qiluvchi mustahkam joy ma'nosini ifodalagan<sup>187</sup>. Keyinchalik ravot so'zi bir necha ma'nolarda qo'llanilgan: 1) qo'rg'onchi qorovullar; 2) savdo yo'llari uchun mustahkam turar joy (ravot); 3) karvonsaroy, doimiy turuvchi hovli. Ba'zan rabot so'zini forsha-tojikcha *rabad* (aniqrog'i, *rabaz*) so'zi bilan (“qal'a devori”, keyinchalik “shahar ichi”, “shahar atrofi”) adashtirishadi. Rabat deb “otlar bog'lab qo'yiladigan joy” (termining etimologik jihatdan kelib chiqishi ham shunday) atalgan; rabat deb (e'tiqod uchun kurashuvchilar) qayta nomlangan, chunki ular chegara manzilgohlarida joylashib, “ularning hujumini aks ettirib, dushmanlar bilan yuzma-yuz yashashgan”<sup>188</sup>. Ayrim rabotlarning binolari xonaqohlar sifatida ishlatilib, ularda turli so'fiy tariqatlarga

<sup>185</sup> O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr.– Toshkent, 2022. B. 547.

<sup>186</sup> Бартольд В. В. Сочинения. –Т. I. – С. 247.

<sup>187</sup> Бартольд В. В. Сочинения, т., III. – С. 119.

<sup>188</sup> Бартольд В. В. Сочинения. Т. II. Ч. II. – С. 202.

mansub zohidlar qo‘nim topgan. Shuning uchun o‘rta asrlarda qurilgan karvonsaroylar ham ko‘pincha “rabot” deb atalgan. Rabotlar, odatda, xususiy mulk sifatida ayrim shaxslar yoki diniy tashkilotlar tomonidan ajratilgan mablag‘larga qurilgan. Chunki bunday ishga pul tikish ko‘p foyda keltirgan, shuning uchun uni ochishga hokimiyatdan maxsus ruxsat olish talab etilgan. Qurilgan rabotlar atrofida keyinchalik qishloqlar vujudga kelib, ularning aholisi kelib ketuvchi karvonlarga xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullangan. Bu, ayniqsa, cho‘l va dashtlarda joylashgan rabotlarga xos bo‘lgan hol edi. Xususiy rabotlar, odatda, ularni qurdirgan shaxslarning ismlari bilan aytilgan<sup>189</sup>. Hozirgi o‘zbek tilida “ravot” so‘zi qishloq nomlari sifatida ham, shuningdek, to‘rt tomoni devor bilan o‘rab olingan hovli ma’nosida ham qo‘llanadi. Ribot yoki rabot – arabcha “otlarni bog‘laydigan er”, “bog‘lamoq” fe’lidan olingan. Boshqa manbalarda Rabot – qo‘rg‘on, istehkom ma’nolarini ifodalashi qayd etiladi. Ko‘rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan izohlar bir-birini to‘ldirib, bir-biriga yaqinligi namoyon bo‘lmoqda<sup>190</sup>.

**ULUG‘BEK** – Sirdaryo viloyati Sardoba tumanida mahalla. Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahridagi shu nomdagi mahalla bor. Mutafakkir olim, davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek nomi bilan ataladi. Ulug‘bek (buyuk, ulkan), Usmon (jasorat, mardlik, qo‘rqmas) kabi kishilar ismi ko‘plab joy nomiga qo‘yilganligini ko‘rish mumkin<sup>191</sup>.

## **SIRDARYO TUMANI**

**SIRDARYO** – Sirdaryo viloyatidagi tuman nomi. Tumanda Sirdaryo, Baxt shaharlari, Ziyokor, Malik, J.Mamanov shaharchalari, Paxtazor, Sirdaryo, Turon, Usmon Yusupov, Xalqobod, Cholto‘qay, Sholikor, Haqiqat nomli mahallalar bor.

**SIRDARYO** – shahar. Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani ma’muriy markazi. Rossiya imperiyasi bosqini davrida ko‘chirib keltirilgan rus

---

<sup>189</sup> Ибн Ҳавқал. Мовароуннахр / араб тилидан тарж., изоҳлар муаллифи Ш.С.Қамолитдин, масъул муҳаррир Ф.С.Хусанов.- Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2011. – С. 105–106.

<sup>190</sup> О‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – В. 399.

<sup>191</sup> О‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – В. 490.

aholisi tomonidan barpo qilingan “Sirdarinsk” (Naxalovka), “Samsonovka” (1907) qishlog‘i o‘rnida joylashgan.

**MOYLIKO‘L** – qishloq. Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanida qishloq nomi. Qishloqning yonida “*Moyli ko‘l*” nomli ko‘l joylashgan. Ko‘l hozirda qurib ketgan<sup>192</sup>.

**QOZOQOVUL** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidagi qishloq nomi. Bu qishloq aholisining asosiy qismini qozoq millati vakillari tashkil etganligi *Qozoqovul* deb atalishiga sabab bo‘lgan. Mazkur nom turli siyosiy voqealar bilan bog‘liq tarixiy ma‘lumotlar berish bilan ajralib turadi. Jumladan, tarixchi Mahmud ibn Valining aytishicha, Buxoro hukmdori Imomqulixon o‘z amakisi Valimuhammadxonga qarshi kurashda qozoq xoni Ishim Sultondan yordam so‘ragan va evaziga uning o‘g‘li Jonibek Sultonga Sog‘arj tumanini tuhfa qilgan<sup>193</sup>. Ko‘rinib turibdiki, qozoqlarning Movarounnahrga kelib o‘rnashishlari, ko‘pchiligining qaytib ketishlari bir paytda sodir bo‘lmasdan, vaqti-vaqti bilan yuz berib turgan va bu hodisa mahalliy toponimiyada o‘z aksini topgan.

**QOLGAN SIR** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidagi qishloq va ko‘l nomi. Toshkent viloyati Bekobod tumanida ham shu nomdagi qishloq va ko‘l bor. Joy nomi ko‘l nomi bilan bog‘liq rivoyatlarga asoslangan. Ko‘lga suv oqib kirmaydi va oqib chiqmaydi. Xalq ko‘lning shu holatiga va rivoyatlarga asoslangan holda Qolgan Sir deb ataydi. *Qolgan Sir* – “Sirdaryo tomonidan qoldirilgan”, “Sirdaryoning eskisi”, “Sirdaryoning eski irmog‘i” ma‘nolarini anglatadi<sup>194</sup>.

**MIRISHKOR** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidagi qishloq, Boyovut tumanidagi mahalla nomi. *Mirishkor* so‘zi “o‘z ishining mohir ustasi”, “*omilkor*” degan ma‘noni bildiradi. Shuni ham ta‘kidlash joizki, o‘zbek millati tarkibiga kirgan *mirishkor* (*merishkor*) nomli qadimiy qabila ham mavjud. Qabila nomi “*ov hokimi, amiri*” degan ma‘noni anglatadi<sup>195</sup>.

---

<sup>192</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 258.

<sup>193</sup> Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихидан манбалар. – Тошкент, 1982. – Б. 107.

<sup>194</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 358.

<sup>195</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 251.

**MALIK** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidagi Ilg‘or va Intilish mahallari tarkibidagi qishloq nomi. Malik nomi cho‘li malik – “bepoyon cho‘l”, “Katta cho‘l”, “Sultonlik cho‘l”, *Malik* – hukmdor, shoh; *Malik* – hukmdorlarga tegishli bo‘lgan qishloq kabi ma’nomlarni anglatgan<sup>196</sup>.

**HAMZA** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidagi mahalla nomi. Respublikamizda ko‘plab aholi maskanlariga qo‘yilgan nom. O‘zbek yozuvchisi, kompozitor, rejissyor, jamoat arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziy sharafiga shunday atalgan. Tojikcha Niyoz – *yolvorib, tilab olingan farzandga* qo‘yiladigan ism. Hakim (*dono, bilimdon, tabib*), Hamid (*maqtashga arzigulik*), Hasan (*chiroyli, go‘zal*) kabi kishilar ismlariga qo‘shimchalar qo‘shish bilan yoki alohida holda joy nomlari yasalgan.

**ULUG‘BEK** – Sirdaryo tumanidagi Taraqqiyot mahallasida joylashgan joy nomi. Mutafakkir olim, davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek nomi bilan ataladi. *Ulug‘bek* (buyuk, ulkan), *Usmon* (jasorat, mardlik, qo‘rqmas) kabi kishilar ismi ko‘plab joy nomiga qo‘yilganligini ko‘rish mumkin.

**ISHONCH** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanida mahalla. Shuningdek, Xorazm viloyati Gurlan tumanida shu nomdagi mahalla bor. Ushbu so‘zning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ikkita ma’nosi qayd etiladi: a) ishonish hissi, tuyg‘usi; b) e‘timod etilgan, suyanilgan, umid bog‘langan shaxs yoki narsa tushunchalarini ifodalab, har ikkala ma’nosini ham nazarda tutgan holda qo‘yilgan nom<sup>197</sup>.

**TURKISTON** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanida mahalla. Shuningdek, Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi qishloq va mahalla nomi ham Turkiston deb atalgan. Markaziy Osiyo va Yevrosiyaning qadimiy-tarixiy nomlaridan biri sanaladi. Mazkur hudud qariyalarining aytishicha, bir zamonlar janubiy Qozog‘istonning Turkiston shahridan uchta oila kelib, shu yerda joylashadi va muqim yashab qoladi. Yillar o‘tishi bilan ular ko‘payib, ular aholining muayyan qismini tashkil etadilar. Shundan keyin mazkur hudud ham ular ko‘chib kelgan

---

<sup>196</sup> Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 240 б.

<sup>197</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 145.



shaharning nomi bilan, Turkiston deb atala boshlaydi. XV asr manbalarida Fargʻona vodiysidan shimoldagi joylar va Sirdaryoning quyi havzasidagi oʻng sohil yerlar shunday atalgan. “Boburnoma”da XV asr ikkinchi yarmi voqealari bayonida shahar (Yassi shahri) va oʻsha atrofdagi viloyat shu nom bilan qayd etilgan. “Tarixi Rashidiy” asarida Turkiston oʻlka nomi tarzida (Movarounnahr va Turkiston shaklida) keladi. “Boburnoma”da Sulton Abusaidning oʻgʻli Sulton Ahmad Samarqand taxtida hukmronligi chogʻida Turkiston hokimligiga taniqli amirlaridan boʻlmish Muhammad Mazid tarxonni tayinlagani, soʻngra undan mazkur viloyatni Shayboniyxon olgani, 903 (1497–1498)-yili Zahiriddin Bobur Andijondan Samarqand taxtini egallagani kelganida Shayboniyxon temuriy hukmdor Boysungʻur Mirzoning iltimosi bilan Turkistondan Samarqandga kelgani va Bobur qoʻshinidan yengilib qaytib ketgani yozilgan. “Shayboniyxon Turkistondin ilgʻab bizning yurtimiz ustiga kelib turdi. Bizning cherikimiz yaqin emas edi. Qishloq maslahatigʻa baʻzi Raboti Xojagʻa, baʻzi Kobulgʻa, baʻzi Sherozgʻa borib edilar. Bovujud hozir cherik kishisi bila yasab chiqildi. Shayboniyxon turush bermay, Turkistongʻa murojaat qildi” (B.58). Shuningdek, 906 (1500–1501)-yil voqealari bayonida Shayboniyxonning Turkistondan yana Samarqandga bostirib kelgani, muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Buxoro tomon chyekingani ham aytilgan<sup>198</sup>.

**DEHQONOBOD** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanida mahalla. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati tarkibidagi tuman nomi. *Dehqonobod* nomi ikki tarkibiy qismdan iborat: *dehqon* va *obod*. Dehqon – agrar sohada faoliyat koʻrsatadi, yerga egalik qiladi va unda xoʻjalik faoliyatini yuritadi. Dehqonning paydo boʻlishi ibtidoiy jamoat tuzumining parchalanishi jarayonida ixtisoslashuv yuz berib, dehqonchilikni paydo boʻlishi bilan bogʻliq. Markaziy Osiyoda dastlab jamoadan ajralib chiqqan katta yer egalari, baʻzan qishloq oqsoqollari “dehqon” deyilgan. Ular oʻzlarining devor bilan oʻralgan mustahkam qoʻrgʻonlariga ega boʻlganlar. Oʻrta asrlarga kelib dehqonlar qishloq xoʻjaligi iqtisodiyotining asosiy tayanchiga aylandi. Z.Doʻsimovning

<sup>198</sup> Oʻzbekiston joy nomlarining izohli lugʻati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 482.

yoʻzishicha, XI–XII asrlardan keyin ekin ekuvchi aholining barchasini dehqon deb ataganlar. Soʻnggi davrlarda Xiva xonligida katta yer egalari yollanib ishlovchi mardikorni dehqon deyishgan. Hozirgi kunda Oʻzbekistonda dehqon davlatdan yerni uzoq muddatga (10–50 yil) ijaraga olgan yirik fermer xoʻjaligi sohibi. Dehqonlar oʻzlashtirib, yangidan tashkil qilingan obod maskan – Dehqonobod. *Obod* – baʼzi otlarga yoki ayrim sifatlarga qoʻshilib joy nomini yasaydigan, “obodonlashtirilgan”, “oʻzlashtirilgan”, gullab-yashnagan, goʻzal maʼnosidagi soʻz. *Obod – asli ob – “suv” soʻzidan kelib chiqqan*, degan fikr ham bor.<sup>199</sup>.

**NAVOIY** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanida mahalla. Shuningdek, Navoiy shahri, Navoiy viloyatining maʼmuriy markazi ham shu nom bilan nomlandi. Buyuk oʻzbek shoiri, atoqli arbob Alisher Navoiy nomi bilan nomlangan (1441–1501).

**SHOLIKOR** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanida mahalla. Xorazm viloyati Gurlan tumanida shu nomdagi qishloq bor. Ushbu termin soʻz sifatida sholi ekib, guruch yetishtirish bilan shugʻullanuvchi dehqon maʼnosini bildirib, mazkur hudud sholi yetishtirishga moʻljallangan boʻlgani uchun ham qishloq shunday nomlangan<sup>200</sup>.

**BAHOR** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanida mahalla. Bu nom Respublikamiz hududida koʻp uchraydigan joy nomlaridan biri. Oʻzbek tilida yil faslini anglatsa-da, nom berishda joyning gullab-yashnagan, chiroyli, rivojlanayotgan maskan ekanligini eʼtirof etilishi nazarda tutiladi<sup>201</sup>.

**NUROBOD** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidagi qishloq nomi. Sayxunobod tumani va Shirin shahridagi mahalla nomi. Ushbu termin arabcha “yorugʻlik” maʼnosini bildiruvchi *nur* va forscha “*odam yashaydigan, ishlov berilgan*” maʼnolarini ifodalovchi *obod* soʻzlarining qoʻshilishidan hosil qilingan toponim hisoblanadi. Aslida, *obod* soʻzi bilan yasalgan geografik nomlar, asosan, aholi yashaydigan manzil nomlarini yasashda qoʻllanilib, u ishtirok etgan nomlar viloyatning turli

<sup>199</sup> Oʻzbekiston joy nomlarining izohli lugʻati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 106.

<sup>200</sup> Oʻzbekiston joy nomlarining izohli lugʻati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 559.

<sup>201</sup> Oʻzbekiston joy nomlarining izohli lugʻati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 46.

hududlarida ko‘plab uchraydi. Shuningdek, Nurobod nomi Shirin shahri va Sayxunobod tumanida mahalla nomi sifatida ham qayd etiladi. U *nur* va *obod* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. *Obod* so‘zi, toponimist T.Rahmatov qayd qilishicha, nomlar tarkibida kelib, “*yangidan qurilgan, tashkil qilingan*” ma’nosini beradi. Mazkur so‘z bilan yasalgan geografik nomlar asosan aholi yashaydigan manzilgoh nomlarini yasashda qo‘llanilib, u ishtirok etgan nomlar faqat respublikamiz yoki Markaziy Osiyo respublikalaridagina emas, Eron, Afg‘oniston va Pokistonda ham keng tarqalgan. O‘rta eron tilidagi *apam* – *aholi yashayotgan joy, obod qilingan, gullatilgan* ma’nosidagi bu so‘z bilan yasalgan joy nomlari Eron hududida eramizning III–IV asrlari, sosoniylar davridayoq uchraydi. Shuningdek, *apam* so‘zi bilan yasalgan nomlar qadimgi Armanistonda ham uchraydi. Markaziy Osiyoga “*obod*” topoformantining kirib kelishi arablar bosqini davrida, taxminan, VII–VIII asrlarda fors-tojik dialektlarining tarqalishi bilan bog‘liq<sup>202</sup>. Viloyatimizdagi *Yangiobod mahallasi* (Boyovut tumani), *Xalqobod qishlog‘i* (Guliston tumani), *Paxtaobod shaharchasi* (Sardoba tumani) singari ko‘plab geografik nomlar mazkur topoformantining joy nomlari yasashda hozir ham sermahsul ekanligini ko‘rsatadi.

**ZIYOKOR** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidagi shaharcha nomi. Mazkur termin fors tili orqali o‘zlashgan bo‘lib, u “O‘zbek tilining izohli lug‘ati“da *ilm tarqatuvchi, ma’rifatparvar, bilim targ‘ib qiluvchi* ma’nolarini ifodalaydi<sup>203</sup>. Boyovut tumanidagi mahalla, Sirdaryo tumanidagi qabristonga Ziyokor nomlari berilgan.

**BAXT** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidagi shahar nomi. Baxt – fors-tojikcha so‘z bo‘lib, taqdir, nasiba, ulush, saodat, qut degan ma’nolarni anglatadi<sup>204</sup>. Baxt shahri Rossiya imperiyasi bosqini davrida ko‘chirib keltirilgan rus aholisi tomonidan barpo qilingan Rossiyasi imperiyasi shahzodasi Aleksey nomi berilgan Buyuk Alekseevskiy (Велико Алесеевский) (1913) nomi bilan atalgan qishloq o‘rnida joylashgan.

<sup>202</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 279.

<sup>203</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2002. – B. 546.

<sup>204</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Б. 178.

**ILG'OR** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidagi mahalla nomi. Mazkur soʻzga “*Oʻzbek tilining izohli lugʻati*”da quyidagicha taʼrif beriladi: a) qoʻshinning oldingi qismi, avangardi; b) ishda, taraqqiyotda oldinda boruvchi, peshqadam; v) taraqqiyot, rivojlanishga, olgʻa siljishga xizmat qiluvchi, yangilikka boshlovchi”<sup>205</sup>.

**MA'RIFAT** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidagi qishloq, Xovos tumani va Yangiyer shahridagi mahalla, Sirdaryo tumanidagi qabriston nomi. *Maʼrifat* arabcha “*bilim, fan; maʼlumot*” maʼnolarini bildiradi.<sup>206</sup>

**OYDINYOʻL** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidagi Orzu mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Oydin va yoʻl soʻzlaridan tashkil topgan. Oydin soʻzi “*tiniq, toza, yaltiroq*” maʼnosida boʻlib, yoʻl “yoʻli ravon, yoʻli yorugʻ” maʼnosini anglatadi. *Oysimon, oy bilan yoritilgan, “oy chiqib, hammayoq oy nuri bilan yorigan, yorugʻ yoʻl”* soʻzlari orqali hosil qilingan joy nomi. Koʻchma maʼnoda – *yorugʻ, aniq* maʼnoni anglatadi. *Oydin* termini baʼzan *oyna* tarzida ham ishlatiladi<sup>207</sup>. Mustaqillik yillarida qoʻyilgan toponim.

**XALQOBOD** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidagi qishloq, Mirzaobod va Xovos tumanlaridagi aholi manzilgohlarining nomi. Nom *xalq* va *obod* soʻzlaridan iborat. Toponimning birinchi komponenti – *xalq* soʻzi biror mamlakat yoki davlat aholisini, millat yoki elatni anglatadi. Uning ikkinchi komponenti – *obod* soʻzi baʼzi otlarga yoki ayrim sifatlarga qoʻshilib joy nomini yasaydigan, “*obodonlashtirilgan*”, “*oʻzlashtirilgan*”, “*gullab-yashnagan*” maʼnosidagi soʻz, affiks. Demak, Xalqobod – “*biror hudud aholisi, millat yoki elat tomonidan oʻzlashtirilgan, obodonlashtirilgan joy*” maʼnosini anglatadi.

**FORISH** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanida joy nomi. Jizzax viloyati Forish tumani nomidan olingan. Forish soʻzi etimologiyasi koʻplab mutaxassislar diqqatini tortgan va turlicha talqin qilingan. “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”da nom quyidagicha izohlangan: “Mahalliy maʼlumotlar boʻyicha Forish qishlogʻining nomi Amir Temur

<sup>205</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд, – Б. 201.

<sup>206</sup> Oʻzbekiston joy nomlarining izohli lugʻati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. B. 245.

<sup>207</sup> Ҳасанов Х, Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Т.: Фан, 1965.

Samarqand atrofida qurdirmoqchi bo‘lgan “Parij” shahri nomidan olingan. Keyinroq mahalliy xalq shevasida bu atama Forij, Farish, Forish deb o‘zgarib borgan, degan taxmin mavjud”. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “Parij” so‘zi atoqli ot sifatida o‘zbek tiliga rus tili orqali o‘zlashgan, chunki faqat ruslar Fransiya poytaxtini Parij deb atashadi. Fransuzlar mamlakat poytaxtini Parij emas, balki Paris deb yozadilar, og‘zaki nutqda “s” harfi qoldirilib, “Pari” shaklida talaffuz qilishadi. Binobarin, “Parij so‘zi Amir Temur davrida bizga rus tili orqali kirib kelgan”, degan fikrni haqiqatga yaqin deb qabul qilib bo‘lmaydi. Shuni ham ta’kidlash joizki, hozirgacha Amir Temur va undan keyingi davr yozma manbalarida Forishni Parijga nisbat berib atalganligi to‘g‘risida hech qanday ma’lumotlar aniqlanmagan. Bundan shunday xulosa chiqadiki, *Forish* so‘zining Fransiya poytaxti Parijga hech qanday aloqasi yo‘q. Forish so‘zining yana bir izohi B.O‘rinboyevga tegishli. Olimning yozishicha, “Toponim sug‘d tilidagi *far, par, bar, var* (yuqori) va turkiy, mo‘g‘ul tillaridagi *sin, shin* (xalqlar) qismlaridan tashkil topgan. *Forish, farshin* – “*yuqorida istiqomat qiluvchi xalqlar demakdir*”. Bu talqin esa haqiqatga uncha to‘g‘ri kelmaydi, shu bois, uni sharhlash ham maqsadga muvofiq emas, deb hisobladik. Bizningcha, Forish – yasama so‘z, uning paydo bo‘lishi tumanning tashkil etilishi bilan bog‘liq. Tuman nomiga hozirgi tuman markazidan 30 km. shimoli-g‘arbda, Nurota tog‘lari etagidagi qadimiy *Porasht* qishlog‘ining nomi asos bo‘lgan. Mahalliy xalqning aytishicha, o‘tgan asrning 30 yillarida respublika rahbarlaridan biri bo‘lgan Yo‘ldosh Oxunboboyev yangi tuman tashkil etish maqsadida shu joylarga kelib, unga markaz sifatida *Porasht* qishlog‘ini tanlagan. Tuman tashkil etilayotgan vaqtda esa qishloq aholisining kamligi, katta yo‘llardan uzoqligi inobatga olinib, tumanning ma’muriy markazi qilib geografik o‘rni nisbatan qulayroq bo‘lgan *Bog‘don* qishlog‘i tanlangan. Tuman nomi sifatida esa avvalgi qishloq nomini qoldirishga qaror qilingan. *Porasht* so‘zi tojik tilidagi og‘zaki talaffuzda *Porash* deb, “*t*” harfi tushirib talaffuz qilinadi. Tumanga nom berilayotgan vaqtda *Porash* so‘zini o‘zbekona talaffuzga moslashtirib, rasmiy hujjatlarda *Forish* deb yozilgan. Qadimiy *Porasht* qishlog‘ining nomi esa rasmiy-ma’muriy tarzda *Eski Forish* deb

o‘zgartirilgan. E’tiborli tomoni shuki, mahalliy aholi hozir ham qishloq nomini *Porasht* shaklida talaffuz qilishadi. Mazkur qishloq nomi rasmiy hujjatlarda eski *Forish* deb qayd qilinganligi tuman nomining shu qishloq nomi bilan bog‘liqligidan dalolat beradi<sup>208</sup>.

**TARAQQIYOT** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidagi mahalla nomi. Mazkur termin arab tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “yuksalish, olg‘a harakatlanish, rivojlanish, o‘shish” ma’nolarini ifodalaydi hamda u mustaqillik yillarida atalgan toponim hisoblanadi. U o‘zbek tilining izohli lug‘atida shunday izohlanadi: “Rivojlanishning oddiydan murakkabga, quyidan yuqori yo‘nalgan shakli, uning yuksalishi”<sup>209</sup>.

**ISHONCH** – Sirdaryo tumanidagi mahalla nomi. Ushbu so‘zning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ikkita ma’nosi qayd etiladi: a) ishonish hissi, tuyg‘usi; b) e’timod etilgan, suyanilgan, umid bog‘langan shaxs yoki narsa tushunchalarini ifodalab, har ikkala ma’nosini ham nazarda tutgan holda qo‘yilgan nom.

**ULUG‘BEK** – Sirdaryo tumanidagi mahalla nomi. Mutafakkir olim, davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek nomi bilan ataladi. *Ulug‘bek* (buyuk, ulkan), *Usmon* (jasorat, mardlik, qo‘rqmas) kabi kishilar ismi ko‘plab joy nomiga qo‘yilganligini ko‘rish mumkin.

**QOROVULTEPA** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanida Navoiy mahallasida joylashgan joy nomi. Qorovultepa – tepalik, yirik aholi manzilgohlari atrofida, katta yo‘llar bo‘yida tashqi dushman haqida xabar berish uchun qorovullar turadigan tabiiy va sun’iy balandlik. Shu nomli tog‘ ham bor. Qadimiy qo‘rg‘on xarobalari o‘rni ham qorovultepalik vazifasini o‘tagan.

**MO‘MINOTA** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani Baxmal mahallasida joylashgan joy nomi. Xalq etimologiyasiga ko‘ra, toponim *Mo‘min ato* ismli shaxs nomiga shunday atalgan. Tilshunoslikda mo‘min so‘zi va Mo‘min ismi mavjud: *mo‘min* – Tangrining borligiga iqror bo‘lgan, imon keltirgan kishi, musulmon. Mo‘min ismining ma’nosi “*dinga va Allohga ishonuvchi, imonli, xudojo‘y, dinga va*

---

<sup>208</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. –Toshkent, 2022. – B. 128.

<sup>209</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати, III жилд, – Б. 677.

*Allohga sadoqatini ham tilida, ham iqrор yo‘li bilan isbotlovchi”* demakdir.

**UCHMA** – Sirdaryo tumanida Navro‘z mahallasida joylashgan joy nomi. Geografik termin. Uchmoq (yiqilib, uchib tushmoq) fe‘lidan. *Uchma* deganda tog‘li joylardagi tik qoya, tik yonbag‘ir tushuniladi. Bu termin “Boburnoma”da ham bir necha marta uchraydi. Zomin tumanidagi Tamtum qishlog‘ida Nodir uchgan, Saodat uchgan, Mullaning qizi uchgan, Yaxshiboy uchgan, Yo‘ldoshning oti uchgan degan joylar (uchmalar) bor<sup>210</sup>.

**KOREYSLAR** – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani Ulug‘bek mahallasida joylashgan qishloq. *Koreyslar yashaydigan qishloq* ma’nosini anglatadi.

## **XOVOS TUMANI**

**XOVOS** – Sirdaryo viloyati tarkibidagi shahar va tuman nomi. Xovos qadimiy shahar, u dastlab X asr arab geograf va sayyohlari Istaxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida tilga olingan<sup>211</sup>. Mutaxassislar nomning etimologiyasi aniq emas, qo‘shimcha etimologik tadqiqotlar talab qiladi, deb yozganlar. E’tiborli tomoni shuki, joy nomlari asrlar osha yashab, ko‘p hollarda o‘tmish “guvohlari” sifatida ko‘p voqea-hodisalar haqida “hikoya qilib beradi”. So‘nggi vaqtlar Xovos so‘zining etimologiyasi haqida quyidagi talqin ilmiy manbalardan aniqlandi. Boburiylar hukmronligi davrida Hindistonda yashab ijod qilgan forsiyzabon shoir va olim Sirojiddin Alixon Orzuning (1689 – Agra, 1756 – Dehli) “Charog‘i hidoyat” lug‘atida mahalliy forsiy tilli xalq xavos so‘zini avom, xizmatkor ma’nosida qo‘llashini ta’kidlagan. Tumanda Xovos shaharchasi, Binokor, Gulbahor, Zafarobod, Paxtakor, Sohibkor, Chamanzor, Qahramon, Turkiston, Farhod, Havotag, Husnobod mahallari bor. Tuman ma’muriy markazi Xovos shaharchasi. Sirdaryo viloyati Xovos tumanida 9 ta madaniy

---

<sup>210</sup> Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 240 б.

<sup>211</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. –Toshkent, 2002. – B. 519.

meros ob`yekti (3 ta arxeologiya, 2 ta me`moriy yodgorlik, 4 ta ziyoratgoh) davlat muhofazasiga olingan, jumladan, Eski Xovos shaharchasi, Toltepa arxeologiya yodgorligi, Chernyayev tarixiy me`moriy yodgorligi, “Xasti buzurgon”, “Bibi ocha”, “Yusuf bobo”, “Sa`du Sayid“ (Sayyidlarning ulug`i), “Sher bobo” ziyoratgohlari saqlanib qolgan.

**“XASTI BUZURGON”** ziyoratgohi – “Xasti buzurg” nomi bilan ulug`langan Jobir boboning qabri joylashgan. Rivoyat qilishlaricha, Jobir bobo Xovos va uning atroflariga islom dinini yoyish uchun kelgan. U Xovosni obod qilishda qatnashgan va xalq o`rtasida ilm ma`rifat tarqatgan. Shu sababli “Xasti buzurg” deya ulug`langan.

**“BIBI OCHA”** ziyoratgohi – Jobir boboning turmush o`rtog`i Bibi Xadicha dafn etilgan.

**“YUSUF BOBO”** ziyoratgohi – qadimda Xovosda temirchilik bilan shug`ullangan va tabiblik qilgan, keyinchalik temirchilar piri deb ulug`langan Yusuf bobo maqbarasi hisoblanadi.

**SA`DU-SAYID** ziyoratgohi Xovos tumani Xovosobod mahallasi “Ko`hna Xovos” ko`chasida joylashgan. Bu ziyoratgohning tarixi, taxminan, VII-VIII asrlarga borib taqaladi. Arabistondan islom dinini targ`ib qilish maqsadida yurtimizga kelgan Jobir boboning farzandlari sharafiga “Sa`du Sayid” (Sayyidlarning ulug`i) nomi bilan atashgan. Ular o`z hayotlarini islom yo`lida uni targ`ib qilishga bag`ishlaganlar.

**“SHER BOBO”** ziyoratgohi – Xovosobod mahallasida joylashgan bu ziyoratgohning tarixi, taxminan, VIII-IX asrlarga borib taqaladi. Bu inson islom dinini targ`ib qilish maqsadida ulamolar bilan birga janglarda qatnashib, musulmonlarga yordam bergan, har doim shiddat va dovyuraklik bilan jang qilgani uchun (unga sher yurak deb nom berishgan) Sher bobo nomini olgan. Hozirda Jizzax viloyati Yangiobod tumanida joylashgan avliyo Changovul otadan ustoz Ahmad Yassaviy bilan birga ta`lim olganlar.

**MO`G`OL** – Sirdaryo viloyati Xovos tumani, Jizzax viloyati Zomin, Baxmal tumanlari; Toshkent viloyati Piskent tumani, Samarqand viloyati Urgut tumanidagi qishloq. *Mo`g`ol, mug`ol* – etnonim. Nomning birinchi komponenti qishloq aholisining turkiy mo`g`ol



qabilasidan ekanligini ko'rsatuvchi so'z. Respublikamizda *Mug'ol*, *Mug'oltov*, *Mug'altay* kabi nomlar anchagina. Mo'g'ullar istilosi davrida O'zbekistonga kelib o'rnashib qolgan turkiy qabilalardan biri *mug'ul*, *mo'g'ul* deb ataladi. Rashididdinning qayd qilishicha, *mo'g'ul* so'zi dastlab *mungol* tarzida qo'llanib, "*kuchsiz, soddako'ngil*" ma'nosini bildirgan. Aholining etnik tarkibi qishloqning nomlanishiga asos bo'lgan<sup>212</sup>.

**QO'QONQISHLOQ** –Sirdaryo viloyatining Xovos tumanda joylashgan qishloq. Mazkur nomdagi qishloqlar Andijon viloyatining Marhamat tumani, Namangan viloyatining Namangan tumanlarida ham mavjud. Shuningdek, Andijon viloyati Paxtaobod tumani markazi ham shu nom bilan nomlandi. Qo'qonqishloq – aynan "qo'qon qishloq", ya'ni "qo'qonliklar tashkil etgan qishloq" ma'nolarini anglatadi<sup>213</sup>.

**QO'QONQARAPCHI** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi Gulbahor mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Qorapchi qabilasining bo'linmalaridan biri *qo'qonqarapchi* yoki *qarapchiqo'qoni* deb ataladi.

**SAVOT** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi qishloq. Bu qishloqning nomi tarixiy bo'lib, katta savdo yo'li ustida joylashgan. Bu nom arab geograflari Ibn Havqal, Istaxriy va Muqaddasiy asarlarida tilga olinadi. "Sabot" – arabcha nom bo'lib, "yom", "bekat", "karvonsaroy" demakdir<sup>214</sup>.

**TALTEPA** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi tepalik nomi. *Tal* (arabcha) – tepalik, do'nglik, pastak tog', tuproq va qum uyumi. Bu yerda pleonastik qo'llanish hodisasi natijasida toponim hosil bo'lgan.

**QAYIRMA** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi mahalla, qishloq, qabriston nomi. Tojikiston Respublikasi Shahrison tumaniga qarashli Qayirma qishlog'idan ko'chib kelgan aholi yashaydigan joy nomi. Shuningdek, Namangan viloyati Chust tumani va Qashqadaryo viloyati G'uzor tumanida joylashgan qishloqlar nomi. Toponim ikkita ma'noli qismdan tashkil topgan: qayir, -ma. *Qayir* so'zi topoasos bo'lib kelgan, -ma qo'shimchasi esa topoformant. Daryo va ko'llar bo'ylab

<sup>212</sup> O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 266.

<sup>213</sup> Ko'rsatilgan asar. – B. 393.

<sup>214</sup> Ko'rsatilgan asar. – B. 410.

cho‘zilgan, suv ko‘payganda suv bosib ketadigan pastak zahob yerlar qayir deyilgan. Mazkur so‘z ba‘zi manbalarda berch yer ma‘nosida izohlangan. Unga borguncha baland-pastlik va turli burilishlardan o‘tib boriladi. Qayir so‘zining *daryo va ko‘llar bo‘yida cho‘zilgan, suv ko‘paygan vaqtda suv bosib ketadigan pastak zahob yer* ma‘nosi arxaiklashgan. Hozirgi kunda bu so‘z *buril* ma‘nosini anglatadi, ya‘ni uning ma‘nosida o‘zgarish ro‘y bergan. Toponimning geografik joylashuvi ham arxaiklashgan ma‘noni inkor etadi. T. Nafasovning qayd etishicha, bu toponim barcha tumanlarda ariq va qishloq nomi bo‘lib keladi. Ammo u *qayir* so‘zini negadir turkiy hamda mo‘g‘ul tillariga oid bo‘lgan *xayr* so‘ziga bog‘lab tahlil qilgan. Bu izohga qo‘shilib bo‘lmaydi. Mazkur oykonimni borib ko‘rish uchun ungacha turli baland-pastlik hamda burilishlardan o‘tib borish kerak. Geografik omildan ko‘rinib turibdiki, qayir so‘zini xayr so‘ziga bog‘lashning hech bir zaruriyati yo‘q. Yana qayir so‘zining o‘zbek tiliga oidligi ham asosiy dalil. Toponimning ikkinchi ma‘noli qismi *-ma* topoformanti esa *-im + -a* ko‘rinishidagi murakkab qo‘shimchadan iborat. Qiyoslang: *bos+ -im+ a > bosma; ter+ -im + -a > terma* kabilar. Binobarin, ushbu toponimning nomlanishiga geografik omil asosiy vosita bo‘lgan, chunki bu oykonimgacha bo‘lgan dromonimlar (yo‘llar) turli-tuman holatdagi qayrilish va baland-pastliklardan tashkil topgan. Mana shu holatni e‘tiborga olgan aholi o‘zlari yashaydigan joyni Qayirma deb atashgan. Qayirma va qayishish so‘zlarining ma‘nolari kuzatilsa, turli burilishlar asosida qayrilish, burilish ma‘nolari yotadi. Qayirma joy nomi *qayishish* so‘zining arxaik holati. Demak, qayirma toponimining etimoni geografik omil vositasida topilgan qayrilish ma‘nosidagi qayirma so‘zi. U onomastik konversiya hodisasidan so‘ng joy nomiga ko‘chgan: *qayir+ -ma > qayirma > Qayirma*. Shuningdek, Farg‘ona viloyatining Quva tumanidagi qishloq va mahalla nomi ham shunday nomlangan. Farg‘ona vodiysida keng tarqalgan joy nomi bo‘lib, aslida geografik termindan olingan. Daryo, soy yoki yo‘lning burilish joyi shunday ataladi. Mazkur hududda joylashgan qishloqlar Qayirma, Qayilma deb atalgan. Bu

nomni “kayir – sug‘oriladigan yer” yoki urug‘ nomi deb izohlovchilar ham bor<sup>215</sup>.

**PARCHAYUZ** – Sirdaryo viloyati Xovos tumani Oqchangel mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Parchayuz nomli qishloqlar Jizzax viloyati Zomin tumani, Toshkent viloyati, Bekobod tumanlarida bor. *Parcha* (forscha erkalash-kichraytish affiksi “pora”) – *parcha, qoldiq, nimaningdir kichkina qismi*<sup>216</sup>. *Parcha* termini o‘zbek qabilalarining qator nomlarida uchraydi: *parchaburqut, parchaqaramang‘it, parchamitan, loqayparcha, parchaqipchoq* va boshqalar. *Parcha* termini urug‘ va qabilalarning turli qoldiqlari yoki qabilaviy birlashishlarini ifodalaydi. Shuningdek, u kichkina qismni yoki urug‘-qabila ittifoqlari yoki katta o‘tmish qabilalarining qoldiqlarini ifodalashi mumkin. Agarda shunday bo‘lsa, *parchaqipchoq* qipchoq bo‘lmagan urug‘ va qabilalar hamda qator qipchoq qismlarini birlashtiradi. Bu xususida *parchaqipchoq* birlashmasiga kiradigan urug‘ nomlari va ularning tarkibi guvohlik beradi<sup>217</sup>.

**UVOQ** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi Nurli kelajak mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Qishloqning *Uvoq* deb atalishiga uning kichik ekanligi sabab bo‘lgan, chunki hozirgi o‘zbek tilida *uvoq* – non uvog‘i “nonning uvog‘i”, *ushoq* – ushoqqina chol “kichkinagina chol” singari tashqi ko‘rinish jihatidan kichiklikka ishora qiladigan so‘zlar mavjud. *Uvoq* (uvak) – o‘zbeklar, qozoqlar tarkibidagi urug‘. *Uvoq* “ushoq”, “urug‘ning bir parchasi”<sup>218</sup>. Shu boisdan bu qishloqning “kichkina” semasini ifodalashini qayd etish o‘rinli bo‘ladi. Tojikiston Respublikasi Shahruston tumaniga qarashli *Uvoq* qishlog‘idan ko‘chib kelgan aholi yashaydigan joy nomi.

**MOZORISHAHID** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi ziyoratgoh. *Mozor* – qabriston, go‘r, qabr (*mozoriston, mozorot* ham

<sup>215</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr.– Toshkent, 2022. – B. 344.

<sup>216</sup> Будагов Л. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий, ч. I. – С. 308.

<sup>217</sup> Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. – Т., 1974. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 314.

<sup>218</sup> Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 240 б.

deyiladi). Musulmon mamlakatlarida ko‘plab toponimlar hosil qilgan<sup>219</sup>. Xovos tepaligida *Mozorisaid*, *Mozoridil*, *Mozoriqavs*, *Mozoripari* kabi toponimlar uchraydi. Arabcha *zara* “ziyosat qilmoq”, “borib yo‘qlab turmoq”, *mo-* old qo‘shimcha “o‘rin”, “joy” ma’nosini bildiradi. *Mozorishahid* – shahidlar qabri ma’nosini beradi.

**CHAMBIL** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi qishloq nomi. *Chambil* – dostonlarda afsonaviy yurt nomi. *Chambil* degan etnonim ham bor. Qo‘ng‘irot qabilasining qanjig‘ali va qo‘shimg‘ali urug‘larining bir bo‘limi *chambil* deb atalgan<sup>220</sup>. Xovos tumanidagi *Chambil* qishlog‘i ana shu etnonimdan nom olgan.

**ISTIQLOL** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi qishloq, shuningdek, Guliston shahri, Boyovut va Xovos tumanlaridagi mahallalar nomi. Mustaqillik yillaridan atalgan mazkur so‘zga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shunday ta’rif beriladi: “*Inson, millat, davlatning boshqalarga tobe bo‘lmay, o‘z erki bilan yashashi, o‘zini o‘zi idora etishi; mustaqillik, erkinlik*”.

**PAXTAKOR** – Sirdaryo viloyati Xovos va Mirzaobod tumanlaridagi qishloq nomi. Boyovut, Xovos, Sardoba va Sirdaryo tumanlaridagi mahalla nomi. Ushbu termin “*paxta yetishtiruvchi, paxta teruvchi*” ma’nosini ifodalab, mazkur hudud faqatgina paxta yetishtirishga mo‘ljallanganligini bildiradi.

**ZAFAROBOD** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi Yangiyer mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Jizzax viloyati tarkibida Zafarobod nomli tuman va shaharcha bor. Zafarobod nomi ikki qismdan iborat, “*zafar*” arabcha *g‘alaba, fath, yutuq, muvaffaqiyat*, “*obod*” – ba’zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo‘shilib joy nomini yasaydigan, “*obodonlashtirilgan*”, “*o‘zlashtirilgan*”, *go‘zal, chiroyli, tartibga solingan* ma’nosidagi affiks so‘z. Oykonimning ikkinchi komponenti – *obod* so‘zi ba’zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo‘shilib, joy nomini yasaydigan, “*obodonlashtirilgan*”, “*o‘zlashtirilgan*”, “*gullab-yashnagan*” ma’nosidagi affiks sanaladi<sup>221</sup>.

<sup>219</sup> Қораев С. Топонимика. – Т., 2006. – Б. 203.

<sup>220</sup> Қораев С. Топонимика. – Т., 2006. – Б. 226.

<sup>221</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 540.

**CHAMANZOR** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi mahalla va qabriston nomi. Mazkur toponim fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, *gulzor*, *ko‘kalamzor* ma’nolarini ifodalaydi. "O‘zbek tilining izohli lug‘ati"da esa shunday ma’nolarni ifodalashi qayd etiladi: "*Gulzor, gulxona, gulshan*".

**SOHIBKOR** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Shuningdek, Xorazm viloyatining Bog‘ot tumanidagi mahalla nomi. Ushbu termin arabcha+forscha bo‘lib, *ishbilarmon, ish beruvchi, yollovchilar, o‘z ishining ustasi, omilkor* ma’nolarini ifodalaydi.

**QORAQUM** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi mahalla nomi. O‘rta Osiyodagi Qoraqum cho‘li nomidan olingan. *Qoraqum* – o‘simlik bilan qoplangan harakatsiz, qattiq qum; *akkum* – harakatdan bo‘shashgan qumlar, o‘simliklardan mahrum qumlar. Mahmud Koshg‘ariyning fikriga ko‘ra, o‘g‘uzlar qumlarni "*kayir*" deb atagan, Turkmaniston Fanlar akademiyasining akademigi Z.B.Muxamedovanning fikricha, Qoraqum nomi kayir kum – qum-qum juft so‘zlaridan kelib chiqqan. *Qora* so‘zi hammasidan ham ko‘proq "shimol", "oddiy" ma’nosini ifodalaydi. Shuningdek, Farg‘ona viloyatidagi keng tarqalgan qishloq va mahallalar nomi ham shunday atalgan. *Qora* so‘zi qumning rangini emas, uning relyefi va xususiyatlarini bildiradi. Qoraqum – ko‘chmas, yopishgan qum ma’nosini anglatadi<sup>222</sup>.

**OQCHANGAL** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi mahalla nomi. Farg‘ona viloyatining Bog‘dod tumani shu nomdagi qishloq mavjud. *Oq* va *changal* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lib, *tikanli o‘simliklar* ma’nosini anglatadi<sup>223</sup>.

Oq komponenti deyarli turkiy xalqlarda ko‘p sonli etnonimlarni hosil qiladi: (qozoqlarda) *oqbaliq*, (o‘zbeklar va qirg‘izlarda) *akbash*, (qirg‘izlarda) *akbuyra*, (qozoqlarda) *akbura*, (qirg‘izlarda) *akdjol*, (turkmanlarda) *akduglat*, (qirg‘izlarda) *akechki*, (qoraqalpoqlarda) *akkaun*, (qozoqlarda) *akkiyik*, (qirg‘izlarda) *akkozu*, (turkmanlarda) *akkumli*, (boshqirdlarda) *akkipchak*, (turkmanlarda) *ak* va *aklar*,

<sup>222</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 375.

<sup>223</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 302, 304.

(qoraqalpoqlarda) *akmangit*, (o‘zbeklar va turkmanlarda) *aksari*, *aktundu*, (o‘zbeklar, qirg‘izlarda) *aktonni* va boshqalar. Taxminiy ma’lumotlar bo‘yicha, ak sifati bilan bog‘liq turkiy xalqlar urug‘-qabilalarining umumiy miqdori 200 dan ortiq birlikni tashkil qiladi. Qora komponenti bilan bog‘liq turkiy xalqlardagi etnonimlar esa undan ham ko‘pdir.

**AFROSIYOB** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi mahalla nomi. Samarqand shahrining qadimiy vayronasi Afrosiyob nomidan olingan. Xalq uni Firdavsiyning “Shoxnoma”sida tasvirlangan va Rustamga qarshi chiqqan Turon shoxi Afrosiyob (Frarasyan, Frasiab), ya’ni Alp Ertunga nomi in’ikosidir deydi. Biroq ko‘pgina olimlar tepalikning sug‘dcha nomi Parshavai bo‘lgan, tojikchada esa Afroz-siyox-ob, Qorasuv ya’ni “Siyob ustidagi joy” deb atalgan va qisqarib Afrosiyob, ya’ni “Siyob bo‘ylari” bo‘lib ketgan deb hisoblaydilar. V.L.Vyatkinning fikricha, Afrosiyob nomi XVII asrdan boshlab yozma manbalarda uchray boshlaydi. Bungacha uni “*Histori ko‘hna*”, “*Qal‘ayi ko‘hna*” (“*Eski qal‘a*”) nomlari bilan tilga olishgan. Endilikda xalq tilida ham, ilmiy adabiyotlarda ham *Afrosiyob* nomi bilan mashhur. V.A.Livshis yodgorlik nomini *Parshab* (so‘g‘dcha *Parshvab*) – “*Siyob usti*” so‘zidan kelib chiqqan, deydi. Biroq Afrosiyob nomi bilan bog‘liq geografik nomlar respublikamizning boshqa joylarida ham ko‘plab uchraydi. V.V.Bartold o‘rta asr arab mualliflari asarlariga tayanib, Afrosiyobdagi bir qator joy nomlarini qayd qiladi. Afrosiyob XIII asrdagi mo‘g‘ullar hujumidan so‘ng xarobalikka yuz tutgan qadimiy Samarqand shahrining markazi bo‘lgan<sup>224</sup>.

**BOG‘ISTON** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi Sohibkor mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanida Bog‘iston nomli qishloq bor. “Bog‘” so‘zi bundan bir necha asr oldin “Alloh” ma’nosini ifodalagan. Geograf olim H.Hasanovning fikricha, Bog‘iston toponimi “*Bug‘ular hayoti*” ma’nosini ifodalagan. Biroq bunday tahlillar asos talab qiladi. Yoki *-iston* qo‘shimchasi so‘zlarga qo‘shilib, quyidagi ma’nolarni ifodalaydi:

1) qaysidir mamlakat yoki xalqning yashash joyi, mamlakat nomi;

<sup>224</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 15.

2) nimalarnidir serob joyi. Mazkur qo‘shimcha so‘zlarga qo‘shilib, qaysidir bir hayvonning nomini hosil qilgani noma‘lum.

**BO‘STON** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi mahalla nomi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da (1981) arabcha *bo‘ston* so‘zi “*bog‘*”, “*dala*”, “*tomorqa*”, “*poliz*”, “*bog‘-rog‘li obod yer*”, “*gullagan joy*”, “*gulzor*”, “*serbog‘ joy*”, “*bog‘iston*”, “*diyor*” kabi ma‘nolarni anglatishi qayd etilgan<sup>225</sup>.

**CHAMANZOR** – Sirdaryo viloyati Xovos shaharchasi tarkibidagi mahalla nomi. Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumanida Chamanzor nomidagi mahalla bor. Mazkur toponim fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, *gulzor*, *ko‘kalamzor* ma‘nolarini ifodalaydi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa shunday ma‘nolarni ifodalashi qayd etiladi: “*Gulzor, gulxona, gulshan*”<sup>226</sup>.

**BUNYODKOR** – Sirdaryo viloyati Xovos shaharchasi tarkibidagi mahalla nomi. Xorazm viloyatining Xonqa tumanida Bunyodkor nomidagi mahalla bor. Mustaqillikdan keyin atalgan mazkur so‘zga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izoh beriladi: “*asos soluvchi, barpo qiluvchi, yaratuvchi*”<sup>227</sup>. Keyin davr mahsuli bo‘lgan bunday nomlar Respublikamizning ko‘plab hududlarida uchrashini qayd etish zarur<sup>228</sup>.

**ISLOMOBOD** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi Nurli kelajak mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Islom va obod so‘zlaridan tashkil topgan. Ehtimol, qishloq asoschisining ismidir<sup>229</sup>.

**BESHYUZ** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi Oqchangel mahallasi tarkibidagi qishloq nomi. Beshyuz (beshjuz) – Jizzax viloyatining G‘allaorol va Zomin tumanida yashovchi yuz qabilasi o‘zbek urug‘i nomi hisoblanib, mazkur qishloq shuning uchun ham shunday nomlangan<sup>230</sup>.

---

<sup>225</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 90.

<sup>226</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати, IV жилд, 453-бет.

<sup>227</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати, I жилд, 522-бет

<sup>228</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 81.

<sup>229</sup> Ko‘rsatilgan asar. – B. 151.

<sup>230</sup> Ko‘rsatilgan asar. – B. 66.

**OQMOZOR BOBO** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi Afrosiyob mahallasida joylashgan qabriston nomi. Mahalliy xalq tomonidan Oqmozor bobo ismli odam sharafiga shu nom bilan nomlangan. Oq – *barakali*, *mo'l nasibali* degan ma'noni anglatadi.

**MINGCHINOR** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi Farhod mahallasida joylashgan qabriston nomi. Mingchinor, O'zbekiston hududidagi bir necha bog'larning nomi. *Ming* va *chinor* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Demak, Mingchinor – “*sanoqsiz, ko'p chinor*” ma'nolarini ifodalaydi<sup>231</sup>.

**QO'QANI-QARAPCHI** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi Obod turmush mahallasida joylashgan qabriston nomi. (ta'rif yuqorida berilgan)

**CHAMANZOR** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi Bo'ston mahallasi hududida joylashgan qabriston nomi. Mazkur toponim fors tilidan o'zlashgan bo'lib, *gulzor*, *ko'kalamzor* ma'nolarini ifodalaydi. “O'zbek tilining izohli lug'ati”da esa “*Gulzor, gulxona, gulshan*” ma'nolarni ifodalashi qayd etiladi.

**MA'RIFAT** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi Mustaqillik mahallasi hududida joylashgan qabriston nomi. Mazkur termin arabcha “*bilim, fan; ma'lumot*” ma'nolarini bildiradi.

**MANGULIK** – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi Qoraqum mahallasi hududida joylashgan qabriston nomi. Mazkur so'zga “O'zbek tilining izohli lug'ati”da shunday izoh beriladi: “*abadiylik, abadiyat*”.

## **GULISTON SHAHAR**

**GULISTON** – Sirdaryo viloyatining ma'muriy markazi, shahar. Shuningdek, Sirdaryo viloyatida Guliston tumani, Sayxunobod tumanidagi mahalla nomi Guliston nomi bilan yuritiladi. 1895 – yilda hozirgi Guliston shahri o'rnida yangi qurilayotgan Samarqand – Toshkent temir yo'li yoqasida dastlabki uylar qad ko'targan. Hozirgi Guliston shahri o'rnida Duxovski va Spasskiy nomli ikkita qishloq paydo bo'lgan. Bu ikkita qishloqning birlashishi natijasida vujudga

<sup>231</sup> O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 233.



kelgan shahar Mirzacho‘l, keyinchalik Guliston deb atalgan. Guliston shahrida Ahillik, Do‘stlik, Navbahor, Nurafshon, Sohil, Shodlik, Yangi hayot, Baxt, Bo‘ston, Buyuk kelajak, Istiqlol, Ulug‘obod, Bog‘ishamol, Namuna, Obod yurt, Sayqal, Taraqqiyot, Bahor, Ibratli, Madaniyat, Ma‘naviyat, Nihol, Ulug‘yo‘l, Yuksalish nomli mahallalari mavjud.

*Gul* va forscha – *iston* (egallovchi ma‘nosini bildiruvchi qo‘shimcha). Yashnagan, obod yer, bog‘-bo‘stonlar makoni bo‘lgan o‘lka<sup>232</sup>. Guliston nomi asrlar davomida qaqrab yotgan Mirzacho‘lni bog‘-rog‘ va ekinzorlarga aylantirilishi va o‘zlashtirilishi sababli berilgan. *Gul* so‘zi joy nomlari tarkibida ko‘p uchraydi va toponimlar yasashda ancha faol qo‘shimcha hisoblanadi. Cho‘l, dasht yoki, umuman, o‘zlashtirilmagan joyda tashkil qilingan obod, yashnagan, bog‘-rog‘lari ko‘p joylar – Guliston deb nomlangan. O‘tgan asrda bu nom yangidan o‘zlashtirilgan joylarda tashkil etilgan aholi manzilgohlariga ko‘p marotaba berildi. Hozirda *Guliston*, *Bo‘ston* kabi nomlarni respublikamizning barcha mintaqalarida uchratish mumkin. Joyning obodlik belgisi bo‘lgan *guliston* so‘zi geografik obyektlarni nomlash qonuniyatlari talabiga to‘la javob berganligi sababli atoqli otga aylangan.

**NAVBAHOR** – Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi mahalla nomi. Shuningdek, Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi shaharcha, Xorazm viloyatining Gurlan tumanida shunday nomli mahallalar mavjud. Mazkur nom Farg‘ona viloyatida ham keng tarqalgan joy nomlaridan biri. Xalq orasida bu nom “*erta ko‘klam*” ma‘nosini anglatadi. Mazkur termin fors tili orqali o‘zlashgan so‘z bo‘lib, u mustaqillik yillarida qo‘yilgan nom hisoblanadi va o‘zbek tilining izohli lug‘atida *erta*, *ilk bahor*, *bahorning boshi* ma‘nolarini ifodalaydi<sup>233</sup>. Umuman, ushbu nom bilan ataladigan joylar Respublikamizning ko‘pchilik hududlarida uchraydi. Aksariyat hollarda bu nom o‘zbek tilidagi *erta bahor*, *ilk bahor*, *bahorning boshlanishi* ma‘nosida ishlatilgan.

---

<sup>232</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – B. 519., O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. –Toshkent, 2022. – B. 134.

<sup>233</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати, III жилд, 6-бет

**NAMUNA** – Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi mahalla nomi. Shuningdek, Xorazm viloyati Bog‘ot tumani shu nomdagi mahalla mavjud, Bundan tashqari, Farg‘ona viloyati Qo‘shtepa, Quva, Farg‘ona tumanlarida keng tarqalgan qishloqlar nomi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *namuna* so‘ziga quyidagicha izoh beriladi: “*O‘rnak bo‘la oladigan, ibrat olsa, ergashsa arziydigan, shaxs yoki narsa: ibrat, o‘rnak*”<sup>234</sup>. *Namuna* deb atalishiga, insonlar o‘z yashash joylarini boshqalarga o‘rnak, ibrat bo‘lsin, degan maqsadda nomlagan bo‘lishlari mumkin.

**OBOD MAHALLA** – Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi mahalla nomi. Shuningdek, Buxoro viloyati Vobkent tumanida shu nomdagi qishloq mavjud. Nomning tarkibi ikkita so‘z – *obod* va *mahalla* so‘zlaridan iborat<sup>235</sup>.

**TARAQQIYOT** – Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi mahalla nomi. Sirdaryo viloyati Boyovut tumanida, Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumanida ham shu nomli mahallalar mavjud. Mazkur termin arab tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “yuksalish, olg‘a harakatlanish, rivojlanish, o‘shish” ma‘nolarini ifodalaydi hamda u mustaqillik yillarida atalgan toponim hisoblanadi. U o‘zbek tilining izohli lug‘atida shunday izohlanadi: “Rivojlanishning oddiydan murakkabga, quyidan yuqori yo‘nalgan shakli, uning yuksalishi”<sup>236</sup>.

**MA‘NAVIYAT** – Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi mahalla nomi. Shuningdek, Xorazm viloyati Bog‘ot tumani ham shu nomda mahalla bor. Mazkur nom “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izohlanadi: “*Insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy va shu kabi tasavvurlari va tushunchalari majmui*”<sup>237</sup>.

**BAHOR** – Guliston shahri va Sirdaryo tumanidagi mahalla, Mirzaobod tumanida ham shu nomdagi qishloq bor. Respublikada keng tarqalgan, takrorlanadigan joy nomlaridan biri. O‘zbek tilida yil faslini anglati-da, nom berishda joyning gullab-yashnagan, chiroyli, rivojlanayotgan maskan ekanligini e‘tirof etilishi nazarda tutiladi

<sup>234</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати, III жилд, 17-бет

<sup>235</sup> O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. B. 284.

<sup>236</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати, III жилд, 677-бет.

<sup>237</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати, II жилд, 564-бет.

**ULUG‘OBOD** — Guliston shahri tarkibidagi mahalla va aholi manzilgohi nomi. Ulug‘obod – oykonim nomi ikki so‘zdan tashkil topgan: *ulug‘* va *obod*. Ushbu ikki so‘z birikib, Ulug‘obod birlashmasini hosil qilgan. Uning ma’nosi ulug‘lar obod qilgan qishloq degan ma’noni anglatadi.

## **YANGIYER SHAHAR**

**YANGIYER** – Sirdaryo viloyatidagi shahar nomi. Xovos tumanidagi qishloq va mahallaga Yangiyer nomi berilgan. Xovos tumanidagi qishloq ham *Yangiyer* nomi bilan ataladi. *Yangi* – ilgari bo‘lmagan, endi yuzaga kelgan (kelayotgan, keladigan)<sup>238</sup> yer (joy, maydon) so‘zlari qo‘shilmasidan hosil bo‘lgan.

**MA’RIFAT** – Sirdaryo viloyati, Yangiyer shahridagi mahalla nomi. Shuningdek, Xorazm viloyati Gurlan tumanida ham bu nom mahalla bor. Mazkur termin arabcha “*bilim, fan; ma’lumot*” ma’nolarini bildiradi.

**YUKSALISH** – Sirdaryo viloyati, Yangiyer va Guliston shaharlaridagi mahalla nomi. Shuningdek, Xorazm viloyati Bog‘ot tumanida ham shu nomdagi mahalla mavjud. O‘zbek tilining izohli lug‘atida *yuksalish* – *taraqqiy etish, rivojlanish, o‘shish, yuksak darajaga erishish, kamol topmoq* kabi ma’nolarni ifodalashi qayd etiladi<sup>239</sup>.

**MANGULIK** – Sirdaryo viloyati Yangiyer shahridagi qabristonlar nomi. Xovos tumani hududida joylashgan. Mazkur so‘zga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shunday izoh beriladi: “*abadiylik, abadiyat*<sup>240</sup>”.

---

<sup>238</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Б. 112.

<sup>239</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати, V жилд, 80-бет.

<sup>240</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати, II жилд, 521-бет.

## SHIRIN SHAHAR

**SHIRIN** – Sirdaryo viloyatidagi shahar nomi. Boyovut va Sirdaryo tumanlaridagi mahallalar *Shirin* nomi bilan ataladi. *Shirin* – fors-tojikcha mazali, totli; shakarli; yoqimli; ahil, totuv; Shirin – xotin-qizlar ismi<sup>241</sup>. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Shirin obraziga nisbatan qo‘yilgan joy nomi.

**NUROBOD** – Sirdaryo viloyati, Shirin shahridagi mahalla nomi. Shuningdek, Xorazm viloyati Xonqa va Gurlan tumanlarida ham shu nomdagi mahallalar bor. Ushbu termin arabcha “yorug‘lik” ma’nosini bildiruvchi *nur* va forscha “*odam yashaydigan, ishlov berilgan*” ma’nolarini ifodalovchi *obod* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil qilingan toponim hisoblanadi.

**VATANPARVAR** – Sirdaryo viloyati Shirin shahrida mahalla va maydon nomi. Shuningdek, Xorazm viloyati Gurlan tumanida shu nomdagi qishloq bor. Ushbu atama o‘z vatani, xalqini sevuvchi ma’nosini ifodalab, u mustaqillik yillarida yangicha yondashuv asosida qo‘yilgan joy nomidir<sup>242</sup>.

---

<sup>241</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Б. 579.

<sup>242</sup> О‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. –Toshkent, 2002. – B. 504.

## XULOSA

Nodir lingvistik, tarixiy va geografik yodgorliklar hisoblangan joy nomlari muayyan tilda xalq tomonidan yaratiladi va o‘sha davrning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy hayoti haqida axborot beradi.

Har bir mamlakat, ayniqsa, mustaqil davlat o‘z hududidagi toponimik nomlarga befarq qaray olmaydi – o‘zining “toponimik xo‘jaligi”ni avaylab-asraydi, hisob-kitob qiladi.

Har qanday kattaroq hududning mahalliy xususiyatlari mavjud. Har bir mintaqa o‘zining tabiiy sharoiti, iqtisodiyoti, geografik terminlari bilan yon-atrofidagilardan ozmi-ko‘pmi farq qiladi, aholining tili va shevalari, etnografiyasi ham farq qilishi mumkin. Demak, bir mintaqaning toponimlari nafaqat leksik jihatdan, balki fonetik jihatdan ham boshqalarnikidan ajralib turadi. Bunday hollarda respublika hududini toponimik jihatdan rayonlashtirish zaruriyati tug‘iladi. Chindan ham toponimika fani geografik nomlar majmui – toponimik landshaftni o‘rganadi, toponimik landshaft esa, lingvistik, tarixiy va boshqa mintaqaviy tafovutlarga ega. Toponimistlar hudud o‘rniga ko‘proq mintaqa terminini ishlatadilar. Biroq respublikamizning ma’muriy-hududiy bo‘linishi bu sohada bizning mushkulimizni osonlashtiradi, chunki, respublika subyektlari – har bir viloyatning tabiiy va iqtisodiy sharoiti, binobarin toponimiyasi bir biridan farq qiladi. Yuqorida keltirilgan ko‘plab misollar buni yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Shuni aytish joizki, toponimlar qadimiy so‘zlar bo‘lganidan geografik joy nomlarning kelib chiqishi haqida fikr bildirish o‘ta murakkab va mas’uliyatli yumushdir. Shu o‘rinda har qanday etimologiya nisbiy ekanligini qayd qilish zarurdir.

Kitobda etnotoponimlarga, ya’ni, urug‘, el-elat nomlari bilan atalgan toponimlarga alohida ahamiyat berildi, chunki, qabila-urug‘ nomlarini boshqa so‘z-terminlardan, masalan, hayvonlar nomlari – totemlardan, ya’ni qabila-urug‘larning “ajdodi” hisoblangan muqaddas jonivorlar nomlaridan yoki o‘simliklar dunyosi va insonlarni o‘rab turgan tabiiy muhitdan ajralgan holda o‘rganishlarsiz, ularning tub ma’nosini aniqlab bo‘lmaydi.

Bayon etilgan fikrlarning hammasi xam uzil-kesil soʻzlar emas, zero har qanday etimologiya nisbiydir. Jonajon oʻlkasini yaxshi biladigan oʻlkashunoslarning mulohazalariga mushtoqmiz. Biroq har xil toponimik rivoyatlarga erk berish ilmiylikdan yiroq ekanligini eslatib oʻtamiz.

Fikr-mulohazalaringizni Sirdaryo viloyat hokimligining davlat tili masalalari boʻlimiga yuborasiz degan umiddamiz !

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шавкат Мирзиёев. Сахро бағрида мўъжизалар яратаётган эл (Сирдарё вилояти сайловчилар вакиллари билан учрашувдаги нутқ). “Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз”. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017, В. 375-376.
2. Авесто (Асқар Маҳкам таржимаси). – Тошкент: Шарқ, 2001.
3. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихидан манбалар. – Тошкент, 1982: – Б. 107.
4. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. -Т.: 2009. -432 б.
5. Охунов Н. Жўйдам, Миришкор ва Баҳрин // Тил ва адабиёт таълими, 2011, № 9, 93-бет.
6. Оʻzbekiston joy nomlarining izohli lugʻati. Birinchi nashr.– Toshkent, 2022.
7. Qorayev S. Toponimika. -Т.: “O'zb. faylasuflar jamiyati", 2006. - 320 б.
8. Абу Бакр Муҳаммад Наршахий. Бухоро тарихи / Форс тилидан А.Расулев таржимаси. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев. – Тошкент: Шарқ баёзи, 1993.
9. Алибеков У. XIX аср охири – XX аср бошларида Сирдарё вилояти демографияси // Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари: Тарих ва ҳозирги замон. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. –Тошкент, 2007. – Б. 17-20.
10. Алишер Навоий. Садди Искандарий. Хамса. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 328.
11. Ал-Мунжид. – Байрут: Католик, 1966.
12. Атаниёзов, Топонимика Юго-восточного Туркменистана. 1980.

13. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 85.
14. Бартольд В.В. Историко-географический очерк Ирана, – Ташкент, 1926. – С. 55, 130.
15. Бартольд В.В. Сочинения в 9 томах (10 книгах). - М.: 1963-1973.
16. Будагов Л. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий, ч. I. С. 308
17. Востров В.В. Родоплеменной состав и расселение казахов на территории Тургайской области. – Труды Института истории, археологии и этнографии АН Казахской ССР. – Алма-Ата, 1962. – С. 87,
18. Гуломов П., Миракмалов М. Топонимика ва географик терминология. – Т.: ЎзМУ, 2005.
19. Гуломов П.Н. География ва табиатдан фойдаланиш. – Т.: Ўқитувчи, 1985.
20. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. 1968.
21. Джалилов С.Д. О названии “Андижан”. Материалы конференции по ономастике Узбекистана. – Джизак, 1985. – С. 7-8.
22. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари (тасниф, текстлар ва луғат). Тошкент: Фан, 1969. — 167 с.
23. Ибн Ҳавқал. Мовароуннахр / араб тилидан тарж., изохлар муаллифи Ш.С.Камолиддин, масъул мухаррир Ф.С.Хусанов.- Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2011.— 400 бет.
24. Ибрат. Фарғона тарихи. – Тошкент: Камалак, 1991.
25. Игамбердиев Р.С. Голодная степь, ее прошлое и настоящее. – Ташкент, 1965. – С.19.
26. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М, 1976. – С. 85.
27. Кляшторный С. Г. Тонюкук-Ашида Юаньчжен. – Тюркологический сборник. К шестидесятилетию А. Н. Кононова. – Москва: Наука, 1966. – С. 75.

- 28.Кораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимикаси. -Т.: “Ozbekiston milliy ensiklopediyasi” Давлат илмий нашриёти, 2005. - 240 б.
- 29.Кубиков К. О некоторых родоплеменных группах узбеков Верхней Кашкадарьи // Этнографическое изучение быта и культуры узбеков. Ташкент, 1972.
- 30.Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978. – 204 б.
- 31.Қораев С. Географик номлар маъносини биласизми? (Топонимик луғат). – Т.: Ўзбекистон, 1970. – 190 б.
- 32.Қудратов С. Қахрамонлар юрти тарихи. – Тошкент. 2023.
- 33.Қудратов С.С. Сардобалар ўлкаси (Сирдарё қадимда ва ўрта асрларда). – Тошкент: Фан, 2001.
- 34.Массон М. Е. Проблема изучения систерн-сардоба. – Т., 1935.
- 35.Маҳмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк. Солиҳ Муталлибов таржимаси асосида нашрга тайёрловчи Қосимжон Содиқов. – Тошкент: Гафур Ғулом нашриёт-матба ижодий уйи, 2017.
- 36.Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов. — М.: 1984.
- 37.Мурзаев Э.М. Тюркские географические названия — М.: 1996.
- 38.Мурзаев Э.М. География в названиях — М.: 1982.
- 39.Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов. Изд. 2-е, перераб. и доп.: в 2-х томах. - М.: “Картгеоцентр-Геоиздат”, 1999.
- 40.Мурзаев Э.М. Слово на карте. - М.: “Армада-пресс”, 2001. — 448 с.
- 41.Мурзаев Э.М. Топонимика и география. - М: “Мысль”, 1995.304 с.
- 42.Мурзаев Э.М., Мурзаева В.Г. Словарь местных географических терминов. 1959. — 304 с.,
- 43.Мурзаев Э.М. География в названиях. -М.: "Наука". 1979.-166 с.
- 44.Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. - М.: Мысль, 1974. — 384 с.,
- 45.Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 128.



46. Наливкин В.П. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886.
47. Нафасов Т. Асрий номлар // ФТ.Т., 1987, №12, 27 б.
48. Нафасов Т. Древнеиранские слова в гидронимии Южного Узбекистана // Ономастика Узбекистана, Т., 1987, с.8-10.
49. Нафасов Т. Жанубий Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи (Студентлар учун махсус курс). Т., ТГПИ нашр., 1985, 83 б.
50. Нафасов Т. Мактабда географик номларни ўрганиш // Она тили ўқитишнинг айрим назарий ва амалий масалалари, Карши, 1988, 10-21 б.
51. Нафасов Т. Номлар сири // ФТ.Т., 1986, №5, 26-27 б.
52. Нафасов Т. Номлар сўзлайди // “Гулистон”.Т., 1970, №10, 21 б.
53. Нафасов Т. Типы названий рек и их притоков Южного Узбекистана // Ономастика Средней Азии. 3. Фрунзе, “Илим” 1989.
54. Нафасов Т. Топонимы Кашкадарьинской области. АКД. (АН УзССР. Инст. яз. и лит.), Т. 1968, с.24.,
55. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимикаси (Спецсеминар) // Махсус курс ва махсус семинар профаммалари. Каршинский ГПИ, Карши, 1988, 18-33 б.
56. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изохли луғати. Ўзбекистоннинг жанубий районлари. Т., “Ўқитувчи”, 1988, 290 б.
57. Нафасов Т. Уйчи нима дегани? // ФТ. 1988, №3, 18-19 б.
58. Нумонов Т., Турдалиев Б., Ҳайдаров А. Наманган топонимларидан материаллар. – Наманган, 1995.
59. Нуриддинов З.Р. Мирзачўл ўтмишда ва ҳозир. – Тошкент: Ўз.Дав. нашр, 1957. – Б.5.
60. Омонжулов Т., Мирзаева Н. Мирзачўлнинг ўтмиш тарихи. – Гулистон, 2011.
61. Охунов Н. Антропонимика нима? Т., “Ўзбекистан”, 1984, 16 б.
62. Охунов Н. Баъзи бир географик терминлар асосида вужудга келган топонимлар // Тилшунослик масалалари, Т., 1978, 158-163 б.
63. Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Т.: Ўзбекистон, 1994. – 85 б.

64. Охунов Н. Номлар сўзлайди, 1978, №9, 28-29 б.
65. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий, 1972.
66. Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
67. Сафоева Е., Шойимардонов И. Ўзбекистон халқлари тарихини ўқитишда ўлкашунослик материалларидан фойдаланиш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – Б. 24.
68. Ситняковский Н.Ф. Перечисление некоторых родов киргизов, обитавших в восточной части Ферганской области. – ИТОРГО, т. 2, вып. 1, 2, – Ташкент, 1900.
69. Сўз мулкига саёҳат. Амударё // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 1996.
70. Суперанская А.В. Теория и методика ономастических исследований. -М., “Наука”. 1986.
71. Суперанская А.В. Что такое топонимика? -М.: “Наука”, 1985.
72. Супруненко П.П., Супруненко Ю.П. Топонимика. -М.: «Терра», 2004.
73. Толстова Л.С. Отголоски ранних этапов этногенеза народов Средней Азии в ее исторической ономастике. “Ономастика Средней Азии”. – М., 1978. – С. 9 – 10.
74. Тўньюқуқ битиктоши // Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи 1982. – Б. 79.
75. Тургунов А. К этимологии топонима “Андижан”. Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана XV – XIX вв. – Ташкент, 1987. – С. 130, 136.
76. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, I жилд.
77. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, II жилд.
78. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, III жилд.
79. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, IV жилд.
80. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, V жилд.
81. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т. 10. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2005.
82. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т. 7. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2005.

83. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т. 8. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2005.
84. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012-й., 41-42-сон. 483-модда.
85. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2003. – Т. 5. – Б. 696.
86. Фозилов Е. Шарқнинг машҳур филологлари. – Т., 1971.
87. Хасанов Ҳ- Сайёҳ олимлар. - Т.: Ўзбекистон, 1981. - 264 б.,
88. Хасанов Ҳ. Географик номлар сири: илмий-оммабоп таъриф. Т., “Ўзбекистон”, 1985. - 120 б.,
89. Хасанов Ҳ. Маҳмуд Қошғарий. Тошкент. “Фан”, 1987. 78 б.
90. Хасанов Ҳ. Ўрта Осиёлик географ ва сайёҳлар. Т. “Ўзбекистон”, 1964, -252 б.,
91. Худоёров А. Дарёларнинг кўҳна номлари // “Маърифат” газетаси, 2007, 20 январь, 14-бет.
92. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 56–57.
93. Ҳасанов Ҳ. Географик номлар имлоси. – Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти, 1962. – 135 б.,
94. Ҳасанов Ҳ. Географик номлар имлоси.- Т.,1965. 16-18 бб.
95. Ҳасанов Ҳ. Ер тили. – Т.: Ўқитувчи, 1977. – 88 б.,
96. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Т.: Фан, 1965.– 80 б.,
97. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланом ( “Шарафномаи шоҳий”). Биринчи китоб; Форс тилидан С. Мирзаев тарж. Сўз боши ва изоҳлар муаллифи: Б. Аҳмедов. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 50.
98. Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. – Т., 1974.
99. Шониёзов К. Ўзбек халқининг этник шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 417.
100. Эгамбердиев Р.С., Разоққов А. Ўзбекистонда кўриқ ерларни суғориш, ўзлаштириш ва мелиорациялаш тарихи (Мирзачўл мисолида). – Тошкент: Фан, 1984. – Б.18.

## MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI .....	4
KIRISH .....	6
TOPONIMIKA FANI VA UNING VAZIFALARI .....	9
VATAN TARIXINI O‘RGANISHDA TOPONIMIKANING O‘RNI .	11
TOPONIMIKA FANINING ILMIY VA AMALIY AHAMIYATI ....	13
TOPONIMIKA FANIGA OID TERMINLAR .....	15
JOY NOMLARI BILAN BOG‘LIQ TERMINLAR.....	16
MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON	
TOPONIMIYASIDAGI O‘ZGARISHLAR .....	19
XIX ASR O‘RTALARI – XX ASR BOSHIDA MIRZACHO‘L .....	21
SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI .....	26
OYKONIMLARNI TASNIFLASH ORQALI NOMLANISH	
JIHATLARINI O‘RGANISH .....	27
SIRDARYO VILOYATIDA GIDROOYKONIMLAR.....	28
SIRDARYO VILOYATIDA OROOYKONIMLAR.....	29
SIRDARYO VILOYATIDA FITOOYKONIMLAR .....	31
SIRDARYO VILOYATIDA ETNOOYKONIMLAR.....	33
SIRDARYO VILOYATIDA ANTROPOOYKONIMLAR .....	36
SIRDARYO VILOYATIDA IQTISODIY IJTIMOY – TURMUSHNI	
AKS ETTIRUVCHI OYKONIMLAR .....	39
SIRDARYO VILOYATINING QISQACHA TOPONIMIK LUG‘ATI	41
BOYOVUT TUMANI .....	48
GULISTON TUMANI.....	66
MIRZAOBOD TUMANI.....	73
OQOLTIN TUMANI .....	82
SAYXUNOBOD TUMANI .....	89
SARDOBA TUMANI.....	98
SIRDARYO TUMANI .....	102
XOVOS TUMANI.....	111
GULISTON SHAHAR .....	120
YANGIYER SHAHAR.....	123
SHIRIN SHAHAR .....	124
XULOSA .....	125
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....	126

**.A.MAXMUDALIYEV,  
.B.TO‘YCHIBOYEV,  
,G.YUSUPOV**

## **SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI**

Нашриёт муҳаррири: Моҳира ЮЛДАШЕВА  
Техник муҳаррир: Бахтиёр ЯКУБОВ  
Саҳифаловчи-дизайнер: Шоҳида МУҚУМОВА

Нашриёт лицензияси № 880921, 14.08.2020 й.

Нашриётга топширилди 25.03.2024 йил.

Чоп этишга рухсат берилди 02.04.2024 йил.

Бичими 108x84/16. Шартли босма табоғи 8,25.

Адади 300 нусха. Буюртма № 218

120100 Гулистон ш.

Ўзбекистон кўчаси, 8-уй. Тел.: (0367) 227-63-09

“Сирдарё Принт” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.

Сирдарё шаҳри, Ўзбекистон кўчаси, 92-уй